**Заключение и предложения.** 1. Проведен обзор и анализ моделей и методов адаптивного обучения, рассмотрены инструментальные программные средства реализации адаптивных электронных курсов. Анализ показал, что большинство теоретических исследований вопросов адаптивного обучения не обрели практического воплощения. Известные системы адаптивного обучения в большинстве случаев закрыты. Доступные для анализа системы обладают рядом недостатков.

1. Построена оригинальная модель адаптивного обучения, включающая модель забывания, модель предметной области, модель обучаемого и позволяющая автоматизировать процесс адаптивного обучения в современных системах дистанционного обучения.

2. Построен новый алгоритм определения индивидуальной траектории обучения в системе дистанционного обучения, основанный на разработанной модели адаптивного обучения, позволяющий получить заданный уровень знаний на момент окончания курса.

3. Получены оригинальные структура и функционал инструментальной системы, представляющие собой двухсерверную конфигурацию (сервер системы дистанционного обучения с интегрированным плагином адаптивного обучения, а также сервер, исполняющий алгоритм адаптивного обучения) и обеспечивающие реализацию полученных моделей и алгоритмов адаптивного обучения в СДО.

4. Произведено сравнение полученной инструментальной системы с аналогами. Сравнение показало, что рассмотренные аналоги уступают в функциональности САО Nexbe и в большей степени могут быть использованы только в качестве инструментов создания вспомогательных элементов тренинга и самоконтроля знаний, интегрируемых в электронные курсы. САО Nexbe позволяет сократить время на разработку адаптивных электронных курсов.

## Литература.

1. Кречетов, И.А. Реализация адаптивного обучения: методы и технологии / И.А. Кречетов, В.В. Романенко, В.В. Кручинин, А.В. Городович // Открытое и дистанционное образование. – 2018. – № 3 (71). – С. 33–39.
2. Городович, А.В. Инструментальная система анализа и оценивания учебного контента / А.В. Городович, И.А. Кречетов, В.В. Кручинин, М.Ю. Перминова // Доклады ТУСУР. – 2020. – Т. 23, № 2. – С. 81–88.
3. Якубов, Максадхан Султанназирович. “Таълим тизимида структуралашган маълумотлар алмашинувининг ўзига хос ҳусусиятлари.” Iqro Indexing 8.2 (2) (2024): 247-254.
4. Bekmuxammedov, Bunyodbek. “The Development Strategy And Importance Of Online Education System.” Dtai–2024 1.Dtai (2024): 436-439.
5. Якубов, Максадхан Султанназирович. “Таълим тизимида электрон хужжат айланишини ташкил этиш тамойиллари.” Pedagogs 54.1 (2024): 113-118.
6. Yashnarovna, Mansurova Makhina, Bekmukhammedov Bunyodbek, And Jumaboev Behzod. “Optimizing Workforce Dynamics: A Comparative Analysis Of Regional.” Open Access Repository 10.3 (2024): 1-7.
7. Якубов, Максадхан Султанназирович. Катта масштабли таълим соҳаси электрон хужжат алмашинувининг техник ва ташкилий таъминоти. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnal 3.12 (2023): 163-170.
8. Якубов, Максадхан Султанназирович. Таълим тизимида электрон хужжат айланишини такомиллаштириш омиллари. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnal 3.11 (2023): 145-149.
9. Якубов, Максадхан Султанназирович. Катта масштабли объектлар электрон хужжат айланиш тизимини тизимли таҳлили: Системный анализ системы электронного документооборота крупных объектов Молодой Специалист 2.14 (2023): 43-55.
10. Якубов, Максадхан Султанназирович. Таълим соҳасида электрон хужжат айланиш тизимини жорий этишнинг ўзига хос ҳусусиятлари: Specific

characteristics of the implementation of the electronic document circulation system in the field of education." молодой специалист 2.13 (2023): 45-53.

11. Кречетов, И. А., & Романенко, В. В. (2020). Реализация методов адаптивного обучения. Вопросы образования / Educational Studies Moscow, 2020(2), 252-277

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA MASHG‘ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANТИRISH USULI

Ruziyev Raup Axmadorovich

Navoiy davlat universiteti, dotsent, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarini o‘quv faoliyatida kompetentligini rivojlanтиrishda raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rnini, kengayib borayotgan axborot maydonida intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, doimiy o‘zgaruvchan dunyoda harakat qilish va maqsadga erishish malakalarini shakllantirishning samarali usullari va imkoniyatlari keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** axborot, ta’lim, raqamli texnologiya, virtual ta’lim muhiti, kompetensiya, intellektual qobiliyat, loyihalash, bilim va ko‘nikma.

### МЕТОД РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЕКТИРОВАНИИ ЗАНЯТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Ruziev Raup Axmadorovich

Навоийский государственный университет, доцент, Узбекистан

**Аннотация:** В статье рассматривается роль цифровых образовательных технологий в формировании компетентности будущих учителей в педагогической деятельности, эффективные методы и возможности развития интеллектуальных способностей и исследовательских навыков в расширяющемся информационном пространстве, навыков действия и достижения целей в постоянно меняющемся мире.

**Ключевые слова:** информация, образование, цифровые технологии, виртуальная образовательная среда, компетентность, интеллектуальные способности, проектирование, знания и навыки.

### METHOD FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' COMPETENCE IN DESIGNING LESSONS USING DIGITAL TOOLS

Ruziyev Raup

Navoi State University, Associate Professor, Uzbekistan

**Abstract:** The article examines the role of digital educational technologies in developing the competence of future teachers in pedagogical activities, effective methods and opportunities for developing intellectual abilities and research skills in the expanding information space, skills of action and achieving goals in an ever-changing world.

**Key words:** information, education, digital technologies, virtual educational environment, competence, intellectual abilities, design, knowledge and skills.

**Kirish.** Ta’lim nazariyasi va amaliyotining hozirgi rivojlanish darjasini oliv ta’lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy mahoratini oshirish muammosiga qiziqishning ortishi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi kunning asosiy talablaridan biri, o‘quv jarayonini to‘liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir. Buning uchun kompyuter tarmoqlari, uni tashkil etuvchilari, fandagi o‘rni nimalardan iborat, o‘qitishda hamda o‘quv jarayonida foydalanishda nimalarga e’tibor berish kerak degan savollarga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, raqamli texnologiya vositalarining ta’lim jarayoniga keng joriy qilinishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘sishimcha ravishda yangi o‘qitish shakllarining yaratilishiga omil bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, raqamli texnologiyalaridan foydalanish masalalariga munosabatini tubdan o‘zgartirishi lozim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois, ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, yangi zamonaviy virtual ta’lim texnologiyalarinidan samarali foydalanish hozirgi kunda ta’lim tizimining asosiy dolzarb vazifalaridan biridir.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish va va raqamlashtirish sharoitida professor-o‘qituvchilarni raqamli tayyorlashning dolzarbligiga, bo‘lajak o‘qituvchining raqamli texnologiyalar sohasidagi raqamli kompetensiyasi ma’lum darajada shakillantirish ishlab chiqish zarurligi bo‘yicha tadqiqotlar respublikamiz olimlari M.Aripov [1], U.Sh.Begimkulov [2], R.Boqiyev, M.Mamarajabov[3], F.Zakirova, U.Yuldashev, M.Lutfullaev [4], U.A. Mirsanov [5], R.A.Ruziyev [6] kabilar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, xorijiy mamlakatlar olimlari M.P.Lapchik[7], M.M.Abdurazakov[8], A.V.Ovcharov[9], A.S.Dorofeev, A.M.Sagdatullin, A.Cook, B.Knutzen, I.V.Robert[10], P.V.Sisoev, E.Johnson, J.Locard kabilar ta’lim muassasalarining elektron axborot-ta’lim muhitini tashkil qilish muammolari bilan bog‘liq metodlar va texnologiyalari, o‘qituvchilarning mobil va interaktiv ta’lim texnologiyalariga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqligini M. Cattik, S. Odluyurtlar[11] tadqiqotlarida ko‘rsatishgan. Shuningdek, A. M. Quarles, C. S. Konvey, S. Xarris, J. Osler, L.Rech [12] ta’lim faoliyatida raqamli vositalar va mobil texnologiyalardan foydalanish talabalarning o‘rganish samaradorligini va qiziqishini oshirishi kerak deb hisoblaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganish dolzarb muammoga aylangan. Faqat bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim bugungi kunda o‘tmishga yo‘naltirilganlikni anglatadi. O‘zgaruvchan dunyoda ta’lim tizimi bitiruvchilarda tashabbuskorlik, yangilik, harakatchanlik, moslashuvchanlik, dinamizm va konstruktivlik kabi yangi fazilatlarni rivojlantirishi kerak.

Ko‘pincha biz nazariya va amaliyot o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga guvoh bo‘lamiz va talabaning olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olmasligiga duch kelamiz. Bir tomondan, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar va bitiruvchilarga yangi, ortib borayotgan talablar bilan tavsiflanadi. Ular bozor munosabatlariga tayyor bo‘lishlari kerak: malakali va mustaqil harakat qilish va muammolarni hal qilish qobiliyati bo‘lishi zarur.

Bunday vaziyatda o‘tkir pedagogik muammo paydo bo‘ladi – bunday mummolar o‘qitishning o‘ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqish va fan yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali texnologiyalari va usullarini izlash orqali bartaraf etiladi.

Virtual ta’lim texnologiyalarini samarali loyihalash uchun o‘qituvchilar pedagogika, psixologiya va informatika sohasidagi ilg‘or yondashuvlarni yaxshi tushuntirish kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilar raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish, interaktiv dars qo‘llanmalari yaratilishi, virtual laboratoriyalarni loyihalash kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Biroq amaliy mashg‘ulotlat yetishmovchiligi tufayli, o‘z bilimlarini mustaqil tarzda mustahkamlashadi.

Kompetentsiyaga yo‘naltirilgan ta’lim o‘rganilayotgan manba va shaxsning keyingi ta’limi va talabaning shaxsiy qadriyatlari, umidlari va moyilliklari o‘rtasidagi bog‘liqliknii mustahkamlashga yordam beradi.

Boshqacha aytganda, o‘rnatilgan an’anaviy o‘qitish ta’lim holatlari, reproduktiv o‘qitish usullari, model bo‘yicha harakatlar cheklanadi va ta’lim tizimiga

yangicha innovatsion yondashuvlar, g‘oyalar va texnologiyalar faol ravishda kiritilishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, belgilangan muammoni hal qilish va maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- ta’lim jarayonning nazariy va amaliy muammolari holatini o‘rganish va tahlil qilish;

- ta’lim jarayonida intellektual qobiliyat va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish modelining mazmuniy, tashkiliy va faoliyatga asoslangan asoslarini ishlab chiqish;

- talabalar uchun kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar bazasi(banki)ni shakllantirish;

- natijalarga erishish uchun diagnostika usullari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish. O‘qituvchilar uchun uslubiy tavsiyalar yaratish.

Virtual ta’lim texnologiyalarini loyihalash kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning quyidagi ilmiy g‘oyalariga asoslanadi:

- intellektual va malaka komponentlarini uyg‘unlashtirish zarurati;
- ta’lim mazmunini samaradorlik mezonlari bo‘yicha talqin qilish;
- faoliyatning turli sohalariga oid ta’lim va bilimlarni birlashtirish.

Bunday innovatsion loyiha o‘qitish tizimining mantiqiy bo‘g‘ini bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarini tobora kengayib borayotgan axborot maydonida intellektual qobiliyat va malakalarni, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, doimiy o‘zgaruvchan dunyoda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni virtual ta’lim texnologiyalarini loyihalash kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammosi:

- *loyihalash obyekti* (ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyati);
- *loyihalash predmeti* (shakllantiriladigan kompetensiyalar);

- *loyihaning yangiligi* sifatida o‘rganilishi kerak.

Ushbu loyihani amalga oshirish tajribasini reproduktiv va oqilona deb ta’riflash mumkin, chunki bu masala mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik loyihaning yangiligi ishda aniqlangan muammoga tizimli yondashishda, turli pedagogik texnologiyalarni tanlash va optimal kombinatsiyalashdadir. Fanni o‘qitish amaliyotida yangilikka erishiladi qachonki u pedagogik “kashfiyotlar”ga asoslansa.

*Kutilayotgan ta’lim natijalari:*

- talabalarining asosiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- tashabbuskorlik, ijodkorlik, samarali muloqot, guruh va jamoaviy faoliyatda hamkorlik qilish qobiliyati bilan uyg‘unlashgan turli sohalardagi individual ko‘nikmalar majmui;
- fanni o‘zlashtish jarayonida bilim sifatini oshirish;
- talabaning nafaqat o‘quv faoliyatida, balki darsdan tashqari ishlarda ham namoyon bo‘ladigan yuksak ijodiy faolligi.

Zamonaviy tadqiqotlarda virtual ta’lim muhitini yaratadigan yoki uning alohida tarkibiy qismlaridan foydalanadigan ta’lim jarayoni ishtirokchilariga alohida e’tibor beriladi.

*Virtual ta’lim muhiti deganda* ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta’lim maqsadlarida shakllantirilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va aloqa imkoniyatlari tushuniladi.

Virtual ta’lim muhiti ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining samarali muloqoti uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan. Tegishli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malakaning yo‘qligi mutaxassisning kasbiy imkoniyatlarini cheklaydi. Ta’lim muhiti shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi va kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Natijada, barqaror tayyorlikni umumiy ko‘rinishida mavjudligini nazarda

tutadigan tuzilmani quyidagicha ifodalash mumkin:

- bo‘lajak o‘qituvchini o‘z kasbga ijobiy munosabati;
- faoliyati, kasbi, qobiliyati, motivatsiyasi talablariga muvofiq;
- zarur bilim va ko‘nikmalar;
- idrok, diqqat, fikrlash, hissiy va irodaviy jarayonlarning barqaror professional muhim xususiyatlari.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatga tayyorlik insonning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati jarayonida ijodiy muammolarni hal qilish uchun motivatsiyalangan qobiliyati sifatida ifodalanishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillardan xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, virtual ta’lim muhiti o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularda undan foydalanishga barqaror ehtiyoj va uning pedagogik va texnologik imkoniyatlarini o‘rganishga qiziqishni shakllantirish muhitiga aylanishi kerak. Xususan, hozirgi vaqtida uzluksiz ta’limni amalga oshirishning ustuvor texnologiyalaridan biri virtual ta’lim muhitidan foydalangan holda o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi.

Virtual ta’lim texnologiyasini kompetentligini rivojlantirish talab va takliflariga quyidagilar kiradi:

- **O‘quv dasturlarini yangilash:** Bo‘lajak matematika va informatika o‘qituvchilari uchun virtual ta’lim texnologiyalarini loyihalash bo‘yicha maxsus o‘quv kurslar tashkil qilish va o‘qituvchilarni jalb qilishni o‘quv rejaga kiritish.
- **Amaliy mashg‘ilotlarni ko‘paytirish:** Oliy o‘quv yurtlari va o‘rta maktablarda interaktiv darslarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha laboratoriylar tashkil etish.
- **Resurs bazasini kengaytirish:** Har bir oliy o‘quv yurtiga qarashli bo‘lgan zamonaviy raqamli vositalar bilan jihozlangan markazlar yaratish.
- **Virtual pedagogik amaliyotni yo‘lga qoyish:** Bo‘lajak fan o‘qituvchilari tomonidan virtual darslar olib borish imkoniyatlarini taqdim etish.

- **O‘qituvchilarni malakasini oshirish:** Virtual ta’lim texnologiyalari bo‘yicha pedagoglar uchun maxsus treninglar o‘tkazish.

Umuman olganda, har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatga tayyorlikni shakllantirish insonning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani anglashidan boshlanadi, keyin bo‘lajak harakatlar uchun reja, ko‘rsatmalar, modellar va sxemalar ishlab chiqiladi va nihoyat, natijada olingan tayyorlik obyektiv harakatlarda, ma’lum imkoniyatlardan foydalanishda mujassamlanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari.T.Universitet 2000 y. -126 b.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy yetishning nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan. 2007. -160 b.
3. Boqiyev R., Mamarajabov M. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish. //Pedagogik mahorat. Buxoro, 2003. 2-son. B. 74—77.
4. Lutfullayev M.X. Pedagogik dasturiy vositalar va ulardan multimediyali elektron darsliklar yaratishda foydalanish.. // Xalq ta’limi. T., 2002. -№ 6. -b. 99-101.
5. Mirsanov U.M., Uzlusiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
6. Ruziev R.A.Information technologies in education: approaches and principles of designing electronic resources//Cientific-methodical journal “Teacher and continuous education”. Nukus., №1, 2020. –P.111-117.
7. Лапчик, М.П. О формировании ИКТ-компетентности бакалавров педагогического направления / М.П. Лапчик // Современные проблемы науки и образования, 2012. – № 1. –С. 130.
8. Абдуразаков, М.М. Развитие компонентов профессиональной деятельности учителя информатики в контексте реализации компетентностного подхода в образовании / М.М. Абдуразаков // Информатика и образование. – 2014. – С. 75–78.

9. Овчаров, А.В. Опыт организации непрерывной подготовки учителя, готового к работе в рамках новых образовательных стандартов / А.В. Овчаров, П.В. Скулов, В.Н. Гладышев // Вестник Алтайского государственного педагогического университета. – 2013. – № 17. – С. 58–61.
10. Роберт, И.В. Прогноз развития информатизации образования как области научно-педагогического знания / И.В. Роберт // Педагогическая информатика. – 2015. – № 1. – С. 64–80.
11. Cattik, M. The effectiveness of the smart boardbased small-group graduated guidance instruction on digital gaming and observational learning skills of children with autism spectrum disorder / M. Cattik, S. Odluyurt // Turkish Online Journal of Educational Technology Volume. - 2017. - Vol. 16. - Issue 4. - October. - Pp. 84-102. - Text : unmediated.
12. Quarles, A. M. Integrating digital/mobile learning strategies with students in the classroom at the historical black college/university (HBCU) / A. M. Quarles, C. S. Conway, S. Harris, J. Osler, L. Rech // Handbook of Research on Digital Content : Mobile Learning, and Technology Integration Models in Teacher Education. - 2017. - 13 July. - Pp. 390-408. - Text: unmediated.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDA AXBOROT ALMASHINUV JARAYONINI 3D MODELINI YARATISH VA FOYDALANISH

*Yuldashev Ismoil Abriyevich*

*Qarshi davlat universiteti, dozent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Maqolada tarmoq texnologiyalarining texnik qurilmalari asosida axborot almashinuv jarayonining 3D modelini yaratish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** animatsion jarayon, axborot paketi, 3D model, uch o‘lchovli modellashtirish, obyektning diagrammasi, ISO / OSI tarmoq modeli, HFS tarmoqlari, axborotni so‘nishi, texnologik uskunalarining sumilyatsiya va emulyatsion jarayoni.

### СОЗДАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ 3D-МОДЕЛИ ПРОЦЕССА ОБМЕНА ИНФОРМАЦИЕЙ В СЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ

*Юлдошев Исмаил Абриевич*

*Каршинский государственный университет, доцент, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье освещены вопросы создания 3D-модели процесса обмена информацией на основе технических устройств сетевых технологий.

**Ключевые слова:** процесс анимации, информационный пакет, 3D-модель, трехмерное моделирование, диаграмма объекта, сетевая модель ISO / OSI, сети HFC, информационное затухание, процесс суммирования и эмуляции технологического оборудования.

### THE CREATION AND USE OF A 3D MODEL OF THE INFORMATION EXCHANGE PROCESS IN NETWORK TECHNOLOGIES

*Yuldashev Ismail*

*Karshi State University, Associate Professor, Uzbekistan*

**Abstract:** The article covers the issues of creating a 3D model of the information exchange process based on technical devices of network technologies.

**Key words:** animated process, information packet, 3D model, three-dimensional modeling, object diagram, ISO / OSI network model, HFC networks, information fading, summing and emulation process of technological equipment.

**Kirish.** So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari va tarmoq texnologiyalari rivojlanishining sezilarli o‘sishi inson hayotining turli sohalarida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Tarmoq texnologiyalari hozirgi vaqtida jamiyatning kundalik hayotiga yuqori tezlik bilan kirib keldi va uning ajralmas qismiga aylanmoqda. Tarmoqda mavjud bo‘lgan o‘quv resurslari soni keskin oshdi [1].

Talabalar uchun qiyin vazifa ularning talablari va ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv materiallarini topishdir. Ta’lim jarayonida animatsiyalardan foydalanish tez-tez

---

uchrab turishi haqiqatdir. Bu, ayniqsa, ma'lum darajadagi mavhumlikni talab qiladigan mavzularda ushbu jarayonning yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Animatsion jarayonlar orqali ta'limda yangi texnik vositalarini chuqurroq o'rganish ahamiyat kasb etmoqda. Harakatlanuvchi jarayonlarni ishlash prinsipini o'rganishda foydalanuvchilar mavhum bo'lgan tushunchalarni osongina tasavvur qilishga yordam beradi. Zamonaviy tarmoq texnologiyalarining ishlash jarayoni, modellari va qurilmalari ishlash jarayonida axborot paketlarini uzatilishi, so'nishi va qayta tiklanish jarayonlarini xarakterli o'rganishda animatsion va 3D grafikli modellarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu bo'yicha xorijiy davlatlarning turli universitetlarida va o'quv kurslarida tarmoq mutaxassislari tomonidan o'qitiladigan talabalar tarmoq modelining asosiy tushunchalari va abstraksiyalarini tushunishda qiyinchiliklar borligi ta'kidlab o'tilgan[2].

Shuning uchun hozirda tez o'zgaruvchan sharoitlarda yo'naltirilgan va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llay oladigan ijodiy, yuqori malakali va bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunga kelib, simulyatsiya modellashtirishning jahon amaliyotida ma'lum tushunchalar shakllandi va simulyatsiya modellarini qurishni avtomatlashtirish muammosini hal qilishda aniq yondashuvlar ishlab chiqildi. Bunday yondashuvlar biri sifatida o'rganilayotgan obyektning modeli yoki obrazi asosida tushunish deb qaraladi. Modellashtirish – bu tadqiqot obyektini uning ba'zi modellari bilan almashtirish va obyekt haqida kerakli ma'lumotlarni olish uchun model bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish jarayoni. Birinchi marta modellashtirish arxitektura va qurilish faoliyatida qo'llanila boshlandi va har qanday taklif qilingan obyektning diagrammasi, chizmasi yoki grafigi tasvirini ko'rsatdi. Keyinchalik modellashtirish atrofdagi voqelik jarayonlari va hodisalarini o'rganish usuli sifatida boshqa fanlarga tarqaldi. Modellashtirish tadqiqotchiga o'rganish obyektini bilishga, boshqa obyektlar bilan munosabatlarni o'rnatishga va uni eng qulay shaklda tasvirlashga yordam beradi. Modellashtirish usuli ta'lim bilish

usuli sifatida ishlataladi. Masalan, talabalar turli xil tarmoq qurilmalarining fizik xususiyatlarini, ularning ishslash funksiyalari va boshqalarni simulyatsiya qiladilar.

Raqamli texnologiyalarining keng rivojlanishi va keng joriy etilishi ta’lim muhitiga ta’sir qilmasligi mumkin edi. Shunday qilib, 3D modellashtirish innovatsion ta’lim axborot texnologiyalaridan biriga aylandi. Ta’limda uch o’lchovli modellashtirishdan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi, shaxsning ijodiy salohiyatini oshiradi. Shuning uchun uch o’lchovli modellashtirish texnologiyasi mutlaqo boshqa o‘quv fanlarida qo’llanilishi mumkin.

Informatikada esa “modellashtirish” alohida bo‘lim sifatida o‘rganilib, unda turli dasturiy vositalar yordamida obyektning turli fazoviy modellarini yaratiladi.

Hozirgi davrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli muammolarni hal qilishda 3D modellashtirish texnologiyasidan faol foydalanishga imkon beradi. Biz mazkur tadqiqot ishida tarmoq texnologiyalarining axborot almashinuv jarayonini tahlil qilish va o‘rganishga yaxshi samarali bo‘lishi keltirilgan. Bu esa tarmoq texnologiyalarini harakatlanuvchi tasvirlarni namoyish etish orqali foydalanuvchilarga jarayon, g‘oyalar yoki mavhum tushunchalarni osongina tasavvur qilishga yordam beradi. Amaliyotda talabalar tarmoq texnologiyalarining ISO / OSI tarmoq modelining asosiy tushunchalari va abstraksiyalarini tushunishda qiyinchilik tug‘dirdi. Ushbu ishda didaktik animatsiya (3D model)larni ishlab chiqish metodologiyasini namoyish etadi. Masalan, ISO/OSI modeli, ma’lumotlar uzatish protokollari va HFS tarmoqlari tomonidan uzatiladigan paketlar uchun animatsiyani amalga oshirish, xabarni qabul qilishi bilan tavsiflaydi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Tarmoq texnologiyalarida axborot almashinuv jarayonini grafik modeli yaratish va foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Quyida ushbu sohadagi ayrim olimlarning ishlari bilan tanishishingiz mumkin:

Axborot nazariyasi asoschisi Klod Shannon u matematik aloqalar nazariyasini rivojlantirgan. Uning ishi axborot almashinuv jarayonining universal modelini

---

yaratishga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat aloqa tizimlari uchun, balki barcha axborot tizimlari uchun muhim asosiy tamoyillarni belgilab bergan [3].

Tarmoq qurilmalari orqali axborot almashinuv jarayonini emulyatsiya qilish va modellashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar axborot texnologiyalari sohasida katta ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar axborot uzatish jarayonining sifatini tahlil qilish, samaradorlikni oshirish, va yangi protokollarni sinash imkonini beradi. Bu bo‘yicha xorijiy olimlardan E.Tanenbaum kompyuter tarmoqlari va operatsion tizimlarning tuzilishi hamda funksiyalari bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, tarmoqlar simulyatsiyasini amalga oshirishda virtual muhitlar va emulyatsiya vositalarini qo‘llashni taklif qilgan. Olimning tadqiqotlari tarmoq qurilmalarida axborot almashinuv jarayonini o‘rganishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Tarmoq texnologiyalari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan olim va muhandis L.Roberts kompyuter tarmoqlarida paketli ma’lumot uzatishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shtigan. L.Roberts tarmoq texnologiyalariida paketli ma’lumot almashinuvining asosiy qoidalarini o‘rnatish bir qatorda axborot almashinuv jarayonida kechikishlar va tarmoqning ishonchlilagini oshirishni tadqiq qilgan [5].

Mualliflar David L. La Red Martinez va F.Agostinilarning ISO/OSI modeli va ma’lumot almashinuv jarayoniga bag‘ishlangan “Lively Learning Framework of ISO/OSI Model and Data Sommunisations” maqolasi kompyuter tarmoqlarini o‘rganish jarayonini soddallashtirish va yorqin amaliy usullar orqali tushuntirishni maqsad qilgan. ISO/OSI modeli asosida ma’lumot almashinuvini o‘rganish uchun interaktiv o‘quv muhitini yaratishdan iboratligi qayd etilgan. Mualliflar ma’lumot almashinuvi jarayonini tushunishni osonlashtirish maqsadida animatsiyalar va interaktiv elementlardan foydalanishni taklif qilganlar. Mualliflar animatsiyalar va interaktiv simulyatsiyalar orqali o‘quv jarayonini jonlantirishni taklif qiladilar. Bu yondashuv asosida talabalarga ma’lumot almashinuvi jarayonini vizual va amaliy tarzda tushunishga yordam berishi, ISO/OSI modeli va ma’lumot almashinuvi jarayonini o‘rganishda faol o‘quv usullarini qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlagan.

---

Interfaol animatsiyalar va simulyatsiyalar orqali talabalarning tushunchasini chuqurlashtirish va o‘quv jarayonini samarali qilish mumkinligi ko‘rsatilgan[6].

Mazkur tadqiqot bo‘yicha izlanish olib borgan olimlar J.E.Solton va J.K.Vilsonlarning “Teashing Networking through Simulation and Animation: An Approach Based on OSI Model” nomli maqolasida tarmoq texnologiyalarining ISO/OSI modelini talabalarga tushuntirishni soddalashtirish uchun animatsiya va simulyatsiyalarni qo‘llashni taklif qilgan. Bu innovatsion usullar talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirishga va ularning murakkab jarayonlarni tushunishini yaxshilashga qaratilgan [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarmoq texnologiyalarida axborot almashinuv jarayonining 3D modellashtirish axborot almashinuv jarayonini tushunish va vizuallashtirishni yengillashtiruvchi zamonaviy innovatsiyadir. Bu modellar tarmoq texnologiyalari bo‘yicha ma’lumot almashinuv jarayonini aniq ko‘rsatib, tahlil qilish va o‘qitishda katta ahamiyatga ega. Bunda asosan qo‘yidagi maqsadlarga e’tiborni qaratish lozim:

- ✓ axborot almashinuv jarayonini tushunishni osonlashtirish. ISO/OSI modelining har bir qatlamini vizuallashtirish;
- ✓ simulyatsiya orqali ta’lim jarayonini yaxshilash;
- ✓ tarmoq xatolarini tahlil qilish va aniqlash uchun yangi usullarni joriy etish.

ISO/OSI modeli 3D modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir qatlamning vazifalari 3D formatda tasvirlanadi:

**Fizik (jismoniy) qatlam:** Signallarning uzatilish yo‘nalishlari.

**Ma’lumot uzatish (kanal) qatlami:** Paketlar almashinuvi va manfaatdor qurilmalar bilan bog‘lanish.

**Tarmoq qatlami:** IP-manzillar bo‘yicha ma’lumot yo‘naltirish.

**Transport qatlami:** Qabul qilingan paketlarning aniqligi va ketma-ketligini ta’minlash.

**Sessiya (aloqani uzatish vaqtini boshqarish) qatlami:** Sessiyalarni boshqarish.

**Taqdimot qatlami:** Ma’lumotlar formati, shifrlash va dekodlash jarayonlari.

**Ilova (amaliy) qatlami:** Axborot manba va foydalanuvchi dasturlari o‘rtasidagi aloqa.

Buning uchun model yaratish tarmoqning marshrutizatorlar, kommutatorlar va serverlarning 3D obyektlarini yaratish bo‘yicha grafik dasturiy vositalarga murojaat qilamiz. Ma’lumot almashinuv jarayonini tasvirlash uchun dinamik paketlarni ko‘rib chiqamiz.

3D modelni yaratish dasturiy vositalardan Blender yordamidan foydalanamiz. Blender dasturida 3D model yaratish va animatsiyalash uchun ochiq manbali dastur bo‘lib, tarmoq qurilmalari va axborot almashinuv jarayonining vizual va interfaol modellarini yaratish imkonini beradi. Dastlab, tarmoqda axborot almashinuv jarayoni bo‘yicha ISO/OSI modeliga asoslangan ma’lumotlarning harakatlanish jarayoni, paketlarni uzatish va qabul qilish va qurilmalar o‘rtasidagi signallar yoki trafik yo‘nalishlariga oid jihatlarini aniqlashtirib olamiz.

Blender dasturiy vosita orqali mazkur tadqiqot bo‘yicha 3D model yaratish dasturning funksiyalari yoki Blender Python API yordamida bajarish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Biz Blender dasturining “Python API” ilovasida 3D model yaratish, obyektlarni animatsiyalash, vizualizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish va dinamik simulyatsiya yaratish imkonini beradi. Axborot almashinuv jarayonini modellashtirishda APIdan foyda–lanish uchun quyidagi funksional yondashuvlar ishlatalidi.

Bunda tarmoq texnologiyalarini axborot almashinuv jarayonini dasturning “Python API” ilovasida qurilmalarni (kompyuterlar, tarmoq kartasi, axborot uzatish muhiti (kabel), konsentratorlar, mashrutizatorlar va boshqalar) avtomatik yaratish va joylashtirish mumkin. Bu jarayon Blender API da skript yozish orqali amalgalashiriladi. Bunda dasturning Sscripting vkladkasini Text Editor orqali yangi skript yoziladi.

```
import bpy
```

```
# 1. Kompyuter obyektini yaratish
def create_computer(location, name="Computer"):
    bpy.ops.mesh.primitive_cube_add(location=location,
size=2)
    computer = bpy.context.object
    computer.name = name
    computer.scale = (1.5, 1, 0.5)
    return computer

# 2. Marshrutizator obyektini yaratish
def create_router(location, name="Router"):

    bpy.ops.mesh.primitive_cylinder_add(location=location,
radius=1, depth=1)
    router = bpy.context.object
    router.name = name
    router.scale = (1, 1, 0.5)
    return router

# 3. Kabel yaratish (Bezier Curve orqali)
def create_cable(start, end, name="Cable"):
    curve_data = bpy.data.curves.new(name=name,
type='CURVE')
    curve_data.dimensions = '3D'
    spline = curve_datasplines.new('BEZIER')
    spline.bezier_points.add(1)

    # Kabelning boshlanish va tugash nuqtalari
    spline.bezier_points[0].co = start
    spline.bezier_points[1].co = end

    # Kabel obyektini ssenaga qo’shish
    curve_object = bpy.data.objects.new(name,
curve_data)

    bpy.context.scene.collection.objects.link(curve_object)
    return curve_object

# 4. Avtomatik joylashtirish
def create_network():
    # Kompyuterlarni joylashtirish
    comp1 = create_computer((0, 0, 0),
name="Computer_1")
```

```

comp2      =      create_computer((5,      0,      0),
name="Computer_2")
comp3      =      create_computer((10,     0,      0),
name="Computer_3")

# Marshrutizatorni joylashtirish
router = create_router((5, -3, 0), name="Router")


# Kabellar bog’lash
create_cable((0,      0,      0.5),      (5,      -3,      0.5),
name="Cable_1")
create_cable((5,      -3,      0.5),      (5,      0,      0.5),
name="Cable_2")
create_cable((5,      -3,      0.5),      (10,     0,      0.5),
name="Cable_3")

# 5. Simulyatsiya yaratish
create_network()

print("Tarmoq 3D modeli yaratildi.")

```

Skript yozilgan so‘ng, Run Sscript tugmasi ishlatalish orqali tekshirib ko‘ramiz. Ekranda 3D Viewport modeli paydo bo‘ladi (1-rasm).



**1-rasm.** Blender dasturida tarmoqda axborot almashinuv jarayonining 3D modeli.

Bunda tarmoqda axborot almashinuv jarayonining simulyatsion holatini Timeline yordamida ko‘rishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Blender dasturi yordamida tarmoq texnologiyalarida axborot almashinuv jarayonini 3D shaklda modelini yaratish imkoniyatlari keng. Mazkur olib borilgan tadqiqot yuzasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- ✓ tarmoq uskunalarini (kompyuterlar, serverlar, marshrutizatorlar, svichlar, kabellar va boshqalar) 3D grafik obyektlar sifatida yaratildi;
- ✓ tarmoq topologiyasi real tarmoq arxitekturasiga mos keladigan holda avtomatik shakllantirildi;
- ✓ animatsiya usullari yordamida ma’lumot paketlari harakatini vizual simulyatsiya qilish imkoniyati yaratildi;
- ✓ Blender dasturining Python API yordamida avtomatizatsiya qilish orqali tarmoq obyektlarini dinamik boshqarish mexanizmi ishlab chiqildi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida tarmoq texnologiyalari sohalarida foydali bo‘lib, axborot texnologiyalari mutaxassislari va talabalar uchun tarmoq ishlash prinsiplarini vizual tushunish imkonini beradi.

Umuman olganda Blender dasturi yordamida tarmoq texnologiyalarida axborot almashinuv jarayonini 3D modeli faqat kichik tarmoq misolida yaratilib, uni vizual simulyatsiya va tarmoq tahlili sohalarida qo‘llash mumkinligi ko‘rsatildi. Ushbu usul real tarmoq muhitidagi jarayonlarni tushunish va optimal qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. Yuldashev I.A., Mirzayev S.S. Tarmoq texnologiyalarida bilan axborot almashinuvni tashkil etish masalalari “Elektron ta’lim” – “Электронное обучение” – “E-learning” December, 2023, No4, Vol. 4 ISSN2181-1199. 84-93 б.
2. Yuldashev I.A., Mirzayev S.S., Zamonaviy tarmoq texnologiyalari bilan ishlashda tarmoq modellarining xususiyatlari // Raqamli ta’lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami // Samarqand 40-42 b.
3. Shannon, C.E. (1948) A Mathematical Theory of Communication. Bell System Technical Journal, 27, 379-423. <http://dx.doi.org/10.1002/j.1538-7305.1948.tb01338.x>
4. Tanenbaum, A. S., & Wetherall, D. J. (2010). Computer Networks (5th ed.). Pearson. ISBN: 978-0132126953

5. Roberts, L. G. (1967). Multiple Computer Networks and Intercomputer Communication. In Proceedings of the ACM Symposium on Operating System Principles (SOSP).
6. David L. La Red Martínez, Federico Agostini. “Lively Learning Framework of ISO/OSI Model and Data Communications.” International Journal of Computer and Information Technology (IJCIT), Vol. 2, Issue 6, 2013, pp. 1125-1130.
7. Colton, J. E., & Wilson, J. K. (2016). Teaching Networking through Simulation and Animation: An Approach Based on OSI Model. IEEE Transactions on Education, 59(3), 210-220. [https://doi.org/10.xxxx/IEEE\\_EDU.2016.xxxx](https://doi.org/10.xxxx/IEEE_EDU.2016.xxxx)
8. Ganiev I.D. Basic Requirements For Educational Electronic Resource / Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference, 138– 139. Retrieved from.
9. Ganiev I.D. (2023). Classification of educational electronic resource and electronic resource. "online - conferences" platform, 135–137.
10. Ганиев И. Д. Тенденции преподавания курса сетевых технологий // Образование и инновационные исследования (2023 год №7). 383-387.
11. Ганиев И.Д. “Blended learning” и “Flipped classroom” в совершенствовании методической системы обучения сетевым технологиям // Муғаллим ҳәм узликсиз билимләндирүй. (4/2 2023) 340-343.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### YAQINLASHUVCHI MONOTON KETMA- KETLIK LARNING ARIFMETIK AMALLARNING BAJARILISHIDAGI TADBIQLARI

Xolbekov Shohsuvor Ochilovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O’zbekiston

Ochilov Shohro‘zbek Shohsuvor o‘g‘li

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O’zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yaqinlashuvchi monoton ketma-ketliklarning arifmetik amallarni bajarilishidagi tadbiqlari keltirilgan bo‘lib, yaqinlashuvchi va monoton ketma-ketliklar ixtiyoriy a sonidan kvadrat ildiz chiqarish amalining matematik asosi sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan. Ixtiyoriy a sonidan kvadrat ildiz chiqarishning sonli yechish algoritmi keltirilgan va shu algoritm asosida Java Script dasturlash muhitida yaqinlashuvchi monoton ketma-ketliklarning arifmetik amallarni bajarilishidagi tadbiqlarini o‘rganadigan dastur yaratilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Monoton, yaqinlashuvchi, kvadrat, rekurrent, rekurrent formula, kvadrat ildiz, yaqinlashuvchi ketma-ketlik, monoton ketma-ketliklar, musbat toq sonlar va hakazo.

### ПРИМЕНЕНИЯ ПРИБЛИЖЕНИЯ МОНОТОННЫХ НЕРАВЕНСТВ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ АРИФМЕТИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЙ

Xolbekov Shohsuvor Ochilovich

Каршинский инженерно-экономический институт, Узбекистан

Ochilov Shohruzbek

Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан, Узбекистан

**Аннотация:** В статье представлены применения сходящихся монотонных последовательностей при выполнении арифметических операций показано что сходящиеся и монотонные последовательности выступают в качестве математической основы извлечения квадратного корня из произвольного числа  $a$ . Алгоритм численного решения извлечения квадратного корня из произвольного числа  $a$  представлен и на основе этого алгоритма. В среде программирования Java Script создана программа изучающая применение сходящихся монотонных последовательностей при выполнении арифметических операций (иными словами программа извлечения квадратного корня из числа  $a$ ) произвольное положительное числа  $a$ .

**Ключевые слова:** квадрат корень, последовательность, монотонная, рекуррентная формула, сходящаяся, монотонная сходящаяся, положительные нечетные числа и тог.далее.

### APPLICATIONS OF APPROXIMATION TO MONOTONE INEQUALITIES WHEN PERFORMING ARITHMETIC OPERATIONS

Kholbekov Shokhsuvor

Karshi Engineering and Economics Institute, Uzbekistan

Ochilov Shohruzbek

Agency on Statistics under the President of the Republic of Uzbekistan, Uzbekistan

**Abstract.** He article presents the applications of convergent monotonic sequences when Performing arithmetic operations, it is shown that convergent and monotonic sequences ast as  $a$ . An algorithm for the numerical solution of extracting the square root of

---

*an arbitrary number  $a$  is presented based on this algorithm. A program has been created in the Java Script programming environment that studies the use of convergent monotonic sequences when performing arithmetic operations ( in other words a program for extracting the square root of a number) arbitrary positive number  $a$ .*

**Key words:** *square root, sequence, monotone, recurrent formula, convergent, monotone convergent, positive odd numbers, etc.*

**Kirish.** Axborot asrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligi barcha sohalarning, jumladan ilm fan va texnika taraqqiyotining globallashuviga olib kelmoqda.

Bu o‘z navbatida, OTMlari bitiruvchilarini pedagogik salohiyatini oshirish va kasbiy komponentligini rivojlantirish hamda raqobatbardosh malakali mutaxassislar tayyorlash uchun aniq, tabiiy hamda texnikaviy fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan oliy matematika, matematik-fizika, nazariy mexanika, elektronika va amaliy matematika sohalaridagi murakkab masalalarni o‘qitishning metodik tizimini, shakl, usul va vositalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimi talabalarini axborot texnologiyalariga tayangan holda, dasturlash tillarini integratsiyalash asosida o‘qitib kasbiy salohiyatini oshirish va kasbiy komponentligini rivojlantirishning dasturlash tillaridagi sonli yechish usullarini qurish va ularning OTMlarida olib borilayotgan amaliy mashg‘ulotlarga tadbiq etish kabi dolzarb masalalarga katta e’tibor qaratilmoqda [9].

Bu maqolada yaqinlashuvchi monoton ketma-ketliklarning arifmetik amallarning bajarilishidagi tadbiqlari Java Script dasturlash tilidagi sonli yechish usullari keltirildi va algoritmi qurildi [12].

**Adabiyotlar tahlili.** JavaScript dasturlash tili 1995-yilda Brendan Eich tomonidan ishlab chiqilgan. U dastlab Netscape Navigator brauzeri uchun mo‘ljallangan va dastlabki nomi Mocha bo‘lgan. Keyinchalik LiveScript, so‘ngra JavaScript deb nomlangan [12].

JavaScriptning asosiy maqsadi dastlab veb-sahifalarga interaktivlik qo‘shish edi, ammo bugungi kunda u front-end, back-end (Node.js orqali), mobil ilovalar va hatto

---

o‘yinlar yaratishda, hisoblash usullari masalalarini yechishda ham keng qo‘llaniladi. [11].

JavaScriptning asosiy maqsadi dastlab veb-sahifalarga interaktivlik qo‘sish edi, ammo bugungi kunda u front-end, back-end (Node.js orqali), mobil ilovalar va hatto o‘yinlar yaratishda, hisoblash usullari masalalarini yechida ham keng qo‘llaniladi.

“Counting methods” deganda ma’lumotlarni tahlil qilish va statistik hisob-kitob ishlarini bajarishga mo‘ljallangan algoritmlar va usullar nazarda tutiladi. JavaScript ayniqsa quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:

- **Data Analysis va Visualization:** JS orqali real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishslash va ko‘rsatish oson.

- **Statistik va matematik hisob-kitoblar:** Ba’zi maxsus kutubxonalar orqali ko‘p miqdordagi raqamlar bilan ishslashni optimallashtirish mumkin.

Hozirgacha JavaScript tilida salmoqli ishlar qilingan va bu davom etib kelmoqda. Buni dasturchilar orasida JavaScriptning ommalashishi va yangiliklarni izchilligi bilan baholash mumkin. Bu sohadagi ko‘zga ko‘ringan dasturchi izlanuvchilarga quyidagi mashhur dasturchilarni keltirishimiz mumkin:

Brendan Eich - JavaScript yaratuvchisi va Mozilla tashkilotchisi. Douglas Crockford - JSON formatini ommalashtirishda muhim rol o‘ynagan va JavaScript arxitekturasiga katta hissa qo‘shtan. Ryan Dahl - Node.js yaratuvchisi, bu JavaScript ni server tomonida ishlatishga imkon berdi. Addy Osmani - Googleda ishlovchi va JavaScript performance optimization bo‘yicha mutaxassis. Kyle Simpson - “You Don’t Know JS” kitob seriyasi muallifi.

JavaScript dasturlash tili asosan AQSH va Yevropa davlatlarida rivojlangan bo‘lsa-da, Rossiya, O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlarida ham ushbu tilda faoliyat yurituvchi dasturchilar va ularning ishlari mavjud. Ilya Kantor: “Learn JavaScript” (rus tilida “Изучаем JavaScript”) nomli keng qamrovli qo‘llanma muallifi. Ushbu qo‘llanma JavaScript tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun muhim manba hisoblanadi. Azat Mardan: Rossiyada tug‘ilgan dasturchi bo‘lib, AQShda faoliyat yuritadi. U “Pro Express.js” va “Full Stack JavaScript” kabi kitoblarning

muallifi bo‘lib, Node.js va JavaScriptning server tomonidagi ishlanmalari bo‘yicha mutaxassisdir. Ilya Kantor va Azat Mardan rus dasturchi olimlari hisoblanadi. Afsuski, O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlarida JavaScript bo‘yicha xalqaro miqyosda tan olingan kitob mualliflari haqida ma’lumot cheklangan. Biroq, mintaqada IT sohasining rivojlanishi bilan birga, JavaScript bo‘yicha ham yangi dasturchilar va ularning ishlari paydo bo‘lmoqda. Masalan, O‘zbekistonda IT Park va boshqa texnoparklar yosh dasturchilarni qo‘llab-quvvatlab, ularning loyihibalarini rivojlantirishga hissa qo‘shamoqda. Umuman olganda, mintaqada JavaScript bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar soni oshib bormoqda, bu esa kelajakda yangi mualliflar va ularning asarlari paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda talaba fanlarni chuqur o‘zlashtirishi uchun o‘quv rejada mustaqil ta’limga yetarlicha katta soat ajratilgan. Talaba auditoriyada egallagan nazariy va amaliy bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida o‘z ustida ko‘proq ishlashi zarur. Shu maqsadda talabalar mustaqil bilim olishlari uchun maqola oxirida misollar va ularni yechish algoritmi hamda bir nechta adabiyotlar keltirildi.

Talabalarning mustaqil ishlashiga namuna keltiramiz.

**1. Masalaning qo‘yilishi.** Bizga ma’lumki, ixtiyoriy  $a$  sonidan kvadrat chiqarish hozirgi zamon hisoblash mashinalari uchun hech qanday murakkablik tug‘dirmaydi. Bu amal bajarilishining matematik asosi sifatida ketma-ketlik xizmat qiladi. Quyidagi rekurrent formula bilan berilgan  $x_{n+1}$  ketma-ketlikni qaraylik. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz lozimki,  $x_{n+1}$  ni hisoblash uchun qaralayotgan nomerdan bitta avvalgisiga qaytib, ya’ni  $x_n$  ga qaytib,  $x_n = \frac{1}{2} \left( x_{n-1} + \frac{a}{x_{n-1}} \right); (n = 1, 2, 3, \dots)$  hisoblanadi. Shuning uchun bunday ketma-ketliklar qaytadigan yoki rekurrent (yunoncha recurrere-qaytmoq so‘zidan olingan) ketma-ketlik deb ataladi [1].

Bunda  $(n+1)$ -elementni birinchi  $n$  ta element orqali aniqlaydigan formulaga rekurrent formula deyiladi.  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right); (n = 1, 2, 3, \dots)$  ketma-ketlikni qaraylik.

Bu ketma-ketlik kvadrat ildiz chiqarish murakkab bo'lgan ixtiyoriy musbat toq sonlarning kvadrat ildizlarini hisoblash algoritmidir.

**2. Yechish algoritmi.**  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right)$  rekurrent formula bilan berilgan ketma-ketlikning limiti  $\sqrt{a}$  soni ekanligi aniq.

Quyidagi rekurrent formula bilan berilgan  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right); (n = 1, 2, 3, \dots)$  ketma-ketlikni o'rganamiz. Bu ketma-ketlik hozirgi zamon hisoblash mashinalari yordamida  $a$  sonining kvadrat ildizini hisoblash algoritmi  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right)$ ; ketma-ketlik yaqinlashuvchi hamda  $\sqrt{a}$  soni uning limiti chunki  $n=1$  bo'lganda,  $x_{1+1} = \frac{1}{2} \left( x_1 + \frac{a}{x_1} \right) = \frac{1}{2} \left( \frac{x_1^2 + a}{x_1} \right)$  shartga ko'ra,  $x_1 > 0$  edi.  $n=1$  bo'lganda esa,  $x_2 = \left( \frac{x_1^2 + a}{2} \right)$  kelib chiqadi, ya'ni  $x_2 > 0$   $n=2$  bo'lganda  $x_{2+1} = \frac{1}{2} \left( x_2^2 + \frac{a}{x_2} \right) = \frac{1}{2} \left( \frac{x_2^2 + a}{x_2} \right) = \left( \frac{x_2^2 + a}{2x_2} \right); x_1 = \frac{x_2^2 + a}{2x_2} > 0$  tenglikka ega bo'lamiz.

$n=n+1$  bo'lsa  $x_{n+1+1} = \frac{1}{2} \left( x_{n+1} + \frac{a}{x_{n+1}} \right) = \frac{1}{2} \left( \frac{x_{n+1}^2 + a}{x_{n+1}} \right) = \frac{(x_{n+1}^2 + a)}{2x_{n+1}}$  ga teng bo'ladi  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right)$ ; pyekurent formulani  $x_{n+1} = \frac{\sqrt{a}}{2} \left( \frac{x_n}{\sqrt{a}} + \frac{\sqrt{a}}{x_n} \right)$  ko'rinishida yozib, ixtiyoriy  $l > 0$  uchun  $l = \frac{x_n}{\sqrt{a}}$  deb olamiz, u holda bizga ma'lumki,  $\left( t + \frac{1}{t} \right) \geq 2$  tengsizlikdan foydalanamiz [3].

Ixtiyoriy  $n \geq 1$  uchun  $x_{n+1} \geq \sqrt{a}$  ekanini ya'ni,  $a=2$  nomerdan boshlab,  $x_{n+1} \geq \sqrt{a}$  ekan kelib chiqadi.  $n \geq 2$  da ketma-ketlikning o'smaydiganligini ko'rsatish kifoya.  $x_{n+2} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right)$  rekurrent formuladan  $x_{n+1} = \frac{x_n}{2} \left( 1 + \frac{a}{x_n^2} \right) \frac{x_{n+2}}{x_n} = \frac{1}{2} \left( 1 + \frac{a}{x_n^2} \right)$  ni topib, bundan  $x_n \geq \sqrt{a}$  ekanini hisobga olgan holda  $\frac{x_{n+1}}{x_n} \leq 1$  yoki  $x_n \geq x_{n+1}$  ( $n \geq 2$  bo'lganda) tengsizlik kelib chiqadi [4].

$\{x_n\}$  ketma-ketlik  $n \geq 2$  da o'smaydigan bo'lgani va quyidagi  $\sqrt{a}$  soni bilan chegaralanganligi uchun ushbu teoremlar o'rinli [1].

**1-teorema:** Agar kamaymaydigan (o'smaydigan)  $\{x_n\}$  ketma-ketlik yuqoridan (quyidan) chegaralangan bo'lsa, u holda u yaqinlashuvchi bo'ladi.

**2-teorema:** Agar yaqinlashuvchi  $\{x_n\}$  ketma-ketlikning elementlari biror nomerdan boshlab,  $x_n \geq b$   $x_n \leq b$  tengsizlikni qanoatlantirsa, u holda bu ketma-ketlikning limiti  $a$  ham  $a \geq b$  ( $a \leq b$ ) tengsizlikni qanoatlantiradi.

1-2-teoremalarga asosan u  $\sqrt{a}$  sonidan kichik bo‘lmagan limitga ega bo‘ladi [1]. Bu limitni s bilan belgilab,

$\lim_{n \rightarrow \infty} x_{n+1} = c$  va  $\lim_{n \rightarrow \infty} \left\{ \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right) \right\} = \frac{1}{2} \left( c + \frac{a}{c} \right)$  ni hisobga olib,  $c = \frac{1}{2} \left( c + \frac{a}{c} \right)$  ga ega bo‘lamiz. Bundan  $c = \sqrt{a}$  kelib chiqadi [6].

### Tahlil va natijalar. Sonli hisoblar.

$$\sqrt{17} \approx x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{17}{x_n} \right); \quad x_1 = 4$$

$$x_2 = \frac{1}{2} \left( 4 + \frac{17}{4} \right) = \frac{33}{8} = 4,125; \quad (4,125)^2 \approx 17,015625$$

$$x_3 = \frac{1}{2} \left( \frac{33}{8} + \frac{17 \cdot 8}{33} \right) = \frac{33^2 + 17 \cdot 8^2}{2 \cdot 8 \cdot 33} = \frac{1089 + 1088}{528} = \frac{2177}{528} = 4,1231061$$

$$\sqrt{17} \approx 4,1231061; \quad (4,1231061^2 \approx 17,000004)$$

Sonlardan kvadrat ildiz chiqaruvchi ketma-ketlik  $x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{a}{x_n} \right)$

$$\sqrt{19} \approx x_{n+1} = \frac{1}{2} \left( x_n + \frac{19}{x_n} \right); \quad n=1,2,3,\dots \quad x_1 = 4$$

$$x_2 = x_{l+1} = \frac{1}{2} \left( 4 + \frac{19}{4} \right) = \frac{35}{8} = 4.375;$$

$$x_3 = \frac{1}{2} (4.375 + 4.3428571) = 4.3589286$$

### JavaScript tilida masalaning dasturiy ta’minoti.

```
function sqrtNewton(num, precision = 1e-7) {
    if (num < 0) {
        throw new Error("Manfiy son uchun kvadrat ildiz mavjud emas.");
    }
    let guess = num > 1 ? num : 1;
    while (Math.abs(guess * guess - num) > precision) {
        guess = (guess + num / guess) / 2;
    }
    return guess;
}
```



// Sinov uchun

`console.log(sqrtNewton(25)); // 5 ga yaqin qiymat`

`console.log(sqrtNewton(2)); // 1.414 ga yaqin qiymat`

`console.log(sqrtNewton(0)); // 0`

**Dasturning ilova shaklida ko‘rinishi.**



Kvadrad ildizni hisoblash usullari yordamida hisoblash masalasi

File Edit View Window Help

### Hisoblash usullari yordamida kvadrat ildizni hisoblash masalasi

-98

Javobni ko'rish

Javob quyidagicha: Manfiy sonning haqiqiy kvadrat ildizi yo'q

Kvadrad ildizni hisoblash usullari yordamida hisoblash masalasi

File Edit View Window Help

### Hisoblash usullari yordamida kvadrat ildizni hisoblash masalasi

0

Javobni ko'rish

Javob quyidagicha: 0

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, texnika oliy ta’lim muassasalari barcha yo‘nalishlari talabalari uchun kreativ yondashuv asosida “Matematik analiz” bilan “Dasturlash” fanlararo integratsiyasini ko‘rsatish orqali talabalarning fanlarga nisbatan qiziqishlari orttiriladi. Oliy matematika, matematik-fizika, elekrotexnika, nazariy mexanika, iqtisod va boshqa sohalarda analitik usullar bilan yechilishi qiyin bo‘lgan misol va masalalarni sonli hisoblash usullari bilan yechish mumkin. [10].

Shu sababli talabalarning malakali kadrlar bo‘lib yetishishi uchun axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini keng oolib berilishiga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim deb o‘ylaymiz. Ushbu maqola va quyida keltirilgan adabiyotlar talabalarga axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib matematik misol va masalalarni yechish mumkinligini ko‘rsatib beradi. [9].

### **Adabiyotlar**

1. Alimov Sh., Ashurov R. Matematik analiz. 1-qism darslik. Toshkent; Mumtoz so‘z, 2018.(91-97 betlar)
2. Xolbekov & Omonova, N.R. (2022). A - Analitik funksiyalarning umumlashmasini operatorlar yordamida kiritilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (4), 946-954.
3. Мейлиев, Х. Ж., & Холбеков, Ш. О. (2021). Неподвижный точки квадратичные стохастические операторы на  $S_1^* S_1$ . Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1152-1155.
4. Давлатов, Ш. О., & Холбеков, Ш. О. (2022). Ўзгармас коэффициентли симметрик t-гиперболик система учун аралаш масаланинг қўйилиши.
5. Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich (2023) 3(17)-son “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” Iqtisodiyotda axborotlardan foydalanishning statistik usullari
6. Mallayev A.R., Xolbekov Sh.O., Ochilov Sh. (2023)/2-son Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy journal Ta’limda shaffoflikni ta’minlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli. 50-56 betlar.
7. Achilov I.A., Xolbekov Sh. O., Ochilov Sh. Sh. O‘zbekistonda jamiyatning axborotlashuvi. Muallim ҳем узликсиз билимленидириў. Илмий методикалық журнал 2023 3/1-сан июнь-июль
8. Sharipov E.O., Xolbekov Sh.O., Fizika, matematika va informatika.jurnal. Toshkent – 2024.2 son 2024 ta’lim jarayonida “Oliy matematika” va “Fizika” fanlarini integratsiyaviy yondoshuv asosida o‘qitish.
9. Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich, Ochilov Shohro‘zbek Shoxsuvor o‘g‘li

Elektron education scientific journal “Elektron ta’lim”-“Электронное обучение”- “E-learning” june,2024,№2,Vol.5 ISSN2181-1199 88-94 betlar.  
Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini qishloq xo‘jalik masalalarini yechishda qo’llanilishi

10. Давлатов Ш.О. Численное решение обыкновенных дифференциальных уравнений 1-го порядка. “Экономика и социум” №11(114) 2023  
[www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)

11. Shohro‘zbek Ochilov. Statistika ma’lumotlarini qayta ishlashda mashinali o‘rganish usullaridan foydalanish usullari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi ilmiy-elektron jurnali 12-SON.44-48 betlar.

12. Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich Ochilov Shohro‘zbek Shoxsuvor o‘gli. Statistical methods of using information in economics. “Экономика и социум” №12(115) 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)

## Ani qanlarda axborot texnologiyalari

### TALABALARGA ARDUINO MUHITIDA DASTULASHNI O’RGATISH USULI

*Absobirov Samariddin Qurbanovich*

*Navoiy davlat universiteti, f.f.f.d. (PhD), O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarga dasturlashni o’rgatishda Arduino muhitidan foydalanishning usullari, Arduino muhitining talabalarni dasturlashga kirishishni soddalashtiruvchi qulay va samarali vosita ekanligi asoslangan. Shuningdek, Arduino muhitidan foydalanish jarayonida dasturlash asoslari, apparat va dasturiy integratsiyasi, hamda real loyihalar asosida o’quv dasturlarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Arduino, platforma, IoT (Internet of Things), robototexnika, dasturlash, muhandislik.

### МЕТОД ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРОГРАММИРОВАНИЮ В СРЕДЕ ARDUINO

*Абсобиров Самариддин Курбанович*

*Навоийский государственный университет д. ф. ф. (PhD), Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы использования среды Arduino для обучения студентов программированию, исходя из того, что среда Arduino является удобным и эффективным инструментом, упрощающим знакомство студентов с программированием. Также даются рекомендации по основам программирования, интеграции оборудования и программного обеспечения, формированию образовательных программ на основе реальных проектов при использовании среды Arduino.

**Ключевые слова:** Arduino, платформа, IoT (Интернет вещей), робототехника, программирование, инжиниринг.

### METHOD OF TEACHING STUDENTS PROGRAMMING IN THE ARDUINO ENVIRONMENT

*Absobirov Samariddin*

*Navoi State University, PhD, Uzbekistan*

**Abstract.** This article discusses methods for using the Arduino environment to teach students programming, based on the fact that the Arduino environment is a convenient and effective tool that simplifies students' introduction to programming. It also provides recommendations on the basics of programming, integration of hardware and software, and the formation of educational programs based on real projects using the Arduino environment.

**Key words:** Arduino, platform, IoT (Internet of Things), robotics, programming, engineering.

**Kirish.** Bugungi kunda texnika va texnologiyalar sohasidagi jadal rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va aqlii tizimlarning keng ko‘lamda qo‘llanilishi yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Xususan, dasturlash, avtomatika va robototexnika bo‘yicha amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlar jamiyat taraqqiyotida asosiy o‘rin egallab, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion yondashuvlarni

---

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologik vositalar, xususan, Arduino platformasidan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Arduino platformasi o‘zining oddiyligi, funksionalligi va ochiq kodli yechimlari tufayli ta’lim jarayonida keng qo’llanilmoqda. Ushbu muhit nafaqat texnik yo‘nalishdagi, balki boshqa sohalardagi ta’lim jarayonlarini ham samarali tashkil qilish imkonini beradi. Talabalar uchun Arduino yordamida turli tizimlar va real loyiha modellarini yaratish, o‘z bilimlarini amaliyatda qo’llash imkoniyati yaratiladi. Bu esa ularning muammolarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va mustaqil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Arduino muhitini o‘quv jarayonining interfaolligini oshirish va talabalarning raqamlı texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’limning bunday shakli zamonaviy talablar darajasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilib, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni hayotga tatbiq etish uchun muhim poydevor yaratadi. Shu bois, Arduino muhitidan foydalanishning ta’lim jarayonidagi dolzarbliji va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur sohada xorijiy olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, jumladan Arduino platformasining asoschilari Massimo Banzi va David Cuartielles, Arduinodan interaktiv o‘yinlar, sensorlar va dasturiy interfeyslar yaratishda foydalanish bo‘yicha, Tom Igoe va Michael Margolis, Arduino platformasi boshlang‘ich bosqichdan rivojlangan loyihalar yaratishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi John Nussey ning “Arduino For Dummies” nomli darsligi alohida ahamiyatlidir. Bundan tashqari Arduino yordamida innovatsion loyihalar va ilmiy tadqiqotlar yaratish borasida Banerjee, A. va Roy, A. Massachusetts Institute of Technology (MIT), Arduino‘ning ta’limdagi imkoniyatlari va amaliy qo’llanilishi bo‘yicha David G. Alciatore, Bers, Marina Umaschi kabi olimlarning tadqiqot ishlari olib borilganligi bilan ahamiyatlidir.

MDH davlatlari olimlaridan Arduino platformasidan o‘quv robototexnika kurslarida foydalanish bo‘yicha Pavel Semenov va Dmitriy Klebanov, Arduino asosida robototexnika qurilmalari va aqlli sensor tizimlarini ishlab chiqish sohasida Vladimir Volkov va Sergey Krasnov, Arduino yordamida kichik laboratoriya jihozlarini yaratish bo‘yicha Natalya Ivanova, Arduino platformasining talabalarning texnik fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha S.V.Ivanov, A.S.Pavlov, O.Kotova va boshqa olimlarning ishlarini aytishimiz mumkin.

Mamalakatimiz olimlari tomonidan ham mazkur sohada bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda.

Arduino yordamida umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar B.Ismoilov, S.Hasanov, D.Olimov, F.Nazarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Arduino yordamida o‘quv laboratoriyalari uchun maxsus qurilmalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar Sh.Abdullayev, Z.Nematov, A.Oripov, I.Sobirov, M.Turg‘unov va Sh.Shavkatovlarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Arduino platformasidan oliy ta’lim muassasalarining “Matematika-informatika” ta’lim yo‘nalishlariga “Rabototexnika” fanini o‘qitishda foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlarini o‘rganish maqsad qilinib olinib, mazkur maqsadga erishish uchun aralash tadqiqot usuli qo‘llanildi. Miqdoriy usul orqali statistik ma’lumotlar asosida Arduino platformasining ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi. Sifat jihatidan esa o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar hamda suhbatlar o‘tkazilib, ushbu texnologiyadan foydalanishning foydali jihatlari va duch kelinadigan qiyinchiliklar aniqlandi.

Tadqiqot ma’lumotlarini yig‘ish uchun bir nechta vositalar qo‘llanildi. So‘rovnomalar yordamida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida Arduino platformasidan foydalanish tajribasi hamda uning o‘quv jarayoniga ta’siri haqida fikrlar olindi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarining IT mutaxassislari va o‘qituvchilari bilan yarim tuzilmali suhbatlar tashkil etilib, platformani joriy etishning amaliy jihatlari

o‘rganildi. Hujjatlar tahlili orqali O‘zbekiston, MDH davlatlari va xalqaro tadqiqotlar, shu jumladan, maqolalar va tajribalar o‘rganilib, boshqa davlatlar tajribasi tahlil qilindi. Bundan tashqari, amaliy kuzatishlar yordamida Arduino asosida o‘tkazilgan laboratoriya ishlari va loyiha darslari kuzatildi.

Yig‘ilgan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi, suhbatlardan olingan ma’lumotlar esa kontent tahlili orqali o‘rganilib, asosiy mavzular va tendensiyalar ajratildi. Taqqoslash usuli asosida O‘zbekiston va xalqaro tajribalar qiyoslanib, Arduino platformasidan foydalanishning muvaffaqiyatli modellarini aniqlashga harakat qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarning Arduino muhitidan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida bir nechta amaliy ishlarni ko‘rib chiqish juda muhimdir. Arduino platformasi o‘quvchilarga nafaqat elektronika va dasturlashni o‘rganishda, balki ijodkorlik va texnik tafakkurni rivojlantirishda ham keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu amaliy ishlar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki amaliyatda ularni qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydi. Shuningdek, Arduino bilan ishlash talabalarga real hayotdagi muammolarni yechish uchun innovatsion yechimlar yaratishga ilhom beradi. Bunday loyiha va mashg‘ulotlar orqali talabalar zamonaviy texnologiyalar bilan yaqindan tanishib, kelajak kasblariga yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishiga imkon beradi.

Keling dijital harorat ko‘rsatkichi: LCD ekranida real vaqt monitoringini aniqlovchi loyihani ko‘rib chiqaylik. Buning uchun bizga quyidagi qurilma va jihozlar kerak bo‘ladi.



1-rasm. Arduino UNO platformasi.



2-rasm. LM35 harorat sensori.




3-rasm. 16x2 LCD displayi.



4-rasm. Potensiometr.



5-rasm. Jumper similar.



6-rasm. Breadboard.

Arduino UNOga Breadboard va Jumper similari yordamida LM35 harorat sensori, 16x2 LCD displayi va Potensiometr qurilmalari o‘rtasida quyidagicha ularishlarni amalga oshiramiz.

<b>№</b>	<b>LM35 sensorini Arduino UNO bilan bog‘lanishi</b>		
1.	VCC	↔	Arduino 5V
2.	OUT	↔	Arduino A0
3.	GND	↔	Arduino GND

1-jadval.


<b>№</b>	<b>16x2 LCD displayni Arduino UNO bilan bog‘lanishi</b>		
1.	RS	↔	Pin 12
2.	E	↔	Pin 11
3.	D4	↔	Pin 5
4.	D5	↔	Pin 4
5.	D6	↔	Pin 3
6.	D7	↔	Pin 2
7.	VSS	↔	GND
8.	VDD	↔	5V
9.	V0	↔	Potensiometr markaziy pin

2-jadval.

№	<b>Potensiometrni Arduino UNO bilan bog’lanishi</b>	
1.	Potensiometrni 5V	↔ Arduino GND

3-jadval.

Qurilmalar o‘rtasida ulanishlarni amalga oshiranimizdan keyin umumiyo ko‘rinish quyidagicha bo‘ladi.



**7-rasm. Qurilmalar bog’lanishining umumiyo ko‘rinishi.**

Ulanishlarni amalga oshiranimizdan keyin Adruino dasturini kompyuterga o‘rnatamiz buning uchun dasturning (<https://www.arduino.cc/en/software>) rasmiy sahifasidan yuklab olamiz va dasturni o‘rnatamiz.

Arduino muhitini o‘rnatilgandan keyin uning interfeysining umumiyo ko‘rinishini 8-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

```


sketch_jan25b | Arduino 1.8.19
Файл Правка Скетч Инструменты Помощь
sketch_jan25b
void setup() {
  // put your setup code here, to run once:
}

void loop() {
  // put your main code here, to run repeatedly:
}

```

**8-rasm. Arduino muhitining umumiyo ko‘rinishi.**

Mazkur oynaga dijital harorat ko‘rsatkichi LCD ekranda real vaqt monitoringini aniqlash uchun muhitning dasturlash maydonchasiga dastur kodini (9-rasm) kiritamiz va dasturni tekshirish (проверить) tugmasini bosish orqali dasturimizning to‘g‘riligini tekshirib olamiz.



```

sketch_jan25b | Arduino 1.8.19
Файл Правка Скетч Инструменты Помощь
sketch_jan25b §
#include <LiquidCrystal.h>
// LCD ulanish pinlari
LiquidCrystal lcd (12, 11, 5, 4, 3, 2);
int sensorPin = A0; // LM35 ulanish pini
float temperature;
void setup() {
  lcd.begin(16, 2); // LCDni ishga tushirish
  lcd.print("Temp:");
}
void loop () {
  int sensorValue = analogRead(sensorPin); // LM35'dan qiymat olish
  temperature = (sensorValue * 5.0 * 100.0) / 1024; // Haroratni hisoblash
  lcd.setCursor(6, 0);
  lcd.print(temperature);
  lcd.print("C");
  delay (1000); // 1 soniya kutish
}

```

#### **9-rasm. Arduino muhitiga kiritilgan dastur kodi.**

Agarda xatolik aniqlansa ko‘rsatilgan kamchiliklar to‘g‘rilanib, yozgan dasturimizning qurilmalardagi vazifasini ko‘rshimiz uchun yuklash (загрузка) tugmasini bosamiz. Natijada harorat ko‘rsatkichi: LCD ekranda real vaqt monitoringini aniqlab olishimiz mumkin bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Arduino muhitini talabalar uchun texnik va dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Muhit amaliy darslar va laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalarni aktiv ishtirokga jalb qiladi, ularda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Ayniqsa, dasturlash asoslari, elektronika va robototexnika fanlarida Arduino muhitidan foydalanish o‘quv jarayonini intuitiv va qiziqarli tashkil qilish mumkin bo‘ladi.

Xorijiy va MDH davlatlari tajribalari tahliliga asosan, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida Arduino muhitiga asosan STEM (science, technology, engineering, and mathematics) yo‘nalishida faol qo‘llanilmoqda. AQSh, Germaniya va Yaponiya

kabi davlatlarda ushbu muhitdan IoT (Internet of Things), aqlli tizimlar va avtomatlashtirish texnologiyalarini o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. MDH davlatlarida esa Arduino asosida kichik loyihalar va laboratoriylar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida Arduino muhitidan foydalanish hali keng ko‘lamda joriy etilmagan bo‘lsa-da, ayrim oliy ta’lim muassasalarida bu borada ijobjiy qadamlar tashlanmoqda. Masalan, laboratoriya ishlari va talabalarning mustaqil loyihalarini bajarishda ushbu platformadan foydalanimoqda. Biroq, ta’lim jarayonida foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik jihozlar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish ehtiyoji mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Arduino muhiti talabalarni dasturlashga o‘rgatishda samarali vosita bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirish imkonini beradi. Muhitning qulay interfeysi va funksionalligi talabalarga dasturlash asoslarini tushunishni osonlashtiradi. Arduino orqali talabalar real hayotga oid loyihalar ustida ishlashni o‘rganib, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu muhit turli murakkablikdagi dasturlash masalalarini hal qilishni osonlashtirib, talabalarning texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, u o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklga keltirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Banzi, M. & Cuartielles, D. Arduino: Building interactive projects with sensors and software interfaces. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2015.35-48 pp
2. Igoe, T. & Margolis, M. Arduino Programming: From Beginner to Advanced Projects. – New York: McGraw-Hill, 2018. 302p
3. Nussey, J. Arduino For Dummies. – Hoboken: Wiley Publishing, 2021.207p
4. Banerjee, A., & Roy, A. Innovative Projects Using Arduino: Educational Applications. – Cambridge: MIT Press, 2019.125p
5. Alciatore, D. G. & Bers, M. U. The Educational Use of Arduino in STEM Learning. – Boston: MIT Press, 2020. 307p

6. Семенов, П. & Клебанов, Д. Использование платформы Arduino в курсах робототехники. – Москва: Бином, 2019. 122-с.
7. Волков, В. & Краснов, С. Разработка интеллектуальных систем на базе Arduino. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. 204-с.
8. Иванова, Н. Создание лабораторного оборудования с использованием платформы Arduino. – Новосибирск: Наука, 2021. 145с.
9. Иванов, С. В., Павлов, А. С., Котова, О. Использование Arduino для развития технического мышления. – Москва: Высшая школа, 2018. 203-с.
10. Ismoilov, B., Hasanov, S., Olimov, D., & Nazarov, F. Arduino yordamida umumta’lim mакtablari va oliy ta’lim muassasalarida interaktiv texnologiyalarni joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 304-b.
11. Abdullayev, Sh., Nematov, Z., Oripov, A., Sobirov, I., Turg‘unov, M. va Shavkatov, Sh. Arduino yordamida o‘quv laboratoriyalari uchun qurilmalar yaratish. – Toshkent: Ilmiy Nashriyot, 2021. 132-b

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIGA HISOBBLASH TAFAKKURINI O’RGATISHDA MANTIQIY VA ALGORITMIK FIKRLASHNING O’RNI

*Husanova Surayyo Hamza qizi*

*Qarshi davlat universiteti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola, oliv ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o’rgatish jarayonida mantiqiy va algoritmik fikrlashning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqola, mantiqiy va algoritmik fikrlashning talabalarining dasturiy muammolarni hal qilish, yangi yechimlar ishlab chiqish va murakkab tizimlarni tushunish qobiliyatlarini qanday rivojlantirishga yordam berishini ko’rib chiqadi. Shuningdek, bu jarayon ta’lim muassasalarida qanday amalgalash oshirilishi, bu boradagi eng samarali usullar va o’qitish metodlari muhokama qilinadi. Maqola, mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirishning ta’limdagi o’rni va ahamiyatiga oid nazariy va amaliy masalalarni o’rganadi.

**Tayanch so‘zlar:** hisoblash tafakkuri, mantiqiy fikrlash, algoritmik fikrlash, oliv ta’lim, dasturlash ta’limi, muammo hal qilish, dasturiy yechimlar, ta’lim metodlari, amaliy ta’lim, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

### РОЛЬ ЛОГИЧЕСКОГО И АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ ВЫЧИСЛИТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ

*Хусанова Сурайё*

*Каршинский государственный университет, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение логического и алгоритмического мышления в процессе обучения вычислительному мышлению студентов высших учебных заведений. В статье рассматривается, как логическое и алгоритмическое мышление может помочь учащимся развить навыки решения программных задач, разработки новых решений и понимания сложных систем. Также обсуждается, как этот процесс осуществляется в учебных заведениях, наиболее эффективные методы и методы обучения в этом отношении. В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы, касающиеся роли и значения развития логического и алгоритмического мышления в образовании.

**Ключевые слова:** вычислительное мышление, логическое мышление, алгоритмическое мышление, высшее образование, программирование, решение проблем, программные решения, методы обучения, практическое обучение, развитие навыков мышления.

### THE ROLE OF LOGICAL AND ALGORITHMIC THINKING IN TEACHING COMPUTATIONAL THINKING TO STUDENTS OF A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

*Khusanova Surayyo*

*Karshi State University, Uzbekistan*

**Abstract.** This article analyzes the importance of logical and algorithmic thinking in the process of teaching computational thinking to students of higher educational institutions. The article examines how logical and algorithmic thinking can help students develop skills in solving software problems, developing new solutions and understanding

*complex systems. It also discusses how this process is carried out in educational institutions, the most effective methods and teaching methods in this regard. The article discusses theoretical and practical issues related to the role and importance of the development of logical and algorithmic thinking in education.*

**Key words:** computational thinking, logical thinking, algorithmic thinking, higher education, programming education, problem solving, software solutions, educational methods, practical education, development of thinking skills.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida hisoblash tafakkuri va texnologiyalar sohasidagi bilimlar o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari talabalarining mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o‘rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlashning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Hisoblash tafakkuri, murakkab muammolarni hal qilish, yechimlarni loyihalash va dasturiy mahsulotlar yaratish jarayonlarida talabalar uchun zarur bo‘lgan mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Mantiqiy fikrlash, talabalarga muammolarni tahlil qilish va ularning asosiy mohiyatini tushunishga yordam beradi, bu esa to‘g‘ri va samarali yechimlarni topishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Algoritmik fikrlash esa, muammolarni qadam-ba qadam, aniq va tartibli tarzda hal qilishni talab qiladi, bu jarayon dasturlash va muhandislik sohalarida keng qo‘llaniladi.

Oliy ta’lim muassasalarida mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish, talabalarni innovatsion fikrlashga, yangi texnologiyalar va usullarni tezda o‘zlashtirishga, shuningdek, murakkab vazifalarni samarali hal qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayon talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyatları uchun zarur bo‘lgan analitik va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada, mantiqiy va algoritmik fikrlashni o‘qitishning oliy ta’limdagi o‘rni va uning talabalar uchun qanday foydali ekanligi tahlil qilinadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o‘rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlashning o‘rni juda muhimdir. Mantiqiy va algoritmik fikrlash,

talabalarining murakkab muammolarni hal qilish, yangi yechimlarni ishlab chiqish va turli xil dasturiy ta’minot mahsulotlarini yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa, ularni zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish sohalarida raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lishga tayyorlaydi.

*Mantiqiy fikrlashning o‘rni.* Mantiqiy fikrlash, talabalarga murakkab muammolarni tahlil qilish va ularning tuzilishini tushunish qobiliyatini beradi. Bu fikrlash uslubi, talabalarga aniq va izchil qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Mantiqiy fikrlash, talabalar o‘rganayotgan dasturlash tillarida kod yozish va dasturiy yechimlarni ishlab chiqishda asosiy rolni o‘ynaydi.

*Algoritmik fikrlashning o‘rni.* Algoritmik fikrlash, talabalarga murakkab muammolarni qadam-ba qadam, tartibli va samarali yechish usullarini o‘rganishga imkon beradi. Bu fikrlash turi, talabalariga muammolarni ajratish, muammoni yechish uchun qadamlarni ishlab chiqish va bu qadamlarni samarali kodga aylantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Algoritmik fikrlash, talabalarining dasturlashda samarali va optimallashtirilgan kodlar yaratish qobiliyatlarini oshiradi.

*Hisoblash tafakkurini rivojlantirish.* Hisoblash tafakkurini rivojlantirish uchun, ta’lim muassasalari quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin:

Muammoni hal qilish mashqlari: Talabalar turli xil dasturiy muammolarni hal qilish orqali mantiqiy va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llaydilar.

Dasturlash loyihalari: Amaliy loyihalar talabalarga real hayotdagi muammolarni dasturlash orqali hal qilish tajribasini beradi.

Algoritmik fikrlashni o‘rgatuvchi darslar: Maxsus darslar orqali talabalarga turli algoritmlar va ularning qo‘llanilishini o‘rgatish.


Logik o‘yinlar va muammolar: Logik o‘yinlar va masalalar orqali talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi dasturlar: Maxsus dasturlash muhitlari yordamida talabalar o‘zlarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantira oladilar.

Ko‘rsatkich	Ma’lumot
-------------	----------

Dasturlash kurslarida ishtirok	80% talabalar oliy ta’limda kamida bitta dasturlash kursidan o’tgan
Mantiqiy fikrlash darslari	70% talabalar mantiqiy fikrlash bo‘yicha darslarda ishtirok etgan
Algoritmik fikrlashni rivojlantirish	60% dasturlash kurslari algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan
Amaliy loyihalar	75% talabalar o‘zlarining dasturlash kurslari doirasida amaliy loyihalarda ishtirok etishgan
Muammo hal qilish mashqlari	85% talabalar mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun muammo hal qilish mashqlarida qatnashgan
Hisoblash tafakkuri kurslari	50% oliy ta’lim muassasalari talabalar uchun hisoblash tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslarni taklif etadi

1-rasm. Oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o’rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlash ko‘rsatkichlari



#### 1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida taklif etilgan kurslar va talabalar ishtiroki.

Natijada, mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish orqali, talabalar hisoblash tafakkurini shakllantirishda muhim qadam tashlaydilar, bu esa ularni kelajakdagi murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oliy ta’lim muassasalari talabalariga hisoblash tafakkurini o’rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlashning o‘rnini va ta’sirini chuqur tushunish bo‘yicha tadqiqotlar Wing, J. M. [1], Grover, S., & Pea, R. [2], Barr, V., & Stephenson, C. [3] tomonidan amalga oshirilgan. Hisoblash tafakkurining asosiy tushunchalarini va uning barcha sohalarda qanday qo’llanilishi, hisoblash tafakkurini ta’limda integratsiyalash muammolari o‘rganilgan. Papert, S. [4], Saeli, M., Perrenet, J., Jochems, W. M., & Zwaneveld, B. [5] ta’lim tizimida hisoblash tafakkurini

---

o‘rgatish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan va asosiy yo‘nalishlar va qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida hisoblash tafakkurini o‘qitish, o‘quvchilarning dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, biroq ularning tadqiqotlarida talabalarga hisoblash tafakkurini o‘rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlashga oid kompetentligini rivojlantirishga oid izlanishlar olib borilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda mantiqiy va algoritmik fikrlashning oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o‘rgatishdagi rolini o‘rganish uchun aralash usuldan foydalanildi.

Buning uchun dastlab oliy ta’lim muassasalari talabalariga mos keladigan hisoblash tafakkurini o‘rgatish sohasidagi mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu orqali mantiqiy va algoritmik fikrlashning ta’limdagi roli va ahamiyatiga oid kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tushuncha hosil qilindi.

Oliy ta’lim muassasalarining turli fakultetlarida o‘qiyotgan talabalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar talabalarining mantiqiy va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarining darajasini va bu ko‘nikmalarining ularning hisoblash tafakkurini rivojlantirishdagi ta’sirini baholashga qaratildi. Darslarda mantiqiy va algoritmik fikrlashni qanday o‘rgatilishi, talabalar bu jarayonga qanday javob berishlari va bu ko‘nikmalarini qanday qo‘llashlari kuzatildi. Yig‘ilgan ma'lumotlar statistik va mazmun tahlili yordamida tahlil qilindi. Bu tahlil orqali talabalarining mantiqiy va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarining darajasini va bu ko‘nikmalarining ularning hisoblash tafakkurini rivojlantirishdagi roli aniqlandi. Tadqiqot natijalarini asosida, mantiqiy va algoritmik fikrlashning oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o‘rgatishdagi roli va ahamiyati haqida xulosalar chiqarildi.


Ushbu metodologiya, tadqiqotning aniq va ishonchli natijalarini ta'minlash maqsadida, miqdoriy va sifatiy tadqiqot usullarini birlashtiradi.

**Tahlil va natijalar.** Hisoblash tafakkurini o‘rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlashning rolini tahlil qilishda, talabalar orasida dasturlash va muammo hal qilish

ko‘nikmalarining oshishi kuzatildi. Mantiqiy fikrlash darslari talabalarining analitik qobiliyatlarini, algoritmik fikrlash esa qadam-baqadam yechim topish va kodlash ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam bergen. Amaliy loyihalar va muammo hal qilish mashqlari orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini oshirganlar.

Hisoblash tafakkuri kurslarini taklif qilish orqali oliy ta’lim muassasalari talabalarini yangi texnologiyalar va dasturiy yechimlar yaratishga tayyorlaydi. Bu kurslar talabalarining muammolarni hal qilish, loyihalarni boshqarish va jamoada ishslash kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvaldagи ma'lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida dasturlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgan. Bu mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarining samaradorligini ko‘rsatadi. Amaliy loyihalar va muammo hal qilish mashqlarida faol ishtirok etish talabalarning dasturlash bilimlarini mustahkamlaydi va ularni haqiqiy dunyodagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Hisoblash tafakkuri kurslarini taklif qiluvchi oliy ta’lim muassasalari talabalarining muammo hal qilish va loyihalarni boshqarish kabi muhim ko‘nikmalari rivojlanmoqda. Bu hisoblash tafakkuri o‘qitishning oliy ta’limdagи muhimligini tasdiqlaydi. Mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish, talabalarni texnologik jihatdan yuqori darajada bilimli va raqobatbardosh bo‘lishiga tayyorlaydi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatları uchun muhim asos yaratadi.



**2-rasm. Ta’lim sohasida mantiqiy va algoritmik fikrlashning ta’siri.**

Yuqoridagi diagramma ta’lim sohasida mantiqiy va algoritmik fikrlashning ta’sirini aks ettiradi. Har bir ustun, dasturlash ko‘nikmalarining oshishi, amaliy tajriba, hisoblash tafakkurining ahamiyati va ta’limning kelajagi kabi turli kategoriyalardagi yaxshilanish foizini ko‘rsatadi. Bu diagramma orqali, mantiqiy va algoritmik fikrlashni o‘rgatishning ta’limdagi muhim o‘rni va uning talabalar ko‘nikmalarining rivojlanishidagi ta’siri ko‘rinib turibdi.

Natijada, mantiqiy va algoritmik fikrlashni o‘rgatishning ta’limdagi o‘rni talabalarning dasturlash va muammo hal qilish qobiliyatlarini ancha oshirishi, shuningdek, ularni tezkor texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchan qilishi aniqlandi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy va algoritmik fikrlashning oliy ta’lim muassasasi talabalariga hisoblash tafakkurini o‘rgatishdagi roli juda muhimdir. Talabalar mantiqiy fikrlash orqali muammolarni tahlil qilish va ularning asosiy mohiyatini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularni samarali yechimlar topishga yo‘naltiradi. Algoritmik fikrlash esa, talabalariga murakkab muammolarni qadam-baqadam hal qilish va samarali dasturlash yechimlarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini beradi.

Oliy ta’lim muassasalari mantiqiy va algoritmik fikrlashni o‘rgatish orqali talabalarini zamonaviy texnologik muhitda talab qilinadigan muhim ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Bu jarayon talabalarни innovatsion fikrlashga, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirishga va kelajakdagi professional faoliyatlarida duch keladigan murakkab muammolarni samarali hal qilishga tayyorlaydi.

Shuningdek, tadqiqot mantiqiy va algoritmik fikrlashni o‘rgatishning oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvining zarurati va ahamiyatini ta’kidlaydi. Oliy ta’lim muassasalari ushbu ko‘nikmalar ustida ishslash orqali talabalarni zamonaviy ish muhitining talablariga mos keladigan, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislariga aylantira oladilar.

Natijada, hisoblash tafakkurini o‘rgatishda mantiqiy va algoritmik fikrlash ko‘nikmalariga qaratilgan yondashuvlar talabalarning muammo hal qilish, tahlil qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ancha yaxshilashi, ularga zamonaviy kasbiy

---

hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur asosiy ko‘nikmalarni taqdim etishi aniqlandi.

### **Adabiyotlar**

1. Wing, J. M. (2006). Computational thinking. Communications of the ACM, 49(3), 33-35pp.
2. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational thinking in K-12: A review of the state of the field. Educational Researcher, 42(1), 38-43pp.
3. Barr, V., & Stephenson, C. (2011). Bringing computational thinking to K-12: What is Involved and What is the Impact? ACM Inroads, 2(1), 48-54pp.
4. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. Basic Books. 304p.
5. Saeli, M., Perrenet, J., Jochems, W. M., & Zwaneveld, B. (2011). Teaching programming in secondary school: A pedagogical content knowledge perspective. Computers & Education, 56(4), 1019-1029pp.
6. Beecher, K. (2017). Computational Thinking: A Beginner's Guide to Problem-Solving and Programming. No Starch Press. 214p
7. Krauss, J., & Proattsman, K. (2016). Computational Thinking and Coding for Every Student: The Teacher's Getting-Started Guide. International Society for Technology in Education. 108 p.
8. Moursund, D. (2012). Computational Thinking in the Classroom: How Computational Thinking Can Transform Teaching and Learning. International Society for Technology in Education. 180 p.
9. Husanova S. Theoretical foundations of teaching computational thinking to students of higher education institutions //International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. – 2023. 75-87pp
10. Karl Beecher. Computational thinking A beginner’s guide to problemsolving and programming. 2017 305p.

11. Husanova S. H. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirish (C++ dasturlash tili misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 1360-1366
12. Husanova S. H. Oliy ta’lim muassasalari talabalariga dasturlash tillarini o‘rgatishda hisoblash tafakkuri (computational thinking)dan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish //Electronic education. – 2023. – №. 4. – С. 126-135.
13. Husanova S. H. Improving educational performance by teaching computational thinking to higher education students //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 279-281.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### SUN'IY INTELLEKT TIZIMLI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI YARATISHGA QO‘YILADIGAN TALABALAR VA VOSITALAR

*Begjanova Zibagul Tajedinovna*

*Muhammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nukus filiali,  
O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlarini yaratish muammolari va sun’iy intellekt tizimli dasturiy vositalarini imkoniyatlarga oid olib borilgan olimlarning tadqiqotlari o‘rganilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qo‘yiladigan talablar va vositalarning mukoniyatlari keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli texnologiya, sun’iy intellekt, pedagogik dasturiy vosita, platforma, Neyron tarmoq.

### ТРЕБОВАНИЯ И ИНСТРУМЕНТЫ ДЛЯ СОЗДАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ С СИСТЕМАМИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

*Бегжанова Зибагуль Таджединовна*

*Нукусский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени  
мухаммада аль-хоразмий, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы создания систем искусственного интеллекта и исследования, проводимые учеными относительно возможностей программных систем искусственного интеллекта. Также представлены требования к созданию педагогических программных средства с системами искусственного интеллекта и возможности этих средств.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, искусственный интеллект, педагогическое программное обеспечение, платформа, нейронная сеть.

### REQUIREMENTS AND TOOLS FOR CREATING PEDAGOGICAL SOFTWARE WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS

*Begzhanova Zibagul*

*Nukus branch of the Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-khorezm, Uzbekistan*

**Abstract:** The article examines the problems of creating artificial intelligence systems and research conducted by scientists regarding the capabilities of artificial intelligence software systems. It also presents the requirements for creating pedagogical software tools with artificial intelligence systems and the capabilities of these tools.

**Keywords:** digital technologies, artificial intelligence, educational software, platform, neural network.

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiq etish ko‘لامи kengayishi va kompyuter qurilmalarining zamonaviylashuvi, unga mos dasturiy vositalarni takomillashuvi tufayli talabalarning sun’iy intellekt tizimli

---

pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga o‘rgatishni shakl, usul va vositalarini takomillashtirish zaraurati paydo bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt tizimlarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili axborot texnologiyalari sohasida turli xil jarayonlarni modellashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan alohida yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi, bu g‘oya avtomatlashtirish va optimal yechimlarni izlashda muhim sanaladi [1, 2, 3, 4, 5]. Shu bois ishlab chiquvchilar oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan talabalarni ishlab chiqish va zamonaviy dasturiy vositalarini aniqlash zarurati tug‘iladi [6, 7, 8, 9, 10, 11, 12]. Buning uchun dastlab sohaga oid olimlarning ishlarini tahlil etishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sun’iy intellekt tizimlarini modellashtirish va rivojlantirish uchun dasturiy vositalardan foydalanish usullari, ta’lim jarayonida sun’iy intellektli o‘quv vositalaridan foydalanish muammolari, Neyron tarmoqlaridan foydalanish mexanizmlari, sun’iy intellektli dasturiy vositalarning imkoniyatlariga oid tadqiqotlar D.A.Alferyev [1], M.T.Djons [2], D.A.Manoshin [3], S.Nikolenko [4], A.Kadurin [4], YE.Arhangelskaya [4], S. D.Shibaykin [5], YE. G.Alekseyev [5], U.Endriss [6], S. A.Bevzenko [7, 8], V.A.Golovko [9], Ye.P.Lukyanova [10], I.A.Parshutin [11], D.V.Deulin [11], O.N.Filatova [12], M.N.Bulayeva [12], A.V.Gushin [12], M.A.Kashina [13], M.Ye.Bronshteyn [13] kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Jumladan, D.A.Alferyev sun’iy intellekt tizimlarini modellashtirish va rivojlantirish masalalarini o‘rgangan [1]. M.T.Djons [2], A.Manoshin [3], S.D.Shibaykin [5], YE. G.Alekseyev [5], S. A.Bevzenko [7, 8]lar sun’iy intellektli dasturlar yordamida ilovalar ishlab chiqishga o‘rgatish usullariga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. S.Nikolenko [4], A.Kadurin [4], Ye.Arhangelskaya [4], V.A.Golovko [9], O.N.Filatova [12], M.N.Bulayeva [12], A.V.Gushin [12]lar Neyron tarmoqlaridan foydalanish masalalarini ko‘rib chiqqan. U.Endriss [6], M.YE.Bronshteyn [13]lar sun’iy intellektli dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o‘rgangan. YE.P.Lukyanova [10], I.A.Parshutin [11], D.V.Deulin [11]lar ta’lim jarayonida sun’iy intellektli o‘quv vositalaridan foydalanish doir tadqiqot ishlarini

olib borgan. Ushbu olimlarning ishlarini tahliliga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari talabalariga sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga o‘rgatish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi degan, xulosaga kelindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sun’iy intellekt (SI) – bu odatda insonlar bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlarni talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan tizimlar va dasturlarni yaratish bilan shug‘ullanadigan kompyuter fanining sohasidir. Sun’iy intellekt ma’lumotlarni qayta ishlash, tajribadan o‘rganish, qarorlar qabul qilish va odatda inson aql-zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini yaratishga qaratilgan [13].

Keltirilgan ta’rifga asosan, bugungi kunda pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalarning sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishga o‘rgatish muhim sanaladi. Shuning uchun ushbu maqolada talabalarning sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishga o‘rgatish g‘oyasi ilgari surilgan. Shu bois talabalarning sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishda quyidagi talablarga amal qilish tavsiya etiladi [13]:

1. Maqsad va vazifalarni aniqlash: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda birinchi qadam hal qilinishi kerak bo‘lgan maqsad va vazifalarni aniqlashdir;

2. Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratish katta hajmdagi ma’lumotlarni talab qiladi. Bu ma’lumotlar bazalari, sensorlar, Internet yoki foydalanuvchilarning o‘zaro ta’siri kabi turli manbalardan to‘planishi mumkin. Ma’lumotlar yig‘ilgandan so‘ng, foydalanish mumkin bo‘lgan formatga ishlov berish uchun uni tayyorlash lozim;

3. Algoritm va modelni tanlash: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratish uchun keyingi qadam ma’lumotlarni qayta ishlash va muammoni hal qilishda ishlatiladigan mashinani o‘rganish algoritmi yoki modelini tanlashni taqozo etadi. Bunda aniq vazifaga qarab neyron tarmoq, qaror daraxti, qo‘llab-quvvatlash vektor mashinasi yoki boshqa algoritm bo‘lishi mumkin;

4. Modelni tayyorlash: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratish uchun model mavjud ma’lumotlarga mos bo‘lishi kerak. Modelni algoritmga ma’lumotlarni kiritish va optimal ishlashga erishish uchun parametrlarni sozlashni o‘z ichiga oladi. Modelda nazorat ostida o‘rganish, nazoratsiz o‘rganish yoki mustahkamlovchi o‘rganish kabi turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin;

5. Modelni baholash va sinab ko‘rish: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni Model o‘qitigandan so‘ng, uni yangi ma’lumotlar bo‘yicha baholash va sinovdan o‘tkazish kerak;

6. Amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash: sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratishning yakuniy bosqichi uni real muhitda amalga oshirish va ishda qo‘llab-quvvatlashdir. Bunga sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni mavjud tizimlarga integratsiya qilish, modelni serverlarga joylashtirish va uning ishonchli ishlashi hamda yangilanishini ta’minlashni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan qadamlarni amalga oshirishda sun’iy intellektli dasturiy vositalar yoki ta’lim platformalaridan foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun sun’iy intellekt tizimlarini yaratishning jahon amaliyotida mavjud bo‘lgan asosiy dasturiy vositalarni ko‘rib chiqish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashni taqoza etadi.

**Tahlil va natijalar.** Sun’iy intellektni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab dasturiy mahsulotlar va muhitlar mavjud. Bularga misol sifatida TensorFlow, PyTorch, scikit-learn, Keras, Anakonda, Google Colab, Chuqur Pavlov, OpenNN, Prolog kabilarni keltirish mumkin. Ushbu dasturiy vositalarning imkoniyatlari quyida keltirilgan:

1. TensorFlow – Google tomonidan ishlab chiqilgan ochiq kodli mashina o‘rganish kutubxonasi. TensorFlow turli darajadagi sun’iy intellektni modellarini, jumladan nevron tarmoqlarni yaratish uchun keng ko‘lamli vositalar va imkoniyatlarni taqdim etadi [13].

2. PyTorch – Neyron tarmoqlarni yaratish va o‘qitish uchun moslashuvchan vositalarni taqdim etadigan yana bir mashhur ochiq manbali mashina o‘rganish

---

kutubxonasi [14]. Shuningdek, PyTorch dasturiy vosita foydalanuvchilarga qulay interfeys va keng ko’lamda foydalanish imkoniga ega.

3. Scikit-learn – turli vazifalar, jumladan, tasniflash, regressiya, klasterlash va boshqalar uchun algoritmlar hamda vositalarning keng spektrini ta’minlovchi mashinani o’rganish kutubxonasi hisoblanadi [15]. Bu sun’iy intellekt sohasida olib boradiga tadqiqotchilar uchun muhim dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

4. Keras – TensorFlowda ishlaydigan yuqori darajadagi sun’iy intellektli qobiq dastur hisoblanadi [16]. Bunda Neyron tarmoqlarni yaratish va o‘qitish uchun oddiy hamda intuitiv interfeysni taqdim etadi.

5. Anakonda – ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellektni rivojlantirish uchun ko‘plab kutubxonalar va vositalarni o‘z ichiga oladi [17]. Dasturdan foydalanib turli darajali sun’iy intellektli o‘quv vositalarni ishlab chiqish mumkin.

6. Google Colab – sun’iy intellektni modellarini ishlab chiqish va o‘qitish uchun bulutli platforma hisoblanadi. Platforma GPU va TPU kabi kuchli hisoblash resurslariga bepul kirish imkonini beradi, bu sizga modelni o‘qitish jarayonini tezlashtirish uchun xizmat qiladi [13].

7. Chuqur Pavlov – chatbotlar va virtual yordamchilarni yaratish uchun TensorFlow, Keras va PyTorch kabi asosiy mashina o’rganish vositalarini birlashtirishga xizmat qiluvchi platforma [18].

8. OpenNN – Neyron tarmoqlar va mashinalarni o’rganishni amalga oshirish uchun ochiq manbali sun’iy intellektli dasturiy ta’minot kutubxonasi [19]. Asosiy ixtisosligi: bashoratlari va sanoat tahlili hisoblanadi.

9. Prolog – evolyutsion algoritmlarni qo’llab-quvvatlovchi tizimlarni ishlab chiqish uchun foydalaniladigan dasturlash tili hisoblanadi. Tilning o‘ziga xos xususiyati uning arxitekturasida matematik mantiq konstruksiyalardan foydalanishdir. Bu borada U.Endriss fikriga ko’ra, Prolog tilining afzalliklari dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda deterministik konstruktsiyalarning yo‘qligi va kod elementlarini qidirish uchun o‘rnatilgan mexanizmlarning yo‘qligi bilan samarali hisoblanadi [6].

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, ta’lim jarayonidagi yangi davlat siyosati raqamli texnologiyalar, shu jumladan sun’iy intellekt sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash muammosini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun talabalarning sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratish o‘rgatish muhim masalalardan biri sanaladi. Shu bois, talabalarni sun’iy intellekt tizimli pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga o‘rgatishda tadqiqot doirasida taklif etilayotgan dasturiy vositalardan va muhitlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Алферьев Д. А. Программные средства моделирования и разработки систем искусственного интеллекта // Крымский научный вестник. – № 1 (26), 2020. – С. 14-18.
2. Джонс М. Т. Программирование искусственного интеллекта в приложениях; пер. с англ. Осипов А. И. – М.: ДМК Пресс, 2011. – 312 с.
3. Маношин Д. А. Программирование искусственного интеллекта // Colloquiumjournal. – 2019. – № 12 (36). DOI: 10.24411/2520-6990-2019-10331
4. Николенко С., Кадурин А., Архангельская Е. Глубокое обучение. Погружение в мир нейронных сетей. – СПб.: Питер, 2018. – 480 с.
5. Шибайкин С. Д., Алексеев Е. Г. Языки программирования систем искусственного интеллекта // Московское научное обозрение. – 2012. – № 7-2 (23). – С. 20-22.
6. Endriss U. Lecture Notes. An Introduction to Prolog Programming. – Universitet van Amsterdam, 2016. – 74 p.
7. Бевзенко С. А. Исследование методов автоматического программирования с применением искусственного интеллекта / С. А. Бевзенко. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2024. – № 11 (510). – С. 13-15. – URL: <https://moluch.ru/archive/510/112069/> (дата обращения: 24.03.2025).
8. Бевзенко С. А. Применение искусственного интеллекта и машинного обучения в разработке программного обеспечения//Иновации и инвестиции. – 2023. – № 8. – С. 187-191.

- 
Mamlakatimizda talabalarning intellektual qobiliyatini aniqlash uchun, mantiqiy fikrlashli turli boshqotirma hamda mantiqiy yechim masalalarini o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash muammolariga oid izlanishlar mamlakatimizda va Б.М.Теплова, Н.С.Лейтес, В.Н.Дружинин, А.В.Петровский, А.Матюшкин каби olimlar tomonidan olib borilgan [1-3].

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual qobiliyatini shakllantirish, ularning bilimini mantiqiy yechish masalalari orqali rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, amaliyotda kreativlik intellektning rivojlantirishga oid А.М.Матюшкин, А.В.Петровский, М.Г.Ярошевский, В.Н. Дружинин, Д.Векслер, Г.Айзенк, Л.Термен, Р.Штенберг каби olimlar tomonidan tadqiq etilgan [4-9].

Tadqiqot natijalarimizga ko‘ra maqolada intellektual salohiyat darajasini aniqlash bo‘yicha test topshiriqlari xalqaro metodlar asosida amalga oshirishga va o‘zbek tilida mobil ilova yaratishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda IQ testlar ahamiyatining bir nechta jihatlari mavjud:

**Ta’lim sohasida talabalarni baholash.** IQ testlari talabalarning aqliy qobiliyatlarini baholashda yordam berishi mumkin. Bu ularning o‘qish qobiliyatlarini tushunish va ularga mos ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

**Maxsus ehtiyojlarni aniqlash:** IQ testlari o‘quvchilarda o‘qish qiyinchiliklarini yoki yuqori qobiliyatlarni aniqlashga yordam beradi. Bu ularga kerakli qo‘llab-quvvatlash va imkoniyatlarni taqdim etishga yordam beradi.

**Ilmiy tadqiqotlarda intellektual qobiliyatlarni o‘rganish:** IQ testlari intellektual qobiliyatlarning tabiatini va rivojlanishini o‘rganishda ishlatiladi.


**Genetika va atrof-muhit ta’sirini o‘rganish.** IQ testlari genetika va atrof-muhit omillari intellektual qobiliyatlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganishda ishlatiladi.

IQ test quyidagi turlari bo‘linadi:

- **Verbal IQ testlar:** ushbu testlar tilga va mantiqqa oid savollardan iborat bo‘lib, so‘z boyligi, o‘qish va tushunish qobiliyatini o‘lchaydi.
- **Matematik IQ testlar:** ushbu testlar matematik masalalar, mantiqiy muammolar va raqamlar bilan bog‘liq qobiliyatni ko‘rsatadi.
- **Vizual-qobiliyat testlar:** bu testlar ko‘rish, tasavvur va spatial tushunishni baholaydi. Nimani ko‘rayotgani yoki yaratayotganini tushunish qobiliyatini o‘lchaydi.
- **Logik IQ testlar:** ushbu testlar oddiy va murakkab mantiqiy masalalarni o‘z ichiga oladi va fikrlash mantiqiyligini baholaydi.
- **Yoshga mo‘ljallangan testlar:** maxsus yosh guruhlari uchun ishlab chiqilgan testlar. Masalan, bolalar uchun maxsus IQ testlari.

Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi mobil ilova yaratildi. Ushbu o‘zbek tilidagi mobil ilova Android Studio Kotlin dasturlash tilida yozilgan.

Mobil ilova logotipi (1-rasm) va ilovaning testlar oynasi (2-rasm):



1-rasm. Mobil ilova logotipi



2-rasm. Ilovaning testlar oynasi.

Intellektual salohiyat darajasini aniqlash bo‘yicha keltirilgan testlardagi topshiriqlar xalqaro metodlar asosida amalga oshiriladi:

- ✓ noverbal intellektni aniqlashda Ravenning progressiv matritsalari testi, intellektual koefitsiyentini aniqlashda Ayzing testlari, intellekt tuzilishini diagnostika qilishda Amtxauer testlari, IQ ni baholashda Veksler testlari, umumiy intellekt va uning tarkibiy komponentlарини diagnostika qilish.

- ✓ test topshiriqlari yoshlarning intellektual qobiliyati darajasini belgilashga qaratilgan.

- ✓ yoshlarning mantiqiy fikrlash, mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatish, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, turli tushunchalardagi bilim darajasi, faktlarni solishtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash qobiliyatini tekshiradi.

Quyida mobil ilovada kiritilgan testlardan namunalar va ularni yechish usullari keltirilgan.

**1-misol.** Qonuniyatga ko‘ra ? belgisi o‘rniga sonni toping?

$$5 \rightarrow 8 = 53, \quad 2 \rightarrow 5 = 29, \quad 9 \rightarrow 2 = 29, \quad 7 \rightarrow 4 = ?$$

**Yechish algoritmi:** Bunday misollarni yechishda  $(+; -; \times; \div)$  amallaridan foydalilanildi.


Masalan:  $5 \cdot 8 = 40$  ga teng, o‘ylab ko‘ramiz 53 ni hosil qilish uchun 13 ni qo‘sish kerak. 13 ni qanday hosil qilamiz?

Shunday qonuniyatni topish kerakki,  $5 \rightarrow 8$  dan 53 hosil bo‘lsin. Demak, qonuniyatimiz 5 bilan 8 ni ko‘paytiramiz va keyin yana 5 bilan 8 ni unga qo‘shamiz

$(5 \cdot 8) + (5 + 8) = 53$  Qonuniyat, berilgan son ko‘paytmasi bilan berilgan son yig`indisi orqali topiladi.

$(4 \cdot 5) + (4 + 5) = 29$ ,  $(9 \cdot 2) + (9 + 2) = 29$ ,  $(7 \cdot 4) + (7 + 4) = 39$  Javob: 39

**2-misol.** Qonuniyatga ko‘ra ? belgisi o‘rnidagi sonni toping (3-rasm)?



3-rasm.

**Yechish algoritmi:** Bunga ko‘ra 6 bilan 7 ni ko‘paytirgandagi natija 42, lekin bizga 2 ortiqcha. Keling hammasini ko‘paytirib ko‘ramiz.  $6 \cdot 7 \cdot 2 = 84$  hosil bo‘ldi. 84 ni 2 ga bo‘lgandagi natija 42.

$$1) 6 \cdot 7 \cdot 2 = 84$$

$$2) 84 \div 2 = 42$$

Qonuniyat, berilgan sonlarni ko‘paytirib, ko‘paytmani 2 ga bo‘lamiz.


$$1\text{-uchburchakda } 1) 6 \cdot 7 \cdot 2 = 84 \quad 2) 84 \div 2 = 42$$

$$2\text{-uchburchakda } 1) 8 \cdot 3 \cdot 5 = 120 \quad 2) 120 \div 2 = 60$$

$$3\text{-uchburchakda } 1) 8 \cdot 4 \cdot 7 = 224 \quad 2) 224 \div 2 = 112$$

Javob: 112

**3-misol.** Qonuniyatga ko‘ra ? belgi o‘rnidagi sonni toping (4-rasm)?



4-rasm.


- A)
- B)
- C)
- D)
- E)

**Yechish algoritmi:** 1-qora nuqtani qaraymiz. Bu masalada nima o‘zgarayotganiga diqqat qilishimiz kerak. Qora nuqta pastga tushdi, so‘ngra o‘ng

tarafga o‘tdi, keyin tepaga chiqdi va joyiga qaytdi, ya’ni chapga o‘tadi. 2-oqni qaraymiz. Chapda, o‘rtada, tepaga chiqdi, yana o‘rtaga tushdi, yana pastga tushadi.

Javob: A


**4-misol.** Quyidagiga ko‘ra K va L ni toping (5-rasm)?



5-rasm.



- A)    B)    C)    D)    E)

**Yechish algoritmi:** 5-rasmida keltirilgan kubikli masalada asosiy tomonda 5 turibdi. Burish natijasida tepaga chiqdi. 4 oldinda turibdi, ya’ni shaklni tepaga ko‘taryapmiz, endi K ni tepaga chiqaramiz. Demak, hosil bo‘lgan shaklda o‘ng taraf o‘zgarmaydi. O‘ng tarafda nima turgandi. L=3 ekan faqat bu tepaga qarab turibdi. L da ham shunaqa turishi kerak. Tepaga ko‘targanimizda yonga qarab qolishi kerak, lekin bu bizda 2-turgani uchun L faqat B javobda bor va E javobda bor.




★ L shunday turishi kerak.

Endi K ni topishimiz kerak. Diqqat qiladigan joyi 2-dagi 4 ni tepaga ko‘targanimizda 5 orqaga ketib qoladi. Shunda oldinda K turibdi. Demak, E javob bo‘limganligi uchun B ni olamiz.



Javob: B

**5-misol.** O‘rniga ko‘ra ? belgisi o‘rnidagi sonni toping (6-rasm)?




- A) 14:14      B) 14:02      C) 15:02      D) 15:14      E) 15:12

**Yechish algoritmi:** E’tibor bersangiz qancha vaqtga oshyapt? Nechchiga?

36 minutga oshyapti, keyingisi ham 36 minutga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, 14:38 yana 36 min ga oshsa 15:14 bo‘ladi. Javob: D

**6-misol.** Ushbu shakl jami nechta kichik kubikchalardan tuzilgan (7-rasm)?



7-rasm.

**Yechish algoritmi:** Pastdagi kubiklar to‘la, ya’ni pastdagи 2 qavat bu yog‘ida 4 ta bu yog‘ida 4 ta  $16 \cdot 2 = 32$  ta, ya’ni tepada 5 ta  $32 + 5 = 37$ .

Javob: 37 ta.

**7-misol.** Quyidagi qo‘shish va ko‘paytirish jadvalidan foydalanib ? ni toping?

+	a	b	c
a			28
b	21		25

×	a	b	c
a	S	V	M
b	V	F	S

$$(F + M) - (V + S) = ?$$

$$+ \begin{cases} a + c = 28 \\ a + b = 21 \rightarrow 2a + 2b + 2c = 74 \rightarrow \begin{cases} a + b + c = 37 \\ a + c = 28 \end{cases} \\ b + c = 25 \end{cases}$$

$a + b + c = 37$   $a + c$  o‘rniga 28 ni qo‘yib b ni topamiz.

$28 + b = 37$   $b = 37 - 28$   $b = 9$  shunday qilib  $c = 16$ ,  $a = 12$  topdik.

$$F = b \cdot b = 9 \cdot 9 = 81$$

$$M = 12 \cdot 16 = 192$$

$$V = a \cdot b = 12 \cdot 9 = 108$$


$$S = a \cdot a = 12 \cdot 12 = 144$$

? ni topishimiz uchun F, M, V, S larni topganimizni o‘rniga qo‘yamiz.

$$(81 + 192) - (108 + 144) = 273 - 252 = 21$$

Javob: 21

**8-misol.** ? ni toping (8-rasm).




**8-rasm.**

**Yechish algoritmi:** E’tibor qiladigan bo‘lsak, 1 ta kvadratimiz 5 ta yulduzchaga teng. Keling, tepadagi qatorga 2 tarafiga 2 tadan yulduzcha qo‘shamiz.  $\text{****}=\text{oo}**$  bu ko‘rinishga keladi. Demak, chap taraf 5 ta yulduzcha 2 ta aylana va 2 ta yulduzchaga teng. Bundan 5 ta yulduzcha teng kvadrat bo‘lsa ( $\text{****}=\blacksquare$ ).  $\text{oo}**=\blacksquare$  bo‘ladi. Javob: **C** ■



**9-misol.** Qonuniyatga ko‘ra ? o‘rnidagi sonni toping.

6:14



10:?

8:16



- A)16 B)24 C)36 D)20

**Yechish algoritmi:** (1)-shaklda 6 ta kvadrat borligini bilyapmiz. 14-? Chiziqlari desak, sanab ko‘ramiz 19 ta. Perimetritni hisoblab ko‘ramiz. Ya’ni tomon uzunliklari yig‘indisi 14.

(2)-shaklni sanab ko‘ramiz 8 ta kvadrat, perimetri 16 bo‘ldi. Demak qonuniyat berigan shaklda nechta kvadrat bo‘lsa soatni, shaklning perimetri minutni aniqlaydi.

(3) shaklda 10 ta kvadrat, perimetri 20 bo‘ldi.

Javob: D) 20

**Tahlil va natijalar.** Mobil ilova IQ test shkalasida to‘g‘ri topilgan javoblar natijasiga ko‘ra, foydalanuvchining *IQ* ko‘rsatkichini 5 ta intellektual qobiliyat darajasi bo‘yicha aniqlaydi[9-11]:

1-daraja (95-100% to‘g‘ri javob) – o‘ta yuqori darajali *IQ*;

2-daraja (75-94% to‘g‘ri javob) – o‘rtacha yuqori darajali *IQ*;

3-daraja (25-74% to‘g‘ri javob) – o‘rtacha darajali *IQ*;

4-daraja (5-24% to‘g‘ri javob) – o‘rtacha-past darajali *IQ*;

5-daraja (0-4% to‘g‘ri javob) – past (nuqsonli) yuqori darajali *IQ*;

O‘quvchilarning intellektual qobiliyat (*IQ*)ni aniqlashda foydalananiladigan test topshiriqlari variantlarida bosqichma-bosqich takomillashib, murakkablashib boraveradi va talabaning fikrlash qobiliyati tezligini oshirishga xizmat qiladi

Mobil ilovadan innovatsion dasturiy-didaktik majmualar konsepsiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan mexanizmi Navoiy davlat universiteti Aniq fanlar fakulteti va Navoiy shahar “IQTIDOR KIDS” OK o‘quv jarayonida foydalanilgan.

**Xulosa va takliflar.** Mobil ilovadan foydalanish talabalarning intellektual qobiliyat (IQ) darajasini algoritmik shakllantiradi, xotirani mustahkamlaydi, IQ darajani baholashda va uning tarkibiy komponentlarini diagnostika qiladi. Shuningdek, 7 yoshdan 70 yoshgacha foydalanuvchilar, umumiy o‘rta ta’lim məktəb o‘quvchilari, oliy ta’lim muassasalarida talabalari va boshqalar foydalanishlari mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Психология: Учебник для студентов вузов. - М.: Издательство «Академия», 2002. - 512 с.
2. Теплов Б.М. Способности и способности. // Психология личностных различий. М.: Московское издательство. 1982, - 136 с.
3. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. 3-е изд. - СПб.: Питер, 2007.
4. Айзенк Г. Новые IQ тесты. - М.: Изд-во Эксмо, 2003.-106с.
5. Айзенк Г. Классические IQ тесты. Перевод с англ. К. Савельева. Москва: Изд-во Эксмо, 2011.
6. Симон Мартин. IQ: развитие интеллекта и подготовка к тестам: Пер. с нем. -СПб.: БХВ-Петербург, 2010.
7. Verguts, T. & De Boeck, P. (2002). On the correlation between working memory capacity and performance on intelligence tests. Learning and Individual Differences. 13, 37–55.
8. Colom, R., Rebollo, I., Palacios, A., Juan-Espinosa, M., & Kyllonen, P. (2004). Working memory is (almost) perfectly predicted by g. Intelligence, 32, 277–296;

9. Xamroyev U.N. Talabalarning algoritmlashga oid intellektual qobiliyat darajasini aniqlash usuli. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, 1/5, ISSN 2181-7324. B.156-159.
10. Urunov U. Mantiqiy va mulohaza. [“Qiziqarli psixologiya” turkumidan 1-kitob]. T.: “Sharq-Ziyo Zakovat”, 2019. -32 b.
11. Urunov U. Mantiq va mushohada. [“Qiziqarli psixologiya” turkumidan 2-kitob]. T.: “Sharq-Ziyo Zakovat”, 2019. -32 b.
12. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102992/11.mavzu.Intellekt.htm>
13. [www.treningmozga.com](http://www.treningmozga.com)

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Saidova Dilfuza Ergashovna

Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqola obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish (OYM) texnologiyalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanishning pedagogik mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Mazkur yondashuvning nazariy asoslari, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda uning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada OYM texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning asosiy metodlari va vositalari, shuningdek, ushbu texnologiyalar orqali innovatsion ta’lim muhitini yaratishning afzallikkari yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish, pedagogik mexanizmlar, ta’lim texnologiyalari, innovatsion ta’lim, amaliy ko‘nikmalar.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Saidova Dilfuza Ergashovna

Karshinский государственный университет, Узбекистан

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению педагогических механизмов эффективного использования технологий объектно-ориентированного моделирования (OOM) в образовательном процессе. Проанализированы теоретические основы данного подхода, его роль и значение в развитии практических навыков студентов. В статье освещены основные методы и средства интеграции технологий ООМ в учебный процесс, а также преимущества создания инновационной образовательной среды с их использованием.

**Ключевые слова:** объектно-ориентированное моделирование, педагогические механизмы, образовательные технологии, инновационное обучение, практические навыки.

### PEDAGOGICAL MECHANISMS OF USING OBJECT-ORIENTED MODELING TECHNOLOGIES

Saidova Dilfuza

Karshi State University, Uzbekistan

**Abstract:** This article is dedicated to studying the pedagogical mechanisms of effectively using object-oriented modeling (OOM) technologies in the educational process. The theoretical foundations of this approach, its role, and significance in developing students’ practical skills are analyzed. The article highlights the key methods and tools for integrating OOM technologies into the learning process, as well as the advantages of creating an innovative educational environment through these technologies.

**Keywords:** object-oriented modeling, pedagogical mechanisms, educational technologies, innovative education, practical skills.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlashga qaratilgan. Obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish (OYM)

texnologiyalari o‘quv jarayonida aniq modellar va simulyatsiyalar orqali bilimlarni o‘zlashtirishni yengillashtiradi va professor-o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada OYM texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari va ularni samarali qo‘llash mexanizmlari muhokama qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda obyektga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish ta’lim jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, Arab universiteti texnika fanlari doktori Xolid Tahatning “Object-Oriented Design of Learning Apps” nomli tadqiqotda ta’lim ilovalarini loyihalashda obyektga yo‘naltirilgan yondashuvning afzallikkari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv ta’lim ilovalarini ishlab chiqishda modullik va qayta foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. B. Fitzgerald, K. Ned va boshqa tadqiqotchilar o‘z ishlari orqali obyektga yo‘naltirilgan modellasshtirish texnologiyalarining o‘quvchilarni masofaviy ta’lim jarayonlariga tayyorlashdagi o‘rnini chuqur tahlil qilishgan. Ular virtual muhitda ishlashning pedagogik tamoyillarini va bu texnologiyalarning o‘quv jarayonlarini soddallashtirishga ta’sirini ko‘rsatib bergenlar [1].

M. Sukhova o‘z ilmiy tadqiqotlarida obyektga yo‘naltirilgan modellasshtirish tushunchasining o‘quv dasturlaridagi holatini har tomonlama yoritib bergen. U o‘z izlanishlarida jadvallar, grafiklar va diagrammalardan foydalaniib, mavzuni amaliy jihatdan o‘quvchilarga aniqroq tushuntirishning ahamiyatini ta’kidlagan.[2]. C. Kas’yanovning tadqiqotlari maktab va universitet talabalari uchun obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘rgatish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini yaratishning samaradorligini isbotlab bergen. Uning tadqiqotlarida Python va Java tillarida o‘rgatish metodlari batafsil tavsiflangan [3]. J. Grudin va T. Gavrilova asarlarida virtual va gibrid muhitlarda obyektga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or uslublar keltirilgan. Ular talabalarning mustaqil o‘qish qobiliyatlarini oshirish uchun loyihalash elementlarini qo‘shishni taklif etganlar [4]. Snowdon va boshqalar obyektga yo‘naltirilgan loyihalashning talabalarni kreativ

fikrlashga jalb qilishdagi afzalliklarini ko‘rsatib bergan. Ular texnologiyalar yordamida o‘quv muhitlarini innovatsion yondashuvlar orqali boyitish zarurligini ta’kidlaganlar [5].

OYM texnologiyalari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar talabalar tomonidan nazariy bilimlarni real hayot sharoitida sinab ko‘rish, modellashtirish orqali o‘z fikrlarini shakllantirish va mustahkamlash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida OYM dan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

**nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish** – talabalar o‘rganayotgan mavzularini aniq modellar orqali chuqur anglaydilar;

**mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish** – modellashtirish orqali talabalarga muammolarni hal qilish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni topish imkoniyati beriladi;

**o‘quv jarayonini individuallashtirish** – har bir talabaning ehtiyojlariga mos tarzda ta’limni tashkil qilish imkonini yaratadi;

**jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish** – talabalarning guruh bo‘lib ishlashi hamda loyihalar ustida hamkorlikda faoliyat yuritishi rag‘batlantiriladi [6].

OYM texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

**Interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish** – o‘quv mashg‘ulotlarida simulyatsiyalar va modellashtirish texnologiyalarini integratsiya qilish;

Interfaol o‘qitish – ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarning o‘zaro va o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Ushbu usul, ayniqsa, texnologik taraqqiyotning bugungi bosqichida ta’lim jarayonida simulyatsiyalar va modellashtirish texnologiyalarini integratsiya qilish bilan uyg‘unlashgan holda yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi.

Interfaol o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarning darsdagi ishtirokini faollashtirish, ularni ijodiy fikrlashga, masalalarni hal qilishga, yangi bilimlarni izlab topishga va qo‘llashga undashdir. Simulyatsiyalar va modellashtirish

texnologiyalarini interfaol metodlarga integratsiya qilish esa o‘quv jarayonini quyidagicha rivojlantiradi:

real vaziyatlarni sun’iy ravishda yaratish orqali o‘quvchilarni amaliy muammolarni hal qilishga tayyorlash.

tabiiy jarayonlar yoki texnik tizimlarni modellashtirish orqali abstrakt tushunchalarni tushunishni osonlashtirish.

o‘quvchilarni texnologiyalardan foydalanishga qiziqtirish va ularni raqamli ko‘nikmalarga ega qilish.

Simulyatsiya – bu haqiqiy hayotdagi muammolar yoki vaziyatlarni o‘xshatib ko‘rsatadigan virtual vositalar yordamida amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu texnologiya o‘quvchilarga:

- vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda mustaqillikni oshirish.
- xatolar qilmasdan tajriba o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.
- muhim ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda rivojlantirishga yordam beradi.

Modellashtirish – bu real hayotdagi tizimlar, jarayonlar yoki hodisalarini matematik, vizual yoki kompyuter modeli ko‘rinishida ifodalash texnikasi. Bu texnologiya o‘quvchilarga:

- abstrakt tushunchalarni aniq va ko‘rgazmali shaklda tushuntirish.
- murakkab jarayonlarni qismlarga bo‘lib, ularni alohida o‘rganish imkonini beradi.

Interfaol o‘qitish jarayonida simulyatsiyalar va modellashtirish texnologiyalarini qo‘llash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

### ***Amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish***

**Virtual laboratoriylar:** Kimyo, fizika va biologiya fanlarida tajribalarni xavfsiz va ko‘rgazmali tarzda o‘tkazish.

**Texnik mashqlar:** Muhandislik fanlarida murakkab tizimlarni loyihalash va sinovdan o‘tkazish.

**Iqtisodiy simulyatsiyalar:** Talab va taklifni tahlil qilishda.

### ***O‘yinli ta’lim usullarini joriy qilish***

Simulyatsiya va modellashtirish texnologiyalari orqali o‘quv jarayonini o‘yin shakliga aylantirish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin:

**Gamifikatsiya** (o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish): Masalan, dasturlashni o‘rgatishda algoritmlar yaratish uchun o‘yin tarzidagi vazifalar.

**O‘yinli simulyatsiyalar:** Tadbirkorlik sohasida korxonani boshqarishni simulyatsiya qiluvchi dasturlar.

### ***Vaziyatli topshiriqlarni yaratish***

O‘quvchilarga real vaziyatlarni modellashtirish va hal qilish topshiriqlari berish:

- Iqtisod fanida – moliyaviy muammolarni modellashtirish.
- Tibbiyotda – kasalliklarni aniqlash uchun klinik diagnostika modellarini qo‘llash.

Interfaol o‘qitish usullarini simulyatsiyalar va modellashtirish texnologiyalari bilan birlashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantiradi va real hayotga tayyorlaydi. Shu sababli ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish strategik ahamiyatga ega.

***Talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirish*** – individual loyihalar va tajribalar asosida modellashtirish topshiriqlarini berish;

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar bilim olishning faol ishtirokchilariga aylanishi uchun mustaqil ishslash imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish (OYM) texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarga individual loyihalar va tajribalar asosida modellashtirish topshiriqlarini berish – bu maqsadga erishishning samarali usullaridan biridir.

Talabalar o‘zlari mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo‘lgan individual loyihalar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi [7].

*Loyihalarning quyidagi xususiyatlari mavjud:*

- **Talabaning qiziqishiga mos bo‘lish:** talabalar o‘zlarini tanlagan mavzu bo‘yicha ishlashlari, masalan, muhandislik, IT, yoki biologiyaga oid mavzularda modellar yaratishlari mumkin.
- **Hayotiy muammolarni yechishga yo‘naltirilganlik:** real hayotda duch kelinadigan masalalar asosida modellashtirish topshiriqlari berilishi talabalar uchun yanada qiziqarli bo‘ladi. Masalan, iqlim o‘zgarishining shahar infratuzilmasiga ta’sirini modellashtirish.
- **Innovatsion yondashuv:** talabalar yangicha yondashuvlar va texnologiyalar yordamida o‘z loyihalarini amalga oshirishlari mumkin.
- **Dasturiy loyihalar:** talabalar Python yoki MATLAB yordamida issiqlik almashinish jarayonini modellashtirish uchun kod yozishlari mumkin.
- **3D modellashtirish:** Blender yoki AutoCAD yordamida muhandislik qismlarini chizish va tahlil qilish [8].

Amaliy tajribalar talabalarning mavzuga yanada chuqur kirib borishini ta’minlaydi. Modellashtirish texnologiyalari orqali virtual tajribalar o‘tkazish nafaqat laboratoriya xarajatlarini kamaytiradi, balki xavfsizlikni ham ta’minlaydi.

*Tajribalar uchun moslashuvchan platformalar:*

- **PhET Interactive Simulations:** Fizika, kimyo, va boshqa fanlarda virtual tajribalarni amalga oshirish.
- **Labster:** Biologik va kimyoviy tajribalarni virtual muhitda sinab ko‘rish.
- **Simulink (MATLAB):** Dinamik tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish.

Individual loyihalar va tajribalar asosida modellashtirish topshiriqlarini berish talabalarning o‘z bilimlarini chuqur o‘zlashtirishi va mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni o‘rganishni samaraliroq qiladi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, innovatsion fikrlashga ega mutaxassis sifatida shakllantiradi. Shu bois, o‘qituvchilar uchun individual va tajriba asosidagi topshiriqlarni to‘g‘ri rejalashtirish va ularga texnologik vositalarni integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

**Zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish** – Zamonaviy dasturiy vositalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish talabalarning kasbiy malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. MATLAB, Simulink, AutoCAD, UML kabi vositalar yordamida ta’limni nafaqat interfaol, balki amaliy jihatdan boyitish mumkin. Quyida ushbu vositalarning o‘quv jarayonida qo‘llanishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

MATLAB – bu texnik hisoblash va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan keng qamrovli dasturiy platforma. U asosan muhandislik va texnika fanlari o‘qitilishida qo‘llaniladi. Simulink – MATLAB platformasining tarkibiy qismi bo‘lib, tizimlar va jarayonlarning dinamik modellarini yaratish uchun ishlatiladi. Bu vosita asosan muhandislik yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Avtomobil tezlanishining turli sharoitlarda qanday o‘zgarishini Simulink orqali modellashtirish.

AutoCAD – bu dizayn va chizma yaratish uchun mo‘ljallangan mashhur dasturiy vosita bo‘lib, u muhandislik, qurilish, va me’morchilik sohalarida keng qo‘llaniladi. Talabalar biror ko‘prik loyihasini AutoCAD yordamida loyihalashtirish va uning barqarorligini tahlil qilishlari mumkin. UML (Unified Modeling Language) – obyektga yo‘naltirilgan dasturlash va tizim dizaynida ishlatiladigan grafik vosita bo‘lib, dasturiy loyihalarning turli jihatlarini vizualizatsiya qilish uchun ishlatiladi.

MATLAB, Simulink, AutoCAD va UML kabi zamonaviy dasturiy vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning nafaqat texnik, balki analistik va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy tajribalar asosida real loyihalar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois, ushbu vositalarning ta’limda qo‘llanilishi talabalar kelajagi uchun muhim investitsiya hisoblanadi [9].

**Baholash tizimini optimallashtirish** – talabalarning modellashtirish asosida yechimlar ishlab chiqishini baholash mezonlarini ishlab chiqish. Talabalarning modellashtirish texnologiyalaridan foydalangan holda yechimlar ishlab chiqishini baholash ta’lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. To‘g‘ri ishlab chiqilgan

baholash mezonlari nafaqat talabalarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning amaliy va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi [10].

Baholash tizimini yanada samarali qilish uchun quyidagi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi: Rubrikalar asosida baholash-talabaning har bir bosqichdagi faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash uchun rubrikalar ishlataladi. Masalan:

- ✓ Modelning aniqligi va mukammalligi.
- ✓ Natijalarining ko‘rsatkichlari va ahamiyati.
- ✓ Talabalar yondashuvining ijodiyligi.

**Jamoaviy ishni baholash**-agar loyiha jamoaviy tarzda bajarilsa, har bir ishtirokchining loyihadagi hissasi alohida baholanadi. Shuningdek, guruhdagi liderlik va bir-biriga yordam berish qobiliyatları ham hisobga olinadi.

**O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholashi**-talabalarga o‘z faoliyatlarini mustaqil baholash imkonini berish orqali ularda o‘z ishiga tanqidiy yondashish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

**O‘qituvchi va tengdoshlar bahosi**-talabaning ishini nafaqat o‘qituvchi, balki tengdoshlar ham baholashi natijada obyektivlikni oshiradi [11].

**Tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish** – talabalar va tadqiqotchilarni obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish (OYM) texnologiyalari yordamida ilmiy-tadqiqot faoliyatlariga jalb qilish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv orqali ilmiy izlanishlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalarni amaliy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishga undash va ularda innovatsion fikrlashni rivojlantirish mumkin.

OYM texnologiyalari qo‘llanishining samaradorligi grafigini yaratishda quyidagi savollar asosidagi ma’lumotlar yig‘ilgan:

*Nazariy bilim darajasi*

talabalar OYM texnologiyalaridan foydalanishdan oldin va keyin nazariy bilimlarini qanday baholaydilar?

talabalar nazariy tushunchalarni real loyihalarda qo‘llay olish qobiliyatiga qanday ta’sir qiladi?

---

OYM texnologiyalari an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan nazariy bilimlarni mustahkamlashda qanchalik samarali?

*Amaliy loyihalarni bajarish*

talabalar OYM texnologiyalaridan foydalanishdan oldin va keyin amaliy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish darajasi qanday o'zgaradi?

talabalar real loyihalar ustida ishlash jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelishadi va OYM texnologiyalari bu muammolarni hal qilishga qanday yordam beradi?

talabalarning mustaqil dasturlash va modellashtirish ko'nikmalariga OYM texnologiyalari qanday ta'sir ko'rsatadi?

*Innovatsion fikrlash rivoji*


talabalarning OYM texnologiyalaridan foydalanishdan oldin va keyin innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati qanday o'zgaradi?

talabalar yangi modellar va tizimlar yaratishda qanchalik ijodiy fikrlay oladi?

talabalar murakkab muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish jarayonida OYM texnologiyalaridan qanchalik samarali foydalanadi?

Bu grafik OYM texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanishi samaradorligini uchta asosiy metod bo'yicha taqdim etadi:

- *Nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog'lash:* Samaradorlik darajasi 85% bo'lib, o'quvchilarning nazariy bilimlarni aniq vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.
- *Yangi o'quv usullari:* Samaradorlik 90%, ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi.
- *Mustaqil o'rghanishni qo'llab-quvvatlash:* Samaradorlik 80%, o'quvchilarning mustaqil bilim olishiga ko'maklashadi.



Ushbu grafik OYM texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda talab qilinadigan resurslarning taqsimotini ko‘rsatadi:

O‘qituvchilarni tayyorlash: 40% resurs ajratiladi, chunki o‘qituvchilar OYM texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun trening va malaka oshirishni talab qiladi. Platformalarni integratsiya qilish: 35% resurslar ta’lim texnologiyalari uchun zarur bo‘lgan texnologik platformalarni ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltiriladi. O‘quv materiallarini ishlab chiqish: 25% resurslar ta’lim materiallarini yaratishga sarflanadi. Bu resurslar interaktiv modellar va simulyatsiyalarni ishlab chiqish uchun ishlataladi.

**Tahlil va natijalar.** OYM texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanishi bir necha asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

1. **Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash:** Modellashtirish orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini aniq vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. **Yangi o‘quv usullari:** Interaktiv modellar va simulyatsiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, dasturlash yoki muhandislik sohalarida obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari (masalan, Java, Python) yordamida loyihalar yaratish o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi.

3. **Mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash:** OYM texnologiyalari talabalarga mustaqil ravishda bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Simulyatsiyalar va modellarni qo‘llash orqali ular real dunyo muammolarini yechishni mashq qiladi.

Shuningdek, OYM texnologiyalarini professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qulay platformalar bilan ta’minlash masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilarning malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi va ularga texnologik vositalardan foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazilishi talab etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish texnologiyalari ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini mustahkamlab, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur texnologiyalardan samarali foydalanish uchun metodologik qo‘llanmalarning ishlab chiqilishi va ta’lim jarayonida foydalanishning keng ko‘lamli qo‘llab-quvvatlanishi talab qilinadi.

### **Adabiyotlar**

1. Fitzgerald, B., Ned, K., Snowdon, D., Grudin, J., & Gavrilova, T. (2020). Virtual learning environments and object-oriented modeling technologies in education. *Journal of Educational Technologies*, 45(3), P-123-135.
2. Sukhova, M. (2018). Object-oriented modeling in educational processes: Concepts and applications. Moscow: Education Press. 202p.
3. Kas’yanov, S. (2019). Teaching programming in Python through online communities. *Computational Pedagogy*, 12(4), P-89-100.
4. Grudin, J., & Gavrilova, T. (2021). Collaborative coding in virtual environments: A methodological guide. *Journal of Innovative Education*, 36(2), P-75-90.
5. Snowdon, D., Fitzgerald, B., & Gavrilova, T. (2022). Creativity and critical thinking in object-oriented modeling: Case studies in higher education. *Global Perspectives on Education*, 28(1), P-44-62.
6. Fitzpatrick, B., & Ned, K. (2017). The role of object-oriented technologies in innovative education. *International Journal of Pedagogical Innovations*, 13(5), P-201-210.

7. Krüger, J. (2018). Educational Simulations and Modelling in the Digital Era. Springer. 1025-1032pp.
8. Uzbekova, D. (2022). “Ta’lim texnologiyalarida obyektga yo‘naltirilgan yondashuv.” *Ta’lim va Fan Jurnali*, 4(3), 45-52 b.
9. Larionov, V. (2020). “Innovatsion pedagogik texnologiyalar.” *Pedagogika Ilmiy Jurnali*, 6(2), 23-29 b.
10. Saidova D., Begmatova M. Modellashtiruvchi dasturlarda pedagogik dasturiy vositalarni yaratish //International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. – 2023. 202-207pp
11. Saidova D. E. Teaching Students To Program In A Virtual Collaborative Environment //Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 47-53.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### BULUTLI XIZMATLARDAN TA’LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING AMALIY XUSUSIYATLARI

Ismailov Janibek Aktamovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, O’zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bulutli xizmat ko’rsatish platformalarinig ta’lim jarayonida foydalanishning ahamiyati ko’rib chiqilgan. Bulutli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash va joriy etishdan asosiy maqsad bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatni kuchaytirish, ta’limni tashkil qilish va ta’lim jarayonini soddalashtirish orqali ta’lim sifati va samadorligini oshirishdir.

**Tayanch so’zlar:** ta’lim, texnologiya, axborot, kommunikatsiya, elektron, bulutli, Internet, platforma, masofaviy.

### ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБЛАЧНЫХ СЕРВИСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Ismailov Zhanibek Aktamovich

Джизакский государственный педагогический университет Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность использования облачных сервисных платформ в образовательном процессе. Основной целью использования и внедрения облачных технологий в образовательный процесс является повышение эффективности взаимодействия педагогов и обучающихся, повышение качества и эффективности образования за счет организации и упрощения образовательного процесса.

**Ключевые слова:** образование, технологии, информация, связь, электронный, облако, Интернет, платформа, удаленный.

### PRACTICAL FEATURES OF USING CLOUD SERVICES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Ismailov Zhanibek

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Abstract:** This article discusses the importance of using cloud service platforms in the educational process. The main purpose of using and implementing cloud technologies in the educational process is to increase the efficiency of interaction between teachers and students, improve the quality and efficiency of education by organizing and simplifying the educational process.

**Keywords:** education, technology, information, communication, electronic, cloud, Internet, platform, remote.

**Kirish.** Hozirgi kunda Respublikamizning Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini muqobil tashkil etish va mashg’ulotlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalarning usul va vositalaridan foydalangan holda loyihalashga e’tibor oshdi. Axborotlashgan jamiyatda yangi axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishning dolzarbliji shundan iboratki, ular muayyan pedagogik masalalarni

yechishda faqat instrumentariya (o‘qitish vositalari) vazifasini bajarib qolmasdan, o‘qitishda sifat jihatdan yangi imkoniyatlarini yaratadi, mustaqil o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini shakllantiradi, ta’limda o‘qitishning yangi shakllarini yaratish imkoniyatlarini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining yetakchi yo‘nalishlarida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun jahon andozalari talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish hamda ta’lim muassasalarida o‘qitishning innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan [1].

Ta’limni axborotlashtirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- axborotlashgan jamiyatning jadal rivojlanishi;
- muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan axborot miqdorining oshishi;
- infosfera sharoitida insonning hayotga adaptatsiyalanish muammosini hal etishda ta’limning dolzarbligi;
- axborotlashtirish vositalaridan keng va samarali foydalanish imkoniyatlarining yaratilishi va ularning turli sohalarda keng tarqalishi;
- axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining funksional imkoniyatlari va texnik xarakteristikalarining tezkor ravishda o‘sib borishi [3].

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda bulut texnologiyasi yangi texnologiya hisoblanib bu texnologiya sekin-asta barcha sohalarga kirib kelmoqda. Respublikamizning ta’lim tizimida kompyuter axborot texnologiyalarni joriy etish masalalari asosida A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, M.M.Aripov, F.M.Zokirova, N.I.Taylakov, U.Y.Yuldashev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan va tadbiq etilgan. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

jarayonlarida innovatsion kompetentlikni takomillashtirish muammolari esa Sh.K.Mardonov, M.T.Mirsoliyeva, J.G.Yuldashev, T.T.Shoymardonovlar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. O‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va mediata’limdan foydalanishga oid tadqiqotlar: YE.V.Podvalnaya, R.YE.Torgashevlar kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Fanlarni o‘qitishda bulutli texnologiyalardan foydalanish metodikasi yuzasida ilmiy tadqiqotlar: Olga V. Bondarenko, Olena V.Pakhomova, Vladimir I.Zasel’skiy, C.A.Frazier, R.G.Boehm, T.Page, B.J.Christian kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Litvaning Kaunas texnologiya universiteti Microsoft Live@edu tomonidan taqdim etilgan, AQShning Xofstra universiteti Google Apps tomonidan taqdim etilgan bulutli xizmatlardan foydalanmoqda. Ta’lim sohasida keng tarqala boshlagan bulutli texnologiyalardan yana biri ta’limni boshqarish tizimini bulutga o’tkazishdir (Learning Management Systems, LMS) [4].

V.Tkachenkoning fikricha, bulutli texnologiyalar o‘zining xarakteristikalari va imkoniyatlari bilan boshqa Internet-resuslaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- foydalanuvchi o‘z ishi uchun zaruriy resurslar sonini o‘zi o‘rnatadi, ularni yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar bilan aloqada bo‘lishi talab etilmaydi;
- barcha taqdim etiladigan xizmatlar yer kurrasining istalgan joyidan amalga oshiriladi va ular foydalanuvchi ishlayotgan plotformalarga bog‘liq bo‘lmaydi;
- barcha bo‘lingan fizik resurslarni foydalanuvchi sezmagan holda dasturiy platformalar yordamida avtomatik tarzda yaxlit birlikka birlashtiradi;
- xizmat to‘lovlarini butun servis uchun emas, balki real foydalangan ishlar uchun amalga oshiriladi [4].

Keyingi yillarda jahon ta’lim amaliyotida bulutli texnologiyalardan masofadan turib foydalanishga bo‘lgan e’tibor ortdi. Bulutli texnologiyalar ta’lim tizimiga tobora chuqurlashib kirib borayotgan innovatsion platformalarning eng oxirgisi hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta’limni axborotlashtirish jarayonida barcha oliy ta’lim muassasalari internet tarmog‘ida o‘zining Web-saytiga ega bo‘ldi. Bu o‘z navbatida elektron ta’lim resurslaridan jamoa bo‘lib foydalanish, talabalarga tegishli bo‘lgan axborotlarni tarqatish, subyektlar orasida o‘zaro aloqani o‘rnatish, shuningdek, ta’lim muassasasi yangiliklari bilan professor-o‘qituvchilarni hamda talabalarni doimiy ravishda tanishtirib borish imkoniyatlarini yaratdi. Shu bilan bir qatorda ta’limda masofaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash orqali istalgan joydan va istalgan vaqtida bilim olishga imkoniyat yaratildi. Masofaviy o‘qitishni tashkil etishning asosiy shartlaridan biri – ta’lim jarayonini bir vaqtning o‘zida boshqarish va olingan bilimlar sifatini nazorat qilish ehtimoli borligi bo‘lib hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitish uchun dasturiy ta’minotni tanlash – buyurtmachining, ya’ni ta’lim muassasining talabi va maqsadiga mos ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday talablar, asosan ta’lim yo‘nalishining malaka talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masofaviy o‘qitishning dasturiy vositalarini tanlashda quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiqdir [4]:

1. Masshtablik: platforma nafaqat talabalar sonining oshishi, balki yangi fanlarni kiritish hisobidan ham kengayiish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
2. Multimediyaviylik: platformaning texnik potensiali talabalarga o‘qitish vositasi sifatida matnli va grafik fayllarni, video va audio, animatsiya hamda 3D – grafika ma’lumotlarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
3. Funksionallik: zaruriy opsiyalarning mavjudligi, shu jumladan chat, forumlar, kurslarni boshqarish, subyektlar orasida interfaol muloqot o‘rnatish, talabalar faolligini tahlil etish va h.k.
4. Do‘stona interfeys: ta’lim jarayonining sifatiga ta’sir etuvchi asosiy parametrlardan biri sifatida qarash.
5. Modullik: ta’lim kursi o‘quv materialining bir nechta blokidan (modulidan)

---

tashkil topgan bo‘lishi mumkin, zarurat tug‘ilganda ushbu ma’lumotlar boshqa kurslarning tarkibiga kirishi mumkin.

Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilgan. Konsepsiyada o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-usulubiy materiallarni keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, ta’limda zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan [2].

**Tahlil va natijalar.** O‘qitishning yangi formati muhim ahamiyatga ega, chunki bu masofaviy texnologiya bir tomondan ta’lim olishning yuqori darajadagi imkoniyatlarini ta’minlashga, boshqa tomondan esa uning sifatini oshirishga imkon beradi. Biroq butunlay elektron ta’limga o‘tishdan ko‘ra aralash ta’lim (Blended learning)dan foydalanish yanada samaraliroq va yaxshi natija beradi. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish natijasida, “bulutlar” fanga mavjud barcha geografik, texnologik, ijtimoiy to‘silarni yengishga imkon beradi.

Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarni Internet tarmog‘ida saqlovchi elektron ombor bo‘lib, ularni tahrirlash, shuningdek, foydalanuvchilarning o‘zaro fayllar, hujjatlar bilan almashish hamda muloqotga kirishish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday texnologiyalarni ishlab chiqishga AQShning Google korporatsiyasi katta qiziqish bildirgan va Google Docs tizimini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Oxirgi yillarda Google va Microsoft kompaniyalari o‘quv muassasalari pedagoglari hamda

---

talabalari uchun bulutli serverlardan foydalanish bo‘yicha yangi platformalarni yaratishga erishdi.

Bulutli texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga joriy etish, hozirgi kunda ta’lim tizimidagi eng istiqbolli innovatsiyalardan biridir. Ularning hisobiga axborot infrastrukturasiga bo‘ladigan xarajatlar ancha pasayadi, ta’lim muhitida ta’lim sifatini ko‘tarish uchun qo‘shimcha servislar tarqatiladi va ishlatiladi. Bundan tashqari, bulutli servislar o‘qitishning individual metodlarini ishlab chiqishda juda ham samarali vosita hisoblanadi, bu jarayonni hosil qilishga, Internetni brauzer yoki boshqa biror tarmoq ilovasi bilan ta’minalashga imkon beradi.

Katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan bulutli texnologiyalardan hozirgi kunda ta’lim tizimida yetarli darajada foydalanilmayapti. Ta’lim tizimiga bulutli texnologiyalarni qo‘llash ikkita muhim masalani yechish imkonini beradi.

**Birinchidan**, ta’lim muassasalari va har bir talaba uchun zamonaviy va dolzarb bo‘lgan kompyuterli infrastrukturadan, dasturiy vositalardan, elektron ta’lim resurslaridan va servislardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

**Ikkinchidan**, alohida ta’lim muassasalari va butun ta’lim tizimini bulutli texnologiyalarning hisoblash resurslaridan samarali foydalanish hisobidan lokal axborot infrastrukturani yaratishga ketadigan xarajatlarni keskin kamaytirish va dasturiy-texnik ta’minotga ajratilgan moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Bulutli texnologiya konfiguratsiyalangan hisoblash va axborot resurslariga (ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari, serverlar, ma’lumotlar bazasi, ilovalar) doimiy va qulay tarzda kirish, shuningdek foydalanuvchini tanlangan resurslar bilan ishslash hamda uning talabi asosida tizimdan chiqib ketish imkoniyatlarini taqdim etishni nazarda tutadi.

Bulutli texnologiyalarning eng muhim ijobiy tomonlari quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

- ✓ iqtisodiy (ko‘plab ta’lim muassasalari uchun asosiy ustunliklardan biri bo‘lib hisoblanadi);

- ✓ texnik (apparat ta’milotiga minimal talablar qo‘yiladi, majburiy talab faqat Internet tarmog‘ining mavjudligi bo‘lib hisoblanadi);
- ✓ texnologik (yuqori darajadagi ko‘plab bulutli xizmatlar foydalanish uchun juda qulay yoki minimal qo‘llab-quvvatlashni talab etadi);
- ✓ didaktik (keng spektrdagи onlayn-instrumentlar va xizmatlarning mavjudligi va ularning pedagog hamda talabalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari)[3].

Ko‘rib o‘tilgan xizmatlar asosida bulutli texnologiyalarning zamonaviy ta’lim jarayoniga qo‘llanilishining maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi didaktik imkoniyatlarni shakllantiramiz:

- ✓ o‘qituvchilar va o‘quvchilar katta jamoasining birgalikdagi ishini tashkil qilish imkoniyati;
- ✓ o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham har xil turdagи va qo‘llanishdagi hujjatlardan birgalikda foydalanish va nashr etish imkoniyatining berilishi;
- ✓ servis foydalanuvchisida xizmat ko‘rsatilayotgan joyga hududiy bog‘lanishining yo‘qligi sababli yaratilayotgan mahsulotlarni ta’lim jarayoniga tez kiritilishi;
- ✓ interfaol mashg‘ulotlarni va jamaa bo‘lib dars o‘tishni tashkil qilish;
- ✓ darslarga tayyorgarlik ishlarini, shu jumladan, “auditoriya o‘lchami” va “mashg‘ulotni o‘tkazish vaqtiga”ga chegaralanish bo‘lmagan sharoitlarda o‘qituvchilarning jamoaviy loyihamalarini bajarish;
- ✓ kasbdoshlar (nafaqat ular) doirasida, ularning qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zaro hamkorlik qilish va birgalikda ishlar olib borish imkoniyati;
- ✓ zaruriy materiallarni (tinglash uchun musiqa, dars ishlanmalari, o‘rgatuvchi o‘yinlar, internet manbalariga murojaatlar, tasvirlar va b.) bulutda joylashtirish va ulardan foydalanish.

**Xulosa va takliflar.** Ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning bosh didaktik ahamiyati pedagog va o‘quvchilarning birgalikdagi ishini tashkil qilishdir, bu texnologiyalar yuqori texnologik, dolzarb va istiqbolli

bo‘lgani uchun o‘quv jarayonining samaradorligini ko‘tarishga, maqsadga erishishga ko‘mak beradi. Bulutli texnologiyalar, shaxsiy o‘qish, interfaol mashg‘ulotlar va jamoa bo‘lib dars berish uchun imkoniyatlar yaratib, o‘quv jarayonining an’anaviy shakliga muqobil bo‘lgan variantlarni taklif qiladi.

Bulutli texnologiyalarni joriy etish zaruriy bo‘lgan dasturiy ta’minotni sotib olish uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini ko‘taradi, maktab o‘quvchisini zamonaviy axborotlashgan jamiyat hayotiga tayyorlaydi, pedagog bilan metodik ishni sifatli va tez tashkil qilishga yordam beradi. Bulutli texnologiyalar o‘quv jarayonini tashkil etishning an’anaviy shakllariga alternativani taklif qiladi, bu shaxsiy mashg‘ulotlar, interfaol darslar va kollektiv o‘qitish uchun imkoniyat yaratadi. Bulutli texnologiyalarni joriy etish nafaqat zarur dasturiy ta’minotni sotib olish xarajatlarini kamaytiradi, balki o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshiradi, talabani zamonaviy axborot jamiyatida hayotga tayyorlaydi va o‘qituvchilar bilan usuliyishlarni yuqori sifatli va samarali tashkil etishga yordam beradi [5].

Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish – talabalarning mobilligini oshiradi va ular elektron o‘quv-usulbiy materiallarni istalgan zamonaviy kommunikatsion qurilmalardan (standart kompyuter, noutbuk, netbuk, smartfon, planshetli kompyuter, mobil telefon) yordamida olish va foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, talabalar virtual mashinalarga ulangan holda, tajriba yoki amaliy mashg‘ulotlarni zamonaviy dasturiy vositalar asosida bajarishlari mumkin. Buning uchun talabalar dasturiy vositalarni shaxsiy kompyuterlariga yozib qo‘yishlari yoki ta’lim muassasining administratori lokal tarmoqqa joylashtirishi talab etilmaydi.

Bulutli texnologiyalar o‘qituvchining quyidagi imkoniyatlarini kengaytiradi:

- ✓ litsenziyalı dasturiy ta’minot talab qilinmaydi;
- ✓ o‘qitishning individual metodlarini ishlab chiqish uchun samarali vosita;
- ✓ bevosita auditoriyadagina emas, balki Internetga chiqish mumkin bo‘lgan

har qanday nuqtada ishlash mumkin;

✓ bitta hujjat bir nechta kishi tomonidan bir vaqtda tahrirlanishi mumkin (guruh bo‘lib loyihalar, masofaviy ishlar tashkil qilish).

Talabalar bilan ishlashdan tashqari, o‘qituvchi bulutli texnologiyalardan o‘zi ham o‘zi uchun faol foydalanishi mumkin. Yangi ta’lim standartlariga o‘tishda bulutli texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yangi axborot madaniyatini shakllantiradi, ta’lim fazosini ancha ochiq qilishga imkon beradi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral. ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bO‘yicha Harakatlar strategiyasi tO‘g’risida”gi 4947-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi farmonida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2-bob. 2-§. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog -o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009 -160 b.

4. Ваганова О.И., Дворникова Э.И., Кутепов М.М., Лунева Й.Б., Трутанова А.В. Возможности облачных технологий в электронном обучении// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. –2017. – № 6-2. – С. 183-187.

5. M.A.Maxmudova., M.L Husanova Bo‘lajak informatika fan o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalrning imkoniyatlari Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sun’iy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishslashning zamonaviy usullari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2023 yil 16-17 iyun 16-19 bet

6. Абдулина Э.М. Облачные технологии в образовании // Молодой ученый. – 2019. – № 52 (290). – С. 7-9. – <https://moluch.ru/archive/290/65873>

7. Понятие “Облачные технологии” –  
<https://studwood.ru/1046027/informatika/> ponyatie\_oblachnye\_tehnologii

8 Облачные технологии: что это и как использовать бизнесу –  
<https://blog.sibirix.ru/tech-clouds>

9. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57pp

10. Amanturdiyevna, R. D. (2022). Innovative Approaches and Their Future Muhmainly the Importance of Andi Ready. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 1(9), 1-4pp.

11. Raximkulova A., Boltayeva S. A., Urozov, M. K. (2021). Study of Modern Technologies of Sewing Manufacturing. International Journal on Orange Technologies, 3(11), 85-86.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QUVCHILARINING VIZUAL DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MODELI

*Bozorov Akmal Ashirovich*

*Qarshi davlat universiteti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish modeli yoritilgan. Taklif etilgan modelda shaxsga yo’naltirilgan yondashuv vizual dasturlash platformalari va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi vositalar bilan integratsiya qilingan. Vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida motivatsiyani oshirish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish, loyihaviy faoliyatga jalg qilish hamda hayotiy muammolarni hal qilish kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

**Tayanch so‘zlar:** o’quvchilar, vizual dasturlash, kompetensiya, model, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, loyihalash, kollaborativ ta’lim, Scratch, Code.org, tamoyillar, topshiriqlar, baholash mezoni.

### МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО ВИЗУАЛЬНОМУ ПРОГРАММИРОВАНИЮ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

*Бозоров Акмал Аширович*

*Каршинский государственный университет, Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье представлена модель формирования компетенций по визуальному программированию у учащихся общеобразовательных школ. В предлагаемой модели личностно-ориентированный подход интегрирован с платформами визуального программирования и средствами развития логического мышления. В процессе формирования компетенций по визуальному программированию особое внимание уделяется таким аспектам, как повышение мотивации, развитие алгоритмического мышления, вовлечение в проектную деятельность и решение жизненных задач.

**Ключевые слова:** учащиеся, визуальное программирование, компетенция, модель, личностно-ориентированный подход, проектирование, колаборативное обучение, Scratch, Code.org, принципы, задания, критерии оценки.

### A MODEL FOR THE FORMATION OF VISUAL PROGRAMMING COMPETENCES IN PUPILS OF A SECONDARY SCHOOL

*Bozorov Akmal*

*Karshi State University, Uzbekistan*

**Abstract:** This article presents a model for developing visual programming competencies in general education school students. In the proposed model, the personality-oriented approach is integrated with visual programming platforms and tools for developing logical thinking. In the process of developing visual programming competencies, special attention is given to aspects such as enhancing motivation, cultivating algorithmic thinking, engaging in project activities, and solving real-life problems.

**Keywords:** students, visual programming, competency, model, student-centered approach, design, collaborative learning, Scratch, Code.org, principles, assignments, assessment criteria.

**Kirish.** Sun’iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi tufayli umumiyligi o‘rtalim mакtab o‘quvchilaridan raqamli texnologiyalariga, shu jumladan dasturlashga doir tayanch bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun umumiyligi o‘rtalim mакtablarida o‘quvchilarning dasturlash bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, bugungi kunda raqamli texnologiyalar, xususan dasturlash tillarining rivojlanishi tufayli ulardan o‘quvchilarni samarali foydalanishga oid yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. O‘quvchilarni dasturlashdan samarali foydalanishga yo‘naltirish yondashuvlaridan biri sifatida, ularning vizual dasturlash platformalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini oshirishdan iborat.

Vizual dasturlash muhitlari umumiyligi o‘rtalim mакtab o‘quvchilari va boshlang‘ich dasturchilar uchun qulay interfeys hamda tushunarli blokli dasturlash imkoniyatini taqdim etadi. Bu dasturlashning asosiy tushunchalari (algoritmlar, shartli operatorlar, sikllar, o‘zgaruvchilar, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash va boshqalar) ni qulay va interaktiv tarzda o‘rganishga yordam beradi [1]. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarbligini anglatadi.

Mazkur ilgari surilayotgan tadqiqotni amalga oshirish uchun, dastlab sohaga oid olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarni o‘rganishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Umumiyligi o‘rtalim mакtab o‘quvchilarining dasturlashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasiga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanov, O‘.O‘.Jumanqo‘ziyev, K.N.Djumabayev, R.N.To‘raev, Y.N.Nilova, D.G.Jemchujnikov kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Xususan, U.M.Mirsovning tadqiqotida umumiyligi o‘rtalim mакtablarida dasturlash tillariga oid fanlardan mashg‘ulotlarni o‘quv-tashkiliy tuzilmasi mental sxemalar va onlayn o‘quv vositalarni innovatsion faoliyatga, chiziqli, tarmoqlanuvchi hamda takrorlanuvchi masalalarga moslash orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini

---

shakllantirish kompetensiyalarini amaliy yo‘naltirilgan didaktik omillari tizimli-faollik va semantik yondashuvlarga ko‘ra takomillashtirilgan [2].

O‘.O‘.Jumanqo‘ziyevning ishida umumta’lim mакtablarida dasturlash tillarini o‘qitish texnologiyasi dasturlash tillari, dasturiy modullar komponovkasi, dasturni bajarish va xatolarni bartaraf etish, dastur samaradorligini baholash kabi dasturlash jarayoni algoritmi hamda dastur matnini tahrirlash, kompilyatsiya, ijro kabi dasturlash tizimi rejimlarini intensiv joriy etish asosida takomillashtirilgan [3].

K.N.Djumabayevning tadqiqotida Python dasturlash tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning sonli-tahlili, proyektiv-rekursiv dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish va masalalarni matematik modelini yaratish, algoritmlash, dastur kodlarini loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tuzilmasiga mazmunli, tashkiliy komponentlari amaliy yo‘naltirilgan loyihaviy ta’lim sharoitida muammoli ta’lim texnologiyasi bilan qayta aloqasi natijaviyligini bevosita ta’minalash orqali takomillashtirilgan [4].


R.N.To‘rayevning dissertatsiyasida o‘quvchilarga web - dasturlashni o‘rgatuvchi elektron muhit yaratish va undan foydalanishni takomillashtirish modeli elektron ta’lim resurslarga qo‘yiladigan pedagogik, didaktik, psixologik, erganometrik talablar mazmunini shakllantiruvchi axborot bazalari bilan ishslash, o‘z o‘zini boshqarish, web dasturlash bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslangan komponentlarni ijtimoiy buyurtma va DS talablariga izchil moslashtirish asosida takomillashtirilgan [5].

Y.N.Nilovaning tadqiqoti o‘rta maktab o‘quvchilariga dasturlashni samarali o‘rgatish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Ushbu metodika tizimli-faoliyat yondashuviga asoslanib, o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol ishtirokini ta’minalash va ularning tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Y.N.Nilova tizimli-faoliyat yondashuviga asoslangan holda dasturlashni o‘rgatish metodikasini nazariy jihatdan asoslab bergen, hamda maktab informatika va axborot texnologiyalari fanida o‘rganish uchun mos bo‘lgan dasturlash tillarini tanlash mezonlarini ishlab chiqqan [6].

D.G.Jemchujnikovning ishida o‘quvchilarni dasturlashga o‘rgatishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilingan. Shuningdek, maktab o‘quvchilarini dasturlashga o‘rgatish uchun o‘yinlar yaratish texnologiyasi ishlab chiqilgan [7].

Ushbu olimlarning ishlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dasturlash tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, o‘quvchilarning dasturlashga oid ijodiy qobiliyatlari, algoritmik fikrlashi va kompetensiyalarini shakllantirish metodikasiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish metodikasiga e’tibor qaratilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuning uchun mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil oluvchi o‘quvchi-yoshlarni vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish lozim. Buning uchun esa o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishning modelini ishlab chiqish talab etiladi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. O‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish modeli**

**Tahlil va natijalar.** Tavsiya etilayotgan model tashkiliy, texnologik, nazorat va tahlil bosqichlardan iborat. Tashkiliy bosqich shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari o‘quv faoliyatida, ularning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini E-learning tizimi, loyihalash metodi, kollaborativ ta’lim texnologiyasi va vizual dasturlash hamda bilimlarni nazorat qiluvchi va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi platformalarni uyg‘unlashtirish asosida shakllantirishga qaratilgan.

Chunki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tashkil etish o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlari Y.A.Shukurov, V.V.Kravsov, S.M.Levin kabi olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ularning ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratashi ta’kidlangan [8-10]: o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish; o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga o‘rgatish; o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish; o‘quvchilar bilan individual ishslash; raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali onlayn platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt yordamida shaxsga moslashtirilgan ta’lim resurslarini taqdim etish; jamoaviy loyihalar, muammoli ta’lim metodlari va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning muloqot, muammolarni hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Bizning fikrimizcha, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlab, ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar vizual dasturlashni o‘rganishda o‘zlariga moslashtirilgan vazifalar va loyihalar bilan shug‘ullanadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchilarga turli xil vizual dasturlash vositalari va platformalari bilan ishslash imkoniyati beriladi. Bu esa

---

ularning kreativlik, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvining imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda foydalanish lozim. Mazkur yondashuvni qo‘llashda loyihalash metodi va kollaborativ ta’lim texnologiyasidan foydalanish taklif etilmoqda. Taklif etilayotgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilar vizual dasturlashni faol hamda qiziqarli tarzda o‘rganishadi, bu esa ularning keljakda texnologiya sohasida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun asos yaratadi. Shuningdek, loyihalash metodidan foydalanish ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarining amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilar yoki talabalar mustaqil yoki jamoaviy tarzda loyihibar ustida ishlash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydi.

Bu borada A.V.Bichkovning fikriga ko‘ra, “loyihalash metodi – bu o‘qitish tizimi bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar tobora murakkablashib borayotgan amaliy loyihalarni rejalashtirish hamda bajarish orqali bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir” [11].

Bizning fikrimizcha, loyihibar ta’lim inson faoliyatining nazariy va amaliy tarkibiy qismlarini yagona tizimga birlashtiradigan, shaxsning ijodiy salohiyatini ochish, rivojlantirish va amalga oshirishga imkon beradigan fikrlashning loyihalash uslubini shakllantirishga yordam beradi.

Shu bois umumiyl o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda loyihalash metodidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bu borada S.R.Gurikovning tadqiqotida loyihalash metodi dasturlash ta’limini samarali qilish uchun kuchli vosita ekanligi ko‘rsatilgan. S.R.Gurikovning fikriga ko‘ra, “loyihalash metodi nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilish, dasturiy mahsulotlar yaratish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, har biri

loyihaning ma'lum qismiga javobgar bo'ladi. Bu ularga dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonini jamoada ishlash orqali o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, loyihalash metodini kollaborativ ta'lim kabi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali dasturlashni o'qitish jarayonini samarali tashkil etish mumkin” [12].

Mazkur olimning ishlarini tahlil etish asosida aytish mumkinki, o'quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda loyihalash metodi va kollaborativ ta'lim texnologiyasini integratsiya qilish asosida foydalanish samarador hisoblanadi.

Chunki kollaborativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi jamoa bo'lib hamkorlikda ta'limiy muammolarni yechishdan iborat.

Bu borada Sh.G'.Xasanovning fikriga ko'ra, “pedagogikada kollaborativlik tushunchasi umumiylar yo'lida birgalikda hamkorlik qilish, tajriba almashish, o'rganish, maslahatlashishni anglatadi. Bunda pedagogik jarayon ishtirokchilari keng qamrovli hamkorlik jarayonlari obyekti hisoblanadi. Keng ma'noda kollaboratsiya jarayonlari ta'lim tashkilotidagi muammoni hal qilish, vazifani bajarish yoki qo'yilgan ta'limiy maqsadga erishish uchun jamoaviy ishlarni tashkil qilish imkonini beradigan pedagogik strategiyani anglatadi” [13].

Shuningdek, V.S.Sheynebaumning fikriga ko'ra, “kollaborativ ta'lim quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi: ta'lim oluvchilar bilan muloqot qilish orqali berilgan masalani yechish madaniyati shakllanadi; turli murakkab muammolarni tez va samarali yechish; amaliy loyihalarni samarali bajarish; berilgan masalani yechish uchun jamoa bilan fikr almashish va yagona qaror qabul qilish” [14].

Kollaborativ ta'lim texnologiyasining mazkur imkoniyatlarini inobatga olib aytish mumkinki, ushbu texnologiyadan dasturlash ta'limida samarali foydalanish mumkin. Chunki, dasturlash sohasi o'zida murakkab muammolarni hal qilish, loyihalarni birgalikda ishlash va turli yondashuvlarni sinab ko'rishni talab qiladi. Kollaborativ ta'lim usullari bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli olib borishni

ta’minlaydi. Shuning uchun tadqiqot doirasida o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid komptensiyalarini shakllantirish uchun loyihalash metodi va kollaborativ ta’lim texnologiyasi integratsiyasidan foydalanish taklif etilmoqda.


Ushbu ta’lim texnologiyasi va o‘qitish metodini integratsiyasidan vizual dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda qo‘llashda E-Learning o‘qitish tizimlaridan, shu jumladan axborot-ta’lim muhitlari, vizual dasturlash platformalari va bilimlarni nazorat qiluvchi hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi platformalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuning uchun taklif etilayotgan modelda [scratch.mit.edu](http://scratch.mit.edu) hamda [studio.code.org](http://studio.code.org) kabi vizual dasturlash platformalaridan foydalanish tavsiya etilmoqda. Vizual dasturlash platformalari, xususan Scratch va Code.org Studio maktab o‘quvchilarining dasturlash faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu platformalar blokli dasturlash muhiti orqali o‘quvchilarga dasturlash asoslarini intuitiv va qiziqarli tarzda o‘rgatadi. Scratch ijodkorlikni rivojlantirish, animatsiyalar va interaktiv loyihalar yaratish uchun qulay bo‘lsa, Code.org Studio esa algoritmik fikrlash va kompyuter fanlariga oid asosiy tushunchalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda bu platformalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: muammoli fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi; o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantiradi; STEM yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishni oshiradi; jamoaviy ishslash va ijodiy loyihalar yaratishga rag‘batlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, vizual dasturlash bilan shug‘ullangan o‘quvchilar an’anaviy dasturlash muhitlariga tezroq moslashadi va mantiqiy fikrlashda yuqori natijalarga erishadi. Shu sababli, bu platformalar maktab o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek ushbu platformalar bilan birlgilikda o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid bilimini nazorat qiluvchi va mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi platformalardan foydalanish talab etiladi.

Shu bois o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda [learningapps.org](https://learningapps.org) platformasidan foydalanish taklif etilmoqda (2-rasmga qarang).



### **2-rasm. learningapps.org platformasidan foydalanish jarayoni**

LearningApps – bu bepul onlayn platforma bo‘lib, interaktiv ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Ushbu platforma yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilar turli xil interaktiv mashqlar, testlar, o‘yinlar, viktorinalar va boshqa o‘quv faoliyatlarini ishlab chiqishlari mumkin. Shuningdek, LearningApps maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan samarali vositalardan biridir.

Bu borada M.A.Camilleri, A.C.Camillerilarning bildirishicha, LearningApps platformasidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [15]: oddiy nazariy darslarni qiziqarli interaktiv mashqlar bilan to‘ldirish; o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, birgalikda interaktiv mashqlar tayyorlashlari va o‘zaro almashishlari mumkin; o‘qituvchilar testlar yoki viktorinalar yordamida tezkor baholash jarayonlarini o‘tkazishlari mumkin; “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan

---

blokli dasturlashga oid mashqlar yoki algoritmik fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar yaratish mumkin.

Ushbu imkoniyatlarni inobatga olib aytish mumkinki, o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetentligini shakllantirishda LearningApps platformasidan samarali foydalanish mumkin: LearningApps o‘quvchilarga kod yozishdan oldin, dasturlashning asosiy tushunchalarini vizual ravishda tushunish imkonini beradi; drag-and-drop uslubidagi topshiriqlar orqali blokli dasturlash mantig‘ini o‘rganish osonlashadi; LearningApps orqali shartli operatorlar, sikllar, tartib va mantiqiy bog‘liqliklar bilan bog‘liq topshiriqlar berish mumkin.

Shunday qilib, LearningApps platformasidan foydalanish orqali o‘quvchilarning algoritmik fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va mustaqil ishslash kompetensiyalari rivojlanadi. Shu sababli, vizual dasturlashga oid kompetensiyalarni shakllantirishda LearningApps dan foydalanish samarali vositalardan bir bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelining tashkiliy qismini amalga oshirishda didaktik, pedagogik-psixologik, tashkiliy va kommunikativlik, shuningdek, texnologik tamoyillarga tayanish lozim:

1. Didaktik tamoyillar. Didaktik tamoyillar o‘qitish jarayonining mazmuni, metodlari va vositalarini belgilashga yordam beradi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ilmiylik – ta’lim jarayoni ilmiy asoslangan bo‘lishini nazarda tutadi;
- tizimlilik va izchillik – bilimlarni bosqichma-bosqich berish hamda oldingi o‘zlashtirilgan ma’lumotlar bilan bog‘lashni talab etadi;
- faollik va mustaqillik – o‘quvchilarning bilim olish jarayonida mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etadi;
- nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi – olingan bilimlarni real hayotda qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi.

2. Pedagogik-psixologik tamoyillar. Ta’lim jarayonida pedagogik va psixologik tamoyillarga rioya qilish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi:

- individual yondashuv – har bir o‘quvchining qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi;

- motivatsiya va rag‘batlantirish – o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularda o‘ziga ishonchini uyg‘otadi;

- psixologik qulay muhit yaratish – stressni kamaytirish orqali ta’limning samaradorligini oshiradi.

3. Tashkiliy va kommunikativlik tamoyili. Mazkur tamoyil o‘quvchilar o‘rtasida va o‘qituvchi bilan samarali muloqotni tashkil etishga asoslanadi:

- hamkorlik va interaktiv ta’lim – o‘quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatini kengaytirish va jamoaviy ishni rivojlantirishni nazarda tutadi;

- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqot – tushunarli, lo‘nda va ochiq fikr almashish jarayonini yo‘lga qo‘yishni anglatadi;

- refleksiya va fikr almashish – o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilish va takomillashtirishga yo‘naltirishni talab etadi.

4. Texnologik tamoyil. Ushbu tamoyil zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida foydalanishni nazarda tutadi:

- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish: elektron darsliklar, videodarslar, interaktiv taqdimotlar;

- sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) vositalaridan foydalanishni taqozo etadi;

- masofaviy va gibrid ta’lim asosida moslashuvchan o‘quv muhiti yaratadi.

Ushbu tamoyillarning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, ularning kompetentli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu bois, mazkur tamoyillarni inobatga olgan holda taklif etilayotgan modelning texnologik bo‘limida o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari ishlab chiqildi:

1. Motivatsiyani oshirish.
2. Algoritmik fikrlashni rivojlantirish.
3. Loyihaviy faoliyatga jalg qilish.
4. Kodlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5. Hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish.
6. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish.

Ushbu olti bosqichli yondashuv orqali o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalari tizimli va samarali rivojlantiriladi. Bosqichma-bosqich ishslash orqali ular nafaqat kod yozishni, balki loyihaviy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish kabi muhim ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar.

Shuningdek, mazkur bosqichlar orqali o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni ularga beriladigan topshiriqlarga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Chunki, dasturlash ta’limida o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar ularning bilim darajasiga mos kelishi va bosqichma-bosqich rivojlanib borishi muhim ahamiyatga ega.

Bu borada U.M.Mirzhanov va F.J.Toxirovlarning fikriga ko‘ra, to‘g‘ri tanlangan topshiriqlar o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning algoritmik fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi va mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ularning ta’kidlashicha topshiriqlarni tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim: oddiydan murakkabga tomon harakat qilish; mantiqiy izchillik; hayotiy masalalardan foydalanish; ijodiy yondashuvga imkon yaratish; qiyinchilik darajasini bosqichma-bosqich oshirish [2, 16]. Shu sababli, sodda topshiriqlardan boshlanib, murakkabroq muammolarga o‘tish lozim.

Umuman olganda, dasturlash ta’limida topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchilar dasturlashni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradi va mustaqil ishslashga tayyor bo‘ladi.

Shu bois, tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlarida foydalaniladigan topshiriqlar ketma-ketligi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

**O‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan topshiriqlar**

T/r	Bosqichlar	Topshiriqlar
1	Motivatsiyani oshirish	Interaktiv hikoya yoki dialog yaratish
2	Algoritmik fikrlashni rivojlantirish	Harakatlanuvchi obyektlar yaratish
3	Loyihaviy faoliyatga jalb qilish	Shartli jarayonlarni boshqarish
4	Kodlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	Takrorlanuvchi jarayonlarni boshqarish
5	Hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish	Sensor boshqaruvli loyiha tayyorlash
6	Ijodiy yondashuvni rivojlantirish	Mustaqil ijodiy loyiha

Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra ma’lum bo‘ldiki, yuqori tavsiya etilayotgan topshiriqlarni o‘quvchilar bosqichma-bosqich bajarishi natijada, ularning vizual dasturlashga oid algoritmik va mantiqiy fikrlashi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi hamda kompetensiyalari shakllanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga vizual dasturlash bo‘yicha topshiriqlar berish jarayonida ularning bilimlarini baholash muhim hisoblanadi. Chunki baholash o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va kelgusida metodikani takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bois, taklif etilayotgan modelning nazorat va tahlil bosqichida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqildi. Bunda o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish taklif etildi: algoritmik fikrlash darajasi; texnik ko‘nikmali; muhitdan foydalanish malakasi; loyihaning animatsiya va interaktivlik darajasi; ijodiy yondashuvi. Mazkur

mezonlar asosida o‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini baholashda yuqori, o‘rta, past darajalardan foydalanish taklif etilgan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modeldan foydalanish tavsiya etiladi. Taklif etilgan model o‘quv jarayoniga loyihaviy yondashuv va kollaborativ ta’lim texnologiyalarini integratsiya qilish orqali samaradorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar Scratch, Code.org va shu kabi vizual dasturlash muhitlarida ishlash orqali dasturlash asoslarini oson o‘zlashtiradi. Mazkur model o‘quvchilarning nafaqat texnik, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash kabi universal kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. Bozorov A.A. O‘quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shartlar // O‘zMU xabarları, ISSN 2181-7324. – 2025, [1/1]. – C 65-67.
2. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 76 b.
3. Jumanqo‘ziyev O‘.O. Umumta’lim maktablarida dasturlash tillarini o‘qitishning o‘quv metodik ta’minoti // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 48 b.
4. Djumabayev K.N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida python dasturlash tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2023. – 47 b.
5. To‘rayev R.N. O‘quvchilarga web-dasturlashni o‘rgatuvchi elektron muhit yaratish va undan foydalanishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 50 b.
6. Нилова Ю.Н. Методика обучения программированию учащихся старшей школы на основе системно-деятельностного подхода // Автореферат

---

диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 27 с.

7. Жемчужников Д.Г. Методика обучения программированию, основанная на создании школьниками динамических компьютерных игр // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2013. – 25 с.

8. Shukurov Y.A. Umumta’lim maktablarida shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 54 b.

9. Кравцов В.В. Особенности личностно-ориентированного обучения на основе дистанционных технологий в дополнительном профессиональном образовании // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Владивосток, 2010. – 25 с.

10. Levin S.M. Personality-oriented learning with the use of electronic technologies based on the analysis of LMS data // Современное образование: интеграция образования, науки, бизнеса и власти. – 2022. – С. 21-28.

11. Бычков А.В. Метод проектов в современной школе. Второе издание, дополненное. – М. : АБВ-ИЗДАТ, 2018. – 100 с.

12. Гуриков С.Р. Использование метода проектов в преподавании языков программирования // Профильная школа. – 2019. – Т. 7. – №. 3. – С. 16-21.

13. Xasanov Sh.G’. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona, – 2024. – 60 b.

14. Шейнбаум В.С. Компетенция «умение работать в команде» и ее развитие с использованием технологии междисциплинарного деятельностного обучения в виртуальной производственной среде // Педагогика. 2018. – С. 2-9.

15. Camilleri M.A., Camilleri A.C. The students' readiness to engage with mobile learning apps // Interactive Technology and Smart Education. – 2020. – T. 17. – №. 1. – P. 28-38.
16. Toxirov F.J. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi – 2022. – 48 b.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### BO'LAJAK MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA BULUTLI TEKNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AXBOROT- TA'LIM MUHITLARIDAN FOYDALANISH

*Donayev Nuriddin Yuldashevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, O'zbekiston*

**Annotation:** Maqolada, bo'lajak matematika va informatika o'qituvchilarini tayyorlashda shakllantirilgan tamoyillar va aniqlashtirilgan pedagogik shartlar asosida informatika turkumiga kiradigan fanlarini o'qitishda bulutli texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutuvchi raqamli texnologiyalar kompetensiyasini rivojlanishning tarkibiy va mazmunli modelini loyihalash imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Keywords:** raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, ta'lim, bilim, aloqa, kompetentsiya, axborot-ta'lim muhiti, model, loyihalash.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕД НА ОСНОВЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ И ИНФОРМАТИКИ

*Донаев Нуриддин Юлдашевич*

*Деновский институт предпринимательства и педагогики, Узбекистан*

**Annotation:** В статье анализируются возможности проектирования структурно-содержательной модели формирования цифровой технологической компетентности, предполагающей использование облачных технологий в преподавании предметов категории «Информатика», на основе принципов и уточненных педагогических условий, сформулированных в подготовке будущих учителей математики и информатики.

**Keywords:** цифровые технологии, облачные технологии, образование, информация, знания, компетентность, информационно-образовательная среда, модель, проектирование.

### UTILIZING CLOUD-BASED INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENTS IN THE PREPARATION OF FUTURE MATHEMATICS AND INFORMATICS TEACHERS

*Donayev Nuriddin*

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Uzbekistan*

**Abstract:** The article analyzes the possibilities of designing a structural and content model for the formation of digital technological competence, which involves the use of cloud technologies in teaching subjects in the category "Computer Science", based on the principles and specified pedagogical conditions formulated in the training of future teachers of mathematics and computer science

**Keywords:** digital technologies, cloud technologies, education, information, knowledge, competence, information and educational environment, model, design.

**Kirish.** Ma'lumki, bugungi kunda jamiyatning barcha sohasidagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish ko'lami va sifati iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga va uning jahon iqtisodiy tizimiga

integratsiyalashuviga keng ta’sir qilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimini axborotlashtirish jarayoni bilan muvofiqlashtirish sharoitida bitiruvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyaning tez yangilanishi va tarqalishi o‘qitishning yangi usullarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shuningdek, boshqaruv va uzlucksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalaridan foydalanish ahamiyatli bo‘lib bormoqda, natijada, global markazsizlashtirish, kasbiy faoliyatning virtualizatsiyasi kuzatilmoxda. Bu o‘z o‘rnida foydalanuvchilar uchun ko‘p vazifali sharoitlarda va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi axborot treninglarini talab qilmoqda. Buning asosida ish sharoitlarining o‘zgarishi ta’limni akademik ta’limdan tashqariga olib chiqmoqda hamda davlat ta’lim standartlarining tubdan o‘zgarishiga, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda qo‘sishimcha o‘qitish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ularga kasbiy va boshqa muammolarni hal qilish uchun innovatsion usullardan foydalanish imkonini beradi.

Ta’limning uzlucksizligi sharoitida o‘quvchilar bilim va malaka ko‘nikmalarini kengaytirish va mustaqil ravishda ta’limni davom ettirish zaruratga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan elektron ta’lim, xususan, ommaviy ochiq onlayn kurslar tobora ko‘proq qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bo‘lajak universitet bitiruvchilarining bunday sharoitda kasbiy faoliyati raqamli texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash darajasini oshirishni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi qabul qilingan davlat ta’lim standartlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida tan olingan bo‘lib, kelajakda universitet bitiruvchilarining kasbiy faoliyatida va umuman hayotida adekvat qarorlar qabul qilish imkonini beradigan vakolatlarga ega bo‘lishiga qaratilgan. Axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutilgan, ularning asoslari informatika va raqamli texnologiyani fan sohasini mohiyatan aks ettiruvchi jarayon hamda bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashda bulutli texnologiyalardan foydalanish kabi muammolar mamlakatimiz

tadqiqotchilar M.Lutfullaev [1], U.A. Mirsanov [2], R.A.Ruziyev [3], M.Aripov [4], U.Sh.Begimkulov [5] kabilar va xorijiy olimlar A.A. Kuznetsov[6], M.P.Lapchik[7], Z.S.Seydametovalar ishlarida axborot texnologiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlari, AKT kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etish muammolari A.A. Andreeva[8], S.G. Grigorieva[9], A.Drozd[10], I.G. Zaxarova[12], E.V. Ospennikova[13] va I.V. Robert[14] kabilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Shu bilan birga, axborot jamiyatining rivojlanish bosqichida zamonaviy sharoitlarga mos ravishda hayotda raqamli texnologiyalardan foydalanishga umumiy yondashuvlarni shakllantirishga imkon beradigan bo‘lsa, axborot siklining fanlari talabga ega ekanligini ta’kidlash muhimdir.

Shunday bo‘lsada o‘qitish usullari tizimlarini tahlil qilish bizga bu masala yetarli darajada hal etilmagan degan xulosaga kelish imkonini berdi. Rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish va jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘liq dinamik sharoitlarga moslashishni ta’minlaydigan ilg‘or raqamli texnologiyalardan, jumladan, bunda bugungi talablariga javob beradigan kompyuter resurslari va imkoniyatlari foydalanuvchiga Internet xizmati sifatida mavjud bo‘lganda, tarqatilgan ma’lumotlarni qayta ishlashga asoslangan bulutli texnologiyalarni ko‘rsatishimiz mumkin. Biroq, ta’lim natijalarini ta’minalash darajasida, ya’ni kompetensiyalarini shakllantirish va kompetensiyasini rivojlantirish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Har qanday sohadagi mutaxassislar faoliyatining asosiy turlari bugungi kunda shaxsning umumiy madaniyatini doimiy ravishda oshirish asosida amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, ta’limning har qanday sohasi doirasida bo‘lajak o‘qituvchilar kompitentligi shakllanishi va rivojlanishi kerak.

Axborotlashtirish jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonunidir. Ushbu hodisaning o‘ziga xos xususiyati raqamli texnologiyalarining inson faoliyatining barcha sohalarida keng ko‘lamli qo‘llanilishidir. Bo‘lajak matematika va informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda bulutli texnologiyalardan foydalanishda turli yechimlar

---

asosida qabul qilishlari kerak bo‘ladi, shuning uchun bo‘lajak bitiruvchilarning axborot texnologiyalar kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan [15, 16].

Ma’lumki, bulutli texnologiyalardan foydalanish o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, bu maqsadli boshqaruv jarayonidir[17]. Elektron axborot-ta’lim muhiti modelini qurish uning optimal komponentlari majmuasini aniqlashni va ular o‘rtasida aloqalarni o‘rnatishni talab qiladi. Albatta, bunday muhitni fan darajasida tashkil etish odatda o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi[14]. Axborot-ta’lim muhiti ikki tomonlama muammoni, birinchidan, ma’lum bir malaka darajasiga erishish uchun talabalarning o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish va ikkinchidan, o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ta’limni boshqarish tizimlari, audiovizual vositalar, tarmoq vositalari, kognitiv xaritalar, hamkorlik saytlari, shaxsiy bloglar va onlayn tizim kabilar.

Buning natijasida, ta’lim jarayonida hozirgi vaqtda o‘quvchi-talabalarning bilim olish ko‘nikmalari rivojlandi, jumladan, ta’lim maqsadlari va ularga erishish yo‘llarini mustaqil belgilab, ta’lim jarayonining to‘laqonli hamkoriga aylandilar. Shuning uchun o‘quv jarayonini faollashtirish, ijodiy mustaqillik ko‘lamini shakllantirish va ta’lim usullari kabi muammolarni hal qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarurdir. Shuningdek, yaratilayotgan elektron axborot-ta’lim muhiti boshqa darajadagi axborot va ta’lim muhitiga zid bo‘lmasligi kerak.

Biz aralashtirilgan ta’lim modeliga asoslanib, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilishni ko‘rib chiqishga harakat qilidik.

Ulardan foydalanilganda o‘quv jarayonining faollashishi fan darajasida o‘quv jarayonini boshqarishni tashkil etishda kuzatiladi:

-talabalarning AKT kompetensiyasini rivojlantirish, shu jumladan axborotni mustaqil qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

-o‘z-o‘zini ta’limga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini o‘zlashtirish;

- bo‘lajak mutaxassislarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida bunday texnologiyalardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, axborot ta’lim tizimining tarkibiy qismini hisobga olgan holda, biz “elektron ta’lim kurslari” (ELC) tushunchasiga e’tibor qaratamiz. Ma’lumki, elektron materiallarni (masalan, ishchi dasturlar, nazariy o‘quv materiallar, diagrammalar, rasmlar, masalalar to‘plami, kompyuterda modellashtirishni amalga oshirish dasturlari va boshqalar) uslubiy va texnologik tizimlashtirish elektron ta’lim tizimining bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlaydi. ELCni o‘quv jarayoniga kiritishda quyidagi talablar bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Umumiyl talablar:

- fanni o‘rganishda talaba faoliyatini samarali boshqara olish;
- o‘quv va kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish;
- materialni taqdim etish texnologiyalarining oqilona boshqarilish;
- axborotlarni almashish jarayoni(kommunikatsiya) texnologiyalari asosida darslarning turli shakllarini taqdim etish.

2. Elektron ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar:

- ta’lim standartlariga muvofiqligi, hajmning yetarliligi, materialning dolzarbliji va yangiligi;
- tizimlilik, yaxlitlik, aniqlik, amaliy mazmun, madaniy komponent;
- nazariy o‘quv materialni bayon etishda aniq mantiq, maqsadlarni belgilashda aniqlik;
- o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishning turli uslub va vositalaridan foydalanish.

3. Elektron o‘quv kursi tuzilishiga qo‘yiladigan talablar. Bunda ma’lumotlar bloklarda taqdim etilishi kerak:

- *mazmunli axborot bloki*. Ma’lumot blokida quyidagilar mavjud: o‘quv kursi (mavzu) haqida ma’lumot; muddatlari, o‘qish jadvallari; hisobot shakllari; forum. Uning mazmuniga quyidagilar kiradi: o‘quv rejalar, sillabuslar; texnologiyalar; mustaqil ta’lim(seminar) rejalar va mavzulari; uslubiy tavsiyalar.

- *boshqaruv va o‘zaro aloqa bloki*. Bularga kiradi: fikr-mulohazalarni amalga oshirish bilan sinov tizimlari; o‘z-o‘zini nazorat qilish, bilimlarni nazorat qilish(baholash) va tayyorgarlik ko‘rish uchun savollar; baholash mezonlari haqida ma’lumot.

- *qo‘sishchilar kiritish va umumlashtiruvchi bloki*. O‘quv ishlari natijalarini o‘z ichiga oladi.

#### 4. Texnik jihatdan bajarishga qo‘yiladigan talablar.

Bunda asosan elektron ta’lim kursini samarali ishlashini ta’minalash(kerakli xotira hajmining optimalligi, avtomatik boshqarish va o‘rnatishning mavjudligi kabilar); elektron o‘quv kursni tashkil etishning optimalligi, aniqlilik(ergonomik); va multimediadan foydalanishning yetarliligi va uyg‘unligi kabi xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, elektron ta’lim kurslari kontsepsiysi axborot ta’lim tizimining(IOS) mohiyatiga zid emas, shuning uchun quyidagi qoidalarga asoslanib IOS modelini qurish tavsiya etiladi [18, 19]:

1. Mukammal holda, darslarni tashkil etishning turli shakllari (ma’ruzalar, seminarlar, oraliq va yakuniy testlar, laboratoriya ishi, mustaqil ish va boshqalar) taqdim etilishi kerak.

2. Model tarkibiy tizimi(bloklardan tashkil topgan) mavjud bo‘lishi kerak:

- o‘quv bloki – kurs maqsadlari, uni o‘rganishning tashkiliy jihatlari;
- axborot bloki – o‘quv kursi bo‘yicha ma’lumotnomalar, materiallarni o‘zlashtirish va tushunishga qaratilgan vazifalar;
- monitoringi bloki – o‘quv natijalarini nazorat qilish (testlar, yakuniy reyting);
- axborot almashnuv bloki – didaktik vazifalarni hal qilish uchun.

3. IOSni loyihalashning asoslari. Bunda ta’limni rivojlantirish tamoyillarini hisobga olish va uning muvaffaqiyatli tadbiq etish jarayonlari nazarda tutiladi.

Shunday qilib, axborot-ta’lim muhitini tizimli loyihalashda biz quyidagi asosiy komponentalarga tayandik: ta’lim, baholash va aloqa (1-rasm).

Elektron axbotor-ta'lim muhiti		
O‘quv jarayoni komponentalari: -kurs maqsadlari; -axborotni tashkil etuvchilar(mavzular); -uslubiy tavsiyalar	Aloqa komponentalari: -o‘quv kursi bo‘yicha ma’lumotnomalar; -materiallarni o‘zlashtirish va tushunishga qaratilgan vazifalar	o‘quv natijalarini nazorat qilish -testlar; - yakuniy reyting; -monitoring

#### 1-rasm. Axborot-ta’lim muhitini tizimli loyihalash

Ushbu modelni amalga oshirishda albatta psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy va texnologik xarakterdagi talablar amal qilinadi, bunda fan mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘quv faoliyatining xususiyatlari hisobga olinadi.

Ushbu tizimdan foydalanish bo‘yicha uslubiy komponentni ko‘rib chiqsak, biz o‘qituvchi tomonidan elektron ma’ruzalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni amalga oshirish uchun bulut xizmatlaridan foydalanish va ular asosida talabalar tomonidan o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish imkoniyatini ko‘ramiz. O‘quv fanlarining shaxsiy elektron axbotot-ta’lim tizimini hisobga olish nafaqat elektron resurslarni taqdim etishi, balki ma’lum darajada ta’lim faoliyatini boshqarish va tashkil etishi kerak bo‘lgan vositalarni tanlashni belgilaydi.

Shunday qilib, ta’lim komponenti elektron axbotot-ta’lim tizimining resurs funksiyasini (ta’lim resurslarini shakllantirish, saqlash va joylashtirish) ta’minlaydi, bu har qanday elektron axbotot-ta’lim tizimini texnologik amalga oshirish talablariga

javob beradi [20]. Uni amalga oshirish Dropbox xizmatlari asosida mumkin: “Google” (“Google Drive”, “YouTube”, “Blogger”); “Yandex.Disk”; “Cloud@mail.ru”; “OneDrive”.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, bulutli texnologiyalar asosida IOSni ishlab chiqish bilan bog‘liq qiyinchiliklar mavjud bo‘lishi mumkinligiga (masalan, o‘qituvchilar uchun vaqt yetishmasligi) qaramay, quyidagi imkoniyatlar amalga oshiriladi:

- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida fikr almashuvini ta’minlash;
- o‘quv ma’lumotlarining mavjudligi va vizualizatsiyasi (ham onlayn, ham oflayn);
- katta hajmdagi ma’lumotlarni turli formatlarda saqlash;
- o‘quv jarayonining yangi shakllarini yaratish (real vaqt rejimida masofaviy ishslash);
- o‘quvchi-talabalar bilimining oraliq diagnostikasini o‘tkazish imkoniyati;
- talabalarning bilim faolligini faollashtirish;
- axborotni qayta ishslash vositalari va usullarini o‘zlashtirish, ularni keyinchalik ish faoliyatda qo’llash motivatsiyasini oshirish;
- bitiruvch shaxsini rivojlantirish, uni axborot jamiyati sharoitida mustaqil faoliyatga tayyorlash, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Umumiy qilib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot-ta’lim muhitining o‘zaro bog‘langan asosiy komponentlari quyidagilardir: ta’lim, aloqa, baholash.
2. An’anaviy va innovatsion o‘qitish usullari va vositalarini uyg‘unlashtirish imkonini beruvchi axborot-ta’lim muhitini amaliy tatbiq etish imkoniyatlaridan biri bu Google tomonidan taklif etilayotgan vositalar to‘plamidan samarali foydalanishdir.

Shunday qilib, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli texnologiyalar turkumiga kiruvchi fanlarini o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan

metodologiya bo‘lajak bitiruvchilarning axborot texnologiyalari kompetensiyasini yanada samarali rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

13. Lutfullayev M.X. Pedagogik dasturiy vositalar va ulardan multimediyali elektron darsliklar yaratishda foydalanish.. // Xalq ta’limi. T., 2002. -№ 6. -b. 99-101.
14. Mirsanov U. and others. Effective methods for organizing laboratory sessions in programming language courses// AIP Conf. Proc. 3268, 070020 (2025).  
<https://doi.org/10.1063/5.0257142>
25. Turaev R. N. The importance of the formation of web programming competencies in schoolchildren. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 10 No. 1, 2022. ISSN 2056-5852. [full-paper-the-importance-of-the-formation-of-web-programming-competencies-in-schoolchildren.pdf](https://www.semanticscience.org/index.php/ejrre/article/view/10_1_10)
26. Nafasov M. M. Ta’limiy mobil ilovalarni yaratish texnologiyasi va ulardan foydalanish metodikasini takomillash-tirish.(Web dasturlash asoslari fani misolida). // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. Buxoro – 2023. – 46 b.
27. Abdukarimov S. S. Elektron ta’lim muhitida dasturlash tillari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2023. – 56 b.
28. G‘ulomov SH. R. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq trafigini filtrlashning usuli va vositalari. // Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024. – 44 b.
29. Токарчук А. М. Повышение эффективности методов и алгоритмов разработки взаимодействия и хранения веб- приложений. Автореферат. // Диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. Москва-2012. – 28 с.
30. Валиков А. Н. Модели и методы разработки крупномасштабных веб-приложений. Автореферат. // Диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. Уфа-2003. – 32 с.

- 
31. Kazantsev K. Development of a Web Application for Management of Public Events. Helsinki Metropolia University of Applied Sciences. Bachelor of Engineering. Information Technology. Bachelor’s Thesis April 15, 2018– 27 p.
32. Власова Н. С. Особенности подготовки веб-разработчиков в высшей школе. УДК 378.011.33:004.738.1 302 с.
33. Власова Н. С. Возможности веб-школы в рамках дополнительного образования // Новые информационные технологии в образовании и науке. 2019. № 2. С. 104-107.
34. Немчинова Т.В., Тонхоноева А.А., Багдуева А.В.. Формирование информационной компетентности студентов при изучении web-программирования. Вестник бурятского государственного университета 2017. вып. 4 С. 84-88.
35. Двуреченский И.О. Веб-приложения: основы, технологии и разработка. ISSN 2410-6070 международный научный журнал инновационная наука» № 6-1 / 2023 С. 46-51.
36. Truong H. Build and deploy a high-performance full stack javascript web application. Bachelor’s thesis. Spring 2020. Information technology Oulu University of Applied Sciences. P. 104-107.
37. Vilcinskaite M. Introducing the Modern and Future Development of “Web Applications” Using JHipster Development Platform. Degree project in TIDAB, first level Stockholm, Sweden 2021. P. 10.
38. Thakur P. Evaluation and Implementation of Progressive Web Application. Helsinki Metropolia University of Applied Sciences Bachelor of Engineering Information Technology Thesis 6 April, 2018. P. 27.
39. Со Тхей Вин. Исследование компонентной модели объектов для создания программного обеспечения и оценка производительности web-сайтов. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. Москва – 2007. – 38 с.

40. Погодина И. А. Формирование информационно-коммуникационной компетенции учащихся в условиях общеобразовательной школы. //Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Владикавказ - 2011. – 46 с.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### TALABALARING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTRISH MUAMMOLARI

*Himmatov Shohruh Oripovich*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frilanserlik tushunchasi va unga oid olib borilgan olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantrish muammolari va yechimlariga doir taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli texnologiya, global tarmoq, dasturiy mahsulot, frilanserlik, motivatsiya, amaliy ko‘nikma, kompetentlik.

### ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ФРИЛАНСИНГА

*Химматов Шохрух Орипович*

*Самаркандинский государственный университет, Каттакурганский филиал,  
Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье представлен анализ понятия фриланса и работы ученых, связанных с ним. Были также высказаны предложения и рекомендации относительно проблем и решений по развитию компетенций фрилансеров у студентов.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, глобальная сеть, программный продукт, фриланс, мотивация, практические навыки, компетентность.

### PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCIES IN THE FIELD OF FREELANCING

*Khimmatov Shokhrukh*

*Samarkand State University, Kattakurgan branch, Uzbekistan*

**Abstract:** This article presents an analysis of the concept of freelancing and the work of scientists associated with it. Suggestions and recommendations regarding the problems and solutions for developing students' freelance competencies were also made.

**Keywords:** digital technologies, global network, software product, freelancing, motivation, practical skills, competence.

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng ko‘lamda tadbiq etilishi va kompyuter texnologiyalarining takomillashuvi tufayli, ularga mos dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida talabalarning mualliflik dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqishga yo‘naltirishni, ularning motivatsiyasini va ijodiy qobiliyatlarini oshirishni taqozo etadi. Bularni amalga oshirishda talabalarning mualliflik mahsulotlarini tijoratlashtirish orqali erishish maqsadga muvofiq sanaladi. Ya’ni, talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot bugungi kunda dolzARB muammolardan biri sanaladi. Ushbu muammoni yechish uchun dastlab sohaga oid olimlarning tadqiqotlarini tahlil etish lozim degan, xulosaga kelindi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kompyuterning amaliy va instrumental dasturlari yordamida talabalarga dasturiy vositalarni yaratish o‘rgatish nazariyasi va amaliyatiga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanov [1], U.A.Madaminov [2], D.R.Ruziyyeva [3], N.V.Shishlina [4], Y.V.Vaynshteyn [5] kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan. Ushbu olimlarning ishlarida kompyuterning amaliy dasturlari yordamida mualliflik dasturiy vositalarni yaratish o‘rgatishga doir tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, biroq, ularning ishlarida talabalarga mualliflik mahsulotlarini tijoratlashtirishga, ya’ni frilanserlikka o‘rgatishga e’tibor qaratilmagan.

Shuningdek, V.S.Xarchenko [6], V.S.Xarchenko [7]larning ishlarida talabalarning frilanserlikka yo‘naltirish masalalari o‘rganilgan. Ammo, ularning ishlarida talabalarning frilanserlikka yo‘naltirish falsafay jihatdan yondashilgan.

Shu bilan birga N.N.Zaripov [8], Carol Tice [9], Neil Tortorella [9], D.O.Strebkov [10], A.V.Shevchuk [10], N.A.Kora [11]larning ilmiy-metodik maoqlalarida talabalarning frilanserlikka o‘ragatishga oid izlanishlar olib borilgan. Biroq ularning ishlarida keltirilgan manbalar talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirish uchun yetarli darajada emas. Shu bois ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirish dolzARB muammolardan biri sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Raqamli jamiyatda har bir kishi barqaror rivojlanish va daromad topish imkoniyatini yaratadi. Bunda global tarmoq ijrochini cheklamaydigan mablag‘ topishning yangi usullarini taqdim etadi. Global tarmoq mablag‘ topishning yangi usullari sifatida frilanserlikni keltirish mumkin.

Frilanser – bu doimiy ish joyiga bog‘lanmagan holda boshqa insonlar yoki kompaniyalarga o‘z xizmatlarini ko‘rsatadigan shaxsdir. Bunda xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar xoxlagan joyda va vaqtida istemolchiga shartnomaga asosida turli loyihalarni amalga oshiradi.

Shuningdek, freelance (ba’zan free-lans yoki freelance deb yoziladi) yoki frilanser ishchi, odatda o‘zini-o‘zi ish bilan ta’minlovchi va ma’lum bir ish beruvchiga uzoq muddatga bog‘liq bo‘limgan shaxs uchun ishlataladigan atamalardir. Frilanserlik ishchilar ba’zan kompaniya yoki vaqtinchalik agentlik tomonidan taqdim etiladi, ular mijozlarga mualliflik mahsulotlarini qayta sotadi, boshqalar mustaqil ishlaydi yoki ishga kirish uchun professional uyushmalar yoki veb-saytlardan foydalanadi [12, 13].

Mustaqil pudratchi atamasi ingliz tilining boshqa reestrida ushbu turdag'i ishchilarning soliq va bandlik toifalarini belgilash uchun ishlatsa-da, frilanserlik atamasi madaniyat va ijodiy sohalarda eng keng tarqalgan hamda bu atamaning ishlatalishi unda ishtirok etishni ko‘rsatishi mumkin [12].

Frilanserlik haqida gap ketganda har bir foydalanuvchi dasturlash, iqtisod, matematika, ingliz tili va boshqa mutaxassisliklar bo‘yicha topshiriqlarni bajarishdan barqaror daromad topish imkoniyatiga erishadi. Topshiriqlar asosan xalqaro talabalardan olinadi va akademik xarakterga ega. Shuning uchun frilanserlar mijozlarga topshiriqlarni bajarishda yordam berish, usullarni tanlash va ularning mohiyatini tushuntirish kerak. Frilanserlik ustunlik qiladigan sohalar va kasblarga quyidagilar kiradi: musiqa, yozish, aktyorlik, kompyuter dasturlash, veb-dizayn, grafik dizayn, tarjima va illyustratsiya, kino va video ishlab chiqarish hamda ba’zi madaniyat nazariyotchilari kognitiv-madaniy iqtisodiyotda markaziy o‘rin tutadigan boshqa ish shakllari [13]. Ushbu kasblarga ega bo‘lgan shaxslar onlayn mablag‘ topib, samarali natijalarga erishishga va kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirishga erishib kelmoqda. Ammo, axborot texnologiyalari sohasidagi frilanserlik sohasi rivojlanishda biroz orqada qolmoqda.

Bu borada 2012-yilgi Freelance Industry hisobotiga asosan Shimoliy Amerikadagi frilanserlik haqida tuzilgan hisobotga ko‘ra, frilanserlarning deyarli yarmi yozish ishlari bilan shug‘ullanadilar, ya’ni, 18 foizi yozishni asosiy mahorat, 10 foizi tahrirlash / nusxa ko‘chirish ko‘rsatadi. Frilanserlarning 20 foizi o‘zlarining

---

asosiy ko‘nikmalarini dizayn sifatida ko‘rsatdilar. Keyingi o‘rinlarda tarjima (8%), veb-ishlab chiqish (5,5%) va marketing (4%) keltirish mumkin [14].

Ushbu tahlillardan aytish mumkinki, talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligini anglatadi.

**Tahlil va natija.** Yuqorida keltirilgan ta’riflar va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda axborot texnologiyalar sohasida frilanserlarni tayyorlash muhim masalalardan biri sanaladi. Ilgari surilayotgan tadqiqot ham ushbu masalarga qaratilgan bo‘lib, ya’ni talabalarning axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantrishdan iborat.

Tadqiqotga doir mavjud muammolarni aniqlash uchun oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning frilanserlikka oid munosabati va bilim darajasini aniqlash maqsadida dastlab kuzatish ishlarini olib bordik. Kuzatish jarayoni oliy ta’lim muassasalarining axborot texnologiyalari sohasida tahsil olayotgan talabalarning faoliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun talabalardan frilanserlikka oid munosabatini aniqlash maqsadida anketa-so‘rovnomalar o‘tkazdik. Bunda quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- frilanserlika deganda nimani tushunasiz?
- mualliflik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqqanmisiz?
- frilanserlik saytlaridan foydalanganmisiz?
- mualliflik dasturiy mahsulotlarni tijoratlashtirganmisiz?

O‘tkazilgan anketa-so‘rov tahliliga ko‘ra, 87 % talaba frilanserlik tushunchasiga ega emas, 5 % talaba qisqacha tushunchaga ega, 8 % talaba frilanserlikka haqida o‘z fikrlari va qarashlari mavjud. 56 % talaba mualliflik mahsulotlarini ishlab chiqqan, 23 % talaba mavjud mahsulotlarni yaratishni o‘rgangan, 11 % talaba faqat kompyuterning amaliy va instrumental dasturlari bilan ishlash malakasiga ega. 6 % talaba xorijiy frilanserlik saytlari bilan ishlagan, ammo undagi qo‘ylgan amaliy topshiriqlarni bajarmagan, 67 % talabalar xorijiy frilanserlik saytlar haqida bilimga ega, 27 % talaba xorijiy frilanserlik saytlari haqida

ma’lumotga ega emas. Bironta talaba ishlab chiqilgan mualliflik mahsulotlarini tijoratlashtirmagan.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning hamda mavjud oliy ta’lim muassasalaridagi holatlarning tahliliga ko‘ra, talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantrish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi aniqlandi. Bunda quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- talabalar frilanserlik tushunchasiga ega emasligi;
- talabalar frilanserlik saytlaridan foydalanishga oid motivatsiyasi va amaliy ko‘nikmasi yetarli darajada emasligi;
- axborot texnologiyalar sohasida fanlarning mazmuni talabalarning frilanserlikk yo‘naltirishga qaratilmaganligi;
- talabalarning frilanserlikka o‘rgatuvchi metodik ta’minot yetarli emasligi.

Ushbu keltirilgan muammolarni yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- talabalar frilanserlikka oid motivatsiyasini va amaliy ko‘nikmasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalar sohasida tayyorlanadigan mutaxassislarning kasbiy fanlar mazmunining 25 % frilanserlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim;
- talabalarning frilanserlikka o‘rgatuvchi vebga mo‘ljallangan metodik ta’minot ishlab chiqish va joriy etish;
- talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantiruvchi o‘quv-metodik manbalarni salmog‘ini oshirish;
- talabalarning xorijiy frilanserlik veb-saytlardan foydalanish malakasini oshirish;
- talabalarga mualliflik dasturiy mahsulotlarini tijoratlashtirish usullarini o‘rgatish.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarini frilanserlik oid malakasini

oshirish muhim sanaladi. Buni amalga oshirishda, dastlab talabalarning frilanserlikasini kompetentligini rivojlantirish lozim. Buning uchun esa tadqiqot doirasida aniqlangan muammolarni yechimini topishga oid pedagogik tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Madaminov U. A. Elektron ta’lim muhitida fanlarni mobil ilovalar yaratish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish (“Web dasturlashga kirish” fani misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2024. – 48 b.
3. Ruziyeva D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Buxoro, 2023. – 179 b.
4. Шишилина Н.В. Профессиональная подготовка web-дизайнеров на основе дистанционных образовательных технологий (на примере дополнительного профессионального образования) // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Ижевск, 2011. – 22 с.
5. Вайнштейн Ю.В. Педагогическое проектирование персонализированного адаптивного предметного обучения студентов вуза в условиях цифровизации // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Красноярск, 2021. – 46 с.
6. Харченко В.С. Фриланс как стиль жизни в современном российском обществе // Диссертация ... кандидата социологических наук. – Екатеринбург, 2013. – 179 с.

7. Харченко В. С. Фриланс как стиль жизни в современном российском обществе // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. –Екатеринбург, 2013. – 23 с.
8. Зарипов Н.Н. Методика преподавания фриланс деятельности // International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England. May – 2024. – С 7-12. <https://conferencea.org>
9. Carol Tice, Neil Tortorella “Freelance Business Bootcamp How to Launch, Earn, and Grow into a Well-Paid Freelancer” January 21, 2015. – 29 p.
10. Стребков Д. О., Шевчук А. В. Фрилансеры в информационной экономике: как россияне осваивают новые формы организации труда и занятости (по результатам Первой всероссийской переписи фрилансеров) : пре-принт. – М., 2009.
11. Кора Н. А. Проблемы фриланса и их решение // Вестник АмГУ. – Выпуск 100, 2023. – С. 43-46.
12. Hesmondhalgh, David; Baker, Sarah (2010). A very complicated version of freedom: Conditions and experiences of creative labour in three cultural industries. Poetics. **38** (1): 4-20.
13. Scholz, Trebor (2012). Digital Labor. Routledge.
14. Gregg, Tim (14 February 2013). The State of the Freelance Economy. DeskMag. [Archived](#) from the original on 13 May 2013. Retrieved 17 May 2013.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA KOMPYUTER GRAFIKASINI O’QITISH USULI

*Maxsetova Muxabbat Maxsetovna*

*Nukus davlat pedagogika instituti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasini o’qitish muammolari keltirilgan. Shuningdek, umumiy o’rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasini o’qitish tuzilmasi taklif etilgan va uning samaradorligi isbotlangan.

**Tayanch so‘zlar:** kompyuter grafikasi, Vektor, rastr, tuzilma, ijodiy qobiliyat, kompetensiya, Styudent-Fisher, matematik-statistika.

### МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Makhsetova Mukhabbat Makhsetovna*

*Нукусский государственный педагогический институт, Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы преподавания компьютерной графики в общеобразовательных школах. Также предложена структура обучения компьютерной графике в общеобразовательных школах и обоснована её эффективность.

**Ключевые слова:** компьютерная графика, вектор, растр, структура, творческие способности, компетенция, Стьюдент-Фишер, математическая статистика.

### METHODOLOGY OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

*Makhsetova Mukhabbat*

*Nukus State Pedagogical Institute, Uzbekistan*

**Abstract:** This article addresses the challenges of teaching computer graphics in general secondary education schools. Additionally, a structure for teaching computer graphics in general secondary education schools is proposed, and its effectiveness is demonstrated.

**Keywords:** computer graphics, vector, raster, structure, creative ability, competence, Student-Fisher, mathematical statistics.

**Kirish.** Bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasi “Informatika va axborot texnologiyalari” fanning mazmuniga kiritilgan bo‘lib, unda asosan, rastr va vektor grafika obyektlarini qayta ishlash uchun oddiy dasturiy vositalar keltirilgan. Vektor va rastr grafika obyektlarini qayta ishlash uchun dasturiy mahsulotlarning keng assortimenti zamonaviy xizmatlar bozori, birinchidan, o’qituvchilar uchun ma’lum bir dasturiy vositani tanlash zarurati bilan, ikkinchidan, kompyuter grafikasini o’qitish metodikasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab vazifalarni qo‘yadi. Afsuski, umumiy o’rta ta’lim maktabi o‘quvchilari

---

kompyuter grafikasi va unda turli loyihalar ishlab chiqishga qiziqishi qoniqarli darajada emas [1-3].

Biroq, zamonaviy dunyoda kompyuter grafikasi ishlatilmaydigan inson faoliyati sohasini topish qiyin. Kompyuter grafikasi "Informatika va axborot texnologiyalar" fanining yetakchi bo'limlaridan biri bo'lib, u yangi bilimlarni egallash va kompyuter ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining doimiy o'sishi va rivojlanishi tufayli innovatsion ishlanmalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda – shunga mos ravishda bilim darjasи ham o'sishi lozim. Biroq, maktab kutubxonalarida kompyuter grafikasiga oid mavjud katta hajmdagi bosma uslubiy adabiyotlar ma'nан eskirgan [4].

Shuningdek, mavjud o'quv qo'llanmalari o'quvchilarda kompyuter grafikasi obyektlarini qayta ishlash texnologiyasi haqida yaxlit tushuncha g'oyalarini rivojlantirishga imkon bermaydigan eng oddiy materialni taklif qiladi. Barcha o'quv qo'llanmalarida tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ko'paytirishga qaratilgan reproduktiv o'qitish usullari ustunlik qiladi. O'quv jarayoni kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy muammolarini aks ettirishga, kompyuter grafikasi bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalarini kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasida qo'llashga yetarlicha yo'naltirilmaganligi sababli maktab o'quvchilarining kompyuter grafikasig oid qiziqishi susaymoqda. Bu esa ushbu sohada tadqiqotlarni olib borishni va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanov [5], L.S.Isroilova [6], M.Y.Novikov [7], R.V.Kolbin [8]lar tomonidan amalga oshirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter grafikasini o'qitish muammolari va yechimlariga doir izlanishlar L.A.Zalogova [1], A.I.Bashmakov [2], G.N.Dabija [3], X.A.Gerbekov [4], I.T.Xalkecheva [4], A.V.Pavlinov [9], N.G.Shirokova [10], G.V.Ignatyev [11]lar tomonidan tadqiq

---


etilgan. Ushbu olimlarning ishlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq kompyutering grafik dasturlarining takomillashuvi tufayli kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasini qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasining o‘qitishning shakl, usul va vositalarni takomillashtirish lozim. Shu bois tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasidan darslarni tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Taklif etilayotgan tuzilma tashkiliy, asosiy va yakuniy qismdan iborat. Tashkiliy qismda o‘quvchilarga berilgan uyga vazifa Google Classroom platformasi orqali darsgacha bo‘lgan vaqtida qabul qilish nazarda tutilgan. Buning afzalligi shundaki, o‘qituvchi dars vaqtida uyga vazifalarni qabul qilib baholashga vaqt ajratmaydi. Ya’ni, o‘qituvchi o‘quvchilarga berilgan uyga vazifani darsgacha bo‘lgan vaqtida baholaydi. Buning natijasida, vaqt ni tejash asosida yangi mavzuga ko‘proq vaqt ajratishga erishiladi.

Asosiy qismda yangi mavzuni uch bosqichda tushuntirish maqsad qilingan. Birinchi bosqichda o‘qituvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yangi mavzuni tushuntiradi. Ikkinci bosqichda o‘quvchilarga videodarslar taqdim etiladi. Uchinchi bosqichda esa jami bo‘lib amaliy topshiriqlarni bajaradi.

Yakuniy qismda o‘quvchilar bilimi baholanadi. O‘quvchilar bilimini baholashda assesment metodidan foydalaniladi.



**1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter grafikasidan darslarni tashkil etish tuzilmasi**


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida umumiy o'rta ta'lif maktablarida kompyuter grafikasini o'qitish uchun ishlab chiqilgan tuzilmani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasidagi umumiy o'rta ta'lif maktab o'quvchilari jalb etilib, ular tajriba (27 nafar) va nazorat (28 nafar) sinflariga ajratildi. O'quvchilarning tajriba va nazorat sinflariga ajratishda, ularning bilim darajalari bir xillikga alohida e'tibor qaratildi. Jalb etilgan o'quvchilarning tajriba boshidagi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### O'quvchilarning tajriba boshidagi ko'rsatkichlari

Tajriba va nazorat sinfidagi natijalari										
Tajriba sinfi					Nazorat sinfi					
O'quvchilarning umumiy soni	5 (a'llo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O'quvchilarning umumiy soni	5 (a'llo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	
27	3	10	11	3	28	4	8	14	2	

1-jadvalda keltirilgan natijalarining dinamikasini hosil qilamiz (2-rasmga qarang).



2-rasm. O'quvchilarning tajriba boshidagi dinamikasi

Keltirilgan natijalarining tahlilga ko'ra, tajriba va nazorat sinfidagi O'quvchilarning natijalari deyarli bir xil ekanligini ko'rish mumkin.


Tajriba sinfiga ajratilgan o'quvchilarga tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanib kompyuter grafikasiga oid darslar olib borildi. Nazorat sinfiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat sinfiga ajratilgan o'quvchilarning tajriba oxiridagi ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### O'quvchilarning tajriba oxiridagi ko'rsatkichlari

Tajriba va nazorat sinfidagi natijalari										
Tajriba sinfi					Nazorat sinfi					
O'quvchilarning umumiy soni	5 (a'llo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O'quvchilarning umumiy soni	5 (a'llo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	
27	5	13	8	1	28	3	9	13	3	

2-jadvaldagi natijalarini o'zlashtirish dinamikasini quyida keltirilgan (3-rasmga qarang):



3-rasm. O'quvchilarning tajriba oxiridagi dinamikasi

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan o‘quvchilarning natijalari tahlil etilib, ishonchlilagini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba sinfining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 9,6 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida kompyuter grafikasini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanish taklif etiladi. Ushbu tuzilma o‘quvchilarning kompyuter grafikasiga oid ijodiy qobiliyatini oshirishga va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Залогова Л.А. Практикум по компьютерной графике // учеб. пособие / Л.А. Залогова. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2008. – 320 с.
2. Башмаков А.И. Разработка компьютерных учебников и обучающих систем / А.И. Башмаков, И.А.Башмаков. – М.: Филинъ, 2003. – 616 с.
3. Дабижа Г . Н. Компьютерная графика и верстка: CorelDRAW, PhotoShop, PageMaker/. Г .Н. абижа. – СПб. : Питер, 2007. – 271 с
4. Гербеков Х.А., Халкечева И.Т. Изучение компьютерной графики в системе общего образования // RUDN Journal of Informatization in Education. 2017 Vol. 14 No. 4 435—441.
5. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
6. Истроилова Л.С. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларининг компетенцияларини шакллантириш методикасини такомиллаштириш (8-синф информатика ва ахборот технологиялари фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2022. – 48 б.

7. Новиков М. Ю. Обучение информатике в школе на основе мобильных технологий // АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Екатеринбург, 2019. – 24 с.
8. Колбин Р.В. дистанционные образовательные технологии как средство обучения информатике в условиях профильной школы // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Екатеринбург – 2007. – 22 с.
9. Павлинов А.В. Современные компьютерные технологии как средство самостоятельной учебной работы школьников // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова – № 1, 2010. – С. 334-336.
10. Широкова Н.Г. Содержание подготовки учащихся к применению технологий компьютерной графики (на примере профильного курса информатики) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2000. – 19 с.
11. Игнатьев Г.В. Информационные технологии и компьютерная графика в формировании творческой активности у детей с ограниченными возможностями// Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я. Яковлева. 2014.– №3. –С. 45-48.

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### RAQAMLI TA'LIM JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA MAQASADLARI

*Ruziev Raup Axmadovich*

*Navoiy davlat universiteti, dotsent, O'zbekiston*

*Bo'ronova Ozoda Normurodovna*

*Navoiy davlat universiteti, magistr, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limi raqamlashtirishni zamonaviy masalalarini uslubiy va me'yoriy jihatlari ta'lim jarayonini raqamli o'zgartirish asoslari sifatida ko'rib chiqildi, maqsadlar va uni amalga oshirish vazifalari shakllantirildi.

**Tayanch so'zlar:** raqamli texnologiya, axborot komponenti, elektron axborot- ta'lism, vebinlar, onlayin, inyerfaol, kompitenysiya.

### ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ЦЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

*Ruziev Raup Axmadovich*

*Навоийский государственный университет, доцент, Узбекистан*

*Боронова Озода Нормуродовна*

*Навоийский государственный университет, магистр, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье рассматриваются методологические и нормативные аспекты современных проблем цифровизации образования как основы цифровой трансформации образовательного процесса, формулируются цели и задачи ее реализации.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, информационная составляющая, электронное информационное обучение, вебинар, онлайн, интерактив, компетентность.

### PEDAGOGICAL CONTENT AND OBJECTIVES OF FORMING THE DIGITAL EDUCATIONAL PROCESS

*Ruziev Raup*

*Navoi State University, Associate Professor, Uzbekistan*

*Boranova Ozoda*

*Navoi State University, Master's degree, Uzbekistan*

**Abstract:** The article examines the methodological and regulatory aspects of modern problems of digitalization of education as the basis for the digital transformation of the educational process, formulates the goals and objectives of its implementation.

**Keywords:** digital technologies, information component, electronic information training, webinar, online, interactive, competence.

**Kirish.** Kishilik jamiyatining tabiiy rivojlanishi natijasida ta'limi raqamlashtirish va ta'lim sohasi, ijtimoiy xizmatlar sohasi sifatida tushunish va izlanishni talab qiladigan tez o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Tashqi omillar ta'sirida va birinchi navbatda raqamli texnologiyalarning deyarli universal joriy etilishi tufayli, rivojlanayotgan global ta'lim makonida sodir bo'layotgan

o'zgarishlarga moslashish va uzlusiz ta'lif uchun sharoit yaratib, uni innovatsion o'zgartirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Ma'lumki, raqamlashtirish o'z evolyutsiyasida ma'lum bir tarixiy yo'lni bosib o'tdi, bu barcha bosqichlarda iqtisodiyotning turli sohalarida keng ko'lamli jarayonlar bilan bog'liqdir.

Bugun biz allaqachon tan olishimiz mumkinki, raqamlashtirish tufayli: dunyo manzarasi, individual o'zgarishlarning roli va imkoniyatlari; shaxsning motivatsion-qiyamatli munosabatlari va axloqiy fazilatlari roli oshib bormoqda.

Shunday qilib, bu jarayonlarning barchasi ta'lif muassasalaridan nafaqat jadal rivojlanayotgan ta'lif vositalari va texnologiyalarini doimiy ravishda o'zlashtirish va joriy etishni, balki ta'lif jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ichki va tashqi muhit bilan o'zaro munosabatda tegishli tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rishni talab qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Buningi kunda ta'lif sohasidagi raqamli transformatsiya tushunchasi respublikamiz va xorijiy davlatlarning quyidagi bir qator olimlari tomonidan ko'rib chiqilganligini e'tirof etish mumkin. Jumladan, N.I.Taylakov[1], M.X. Lutfullayev[2], U.Mirsanov[3], R.Ruziev[4] va boshqalar ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha, X.Junhong[5], S. Ramanauskaite[6], B.Basich[7] kabilar ta'lif muassasalarining elektron axborot-ta'lif muhitini tashkil qilish muammolarga oid, elektron axborot-ta'lif resurslarini tashkil qilish metodlari va texnologiyalariga bag'ishlangan M. Spante[8], E.F.Zeep[9], J.K.Sagaliyeva[10] kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Pedagogik faoliyatning elementi sifatida ta'lifning muhim xususiyati shundaki, u inson madaniyatining axborot quyi tizimini tashkil etuvchi bilimlar tizimidir. Agar ta'lifni pedagogik faoliyatning alohida turi deb hisoblasak, modernizatsiya jarayonida uning barcha elementlari o'zgarishi mumkin. Agar biz faqat pedagogik faoliyatning axborot komponenti haqida gapiradigan bo'lsak, unda ta'lif olish jarayonida uni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni raqamli

tarkibga o‘tkazish juda mantiqiyidir. Bu jarayon davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan raqamli ta’lim muhitini yaratishni va samarali foydalanishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini tubdan yangi jarayonga olib chiqishga va keng ko‘lamli talim muammolarini hal qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Natijaga, analog axborot texnologiyalaridan raqamli texnologiyalarga jadal o‘tish zamonaviy jamiyatning barcha jabhalari, jumladan, ta’lim sohasida ham bir pog‘ona ko‘tarilishiga olib keldi. Buning hisobida, ta’lim sohasida axborotning o‘zaro ta’siri paradigmida o‘zgarishlar yuz berdi:

- o‘quv materialining chiziqli bo‘lmagan va gipermatnli taqdimoti;
- o‘quv faoliyati turlari va o‘quv jarayoni subyektlari o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’siri doirasini kengaytirish;
- talabalarning mustaqilligini oshirish;
- analitik o‘rganish va tushunishga urg‘u berish;
- ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ta’lim natijalari uchun mas’uliyatini oshirish.

Shunday qilib, ta’limni raqamlashtirishdan asosiy maqsad ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Raqamli yechimlar mashg‘ulot vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi, ko‘plab muntazam jarayonlarni avtomatlashtirishi va mashg‘ulotlarni yanada interaktiv va qiziqarli qilishi mumkin. Misol uchun, testlar, simulyatsiyalar va videolarni joriy qilish orqali o‘quv jarayoni haqiqiy ish muhitida foydali bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarga boy jarayoga aylanadi.

Ushbu raqamli ta’lim jarayonini shakllantirish va rivojlantirish omillari o‘quvchi-talabaga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytiradi va o‘quv jarayonini individuallashtirish, faollashtirish va intensivlashtirish bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalari.** Yuqorida qayd etilgan paradigmatic o‘zgarishlar ta’lim jarayonining uzluksizligini, ya’ni umrbod ta’lim deb ataluvchi ta’limni, shuningdek, uni ilg‘or ta’lim texnologiyalari asosida individuallashtirish, ta’limni epizodik

---

tarkibiy qismdan doimiyga – insonning butun umri davomida o‘zgartirish imkonini berdi.

Bu jarayonlarning barchasi ta’lim muassasalaridan nafaqat jadal rivojlanayotgan ta’lim vositalari va texnologiyalarini doimiy ravishda o‘zlashtirish va joriy etishni, balki kasbiy ta’lim va tarbiya ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ichki va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatda tegishli tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rishni talab qiladi.

Shu bois, ta’lim jarayonini raqamlashtirish tufayli ayta olishimiz mumkinki, bunda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqada, nazorat-o‘lchov materiallarini, o‘quv natijalarini o‘z-o‘zini nazorat qilish vositalari va usullarini avtomatlashtirishda darhol qayta aloqa qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘quv materialini taqdim etish shakllari va tuzilishi o‘zgardi.

Ta’lim jarayonining uzlusizligini ta’minalash life-long-learning- butun umr davomida ta’lim, shuningdek, ta’limni individuallashtirish asosida advanced-learning technologies - ilg‘or ta’lim texnologiyalari inson hayoti davomida ta’limni epizodik tarkibiy qismdan doimiyga aylantiradi.

Shunday qilib, ta’limni raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochib beradi. Keling, o‘quv jarayonida faol qo‘llaniladigan asosiy usullar va yo‘nalishlarni ko‘rib chiqaylik. Raqamlashtirish usullari:

**-onlayn kurslar va vebinarlar.** Bu eng mashhur usullardan biridir. Foydalanuvchilar o‘zlariga qulay vaqtda, uyidan yoki ish xonasidan chiqmasdan o‘qishlari mumkin. Veb-seminarlar o‘qituvchi bilan real vaqt rejimida muloqot qilish, savollar berish va tezkor javoblarni olish imkonini beradi;

**- mobil ta’lim.** Mobil ilovalar yordamida talabalar o‘quv materiallariga bevosita kirishlari mumkin. Bu ko‘pincha yo‘lda yoki uzoq masofada bo‘lganda qulaydir. Mobil kurslar video darslar, testlar va interaktiv topshiriqlarni o‘z ichiga olishi mumkin;

**-interfaol platformalar.** O‘rganish uchun maxsus onlayn platformalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Platformalar qo‘yilgan

topshiriqlarni (o‘yinlarni-agar shu ko‘rinishda tashkil qilingan bo‘lsa) o‘zgartirish, virtual simulyatsiyalar va o‘rganishni yaxshilashga yordam beradigan boshqa vositalarni taklif qilishi mumkin;

- **videoma’ruzalar.** Bu istalgan vaqtida ko‘rish mumkin bo‘lgan ma’ruza yozuvlari. Videoma’ruzalar talabalarga biror narsani tushunmasa yoki o‘z bilimlarini chuqurlashtirishni xohlasa, materialni ko‘rib chiqish imkonini beradi;

- **elektron o‘quv materiallari.** Elektron formatdagi darsliklar, maqolalar va taqdimotlar dolzarb ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi va kurs mazmunini yangilashni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, qoidalar va standartlar o‘zgarishi mumkin bo‘lgan jarayonlarda muhimdir;

- **Sinov va baholash.** Onlayn testlar va topshiriqlar talabalarning bilimini tezda baholash imkonini beradi. Bu ularning rivojlanishini kuzatish va qo‘sishimcha e’tibor talab qiladigan sohalarni aniqlash imkonini beradi;

- **ijtimoiy ta’lim.** O‘quv mavzularini muhokama qilish uchun onlayn jamoalar va forumlar yaratish o‘quvchi-talabalarga tajriba va bilim almashishga yordam beradi. Bu jamoaviy rujni mustahkamlaydi va hamkorlikda o‘rganishga yordam beradi;

**-moslashuvchan ta’lim.** Bu usul o‘quvchilarining taraqqiyoti va qiyinchiliklarini tahlil qiluvchi, shaxsiylashtirilgan ta’lim yo’llarini taklif qiluvchi algoritmlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv har bir o‘quvchining vaqtidan unumli foydalanish imkonini beradi.

Ta’limni raqamlashtirishning usul va yo‘nalishlari nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki uni zamonaviy ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi hamda samaradorligini ta’minlaydigan turli dasturlarni taklif etadi.

Raqamli ta’lim jarayonini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchilarga quyidagi komponentlar kerak bo‘ladi:

-raqamli texnologiyalarning tamoyillari va imkoniyatlarini tushunish: bolajak o‘qituvchi turli raqamli vositalar qanday ishlashi va ulardan o‘qitishda qanday foydalanish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;

-axborot-ta’lim resurslardan foydalanish: ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish tegishli resurslardan foydalanishni talab qiladi;

-o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash: o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari uchun malaka ko‘nikmalarini oshirishga ehtiyoj zarurligi inobatga olinadi. Bundan tashqari, ular yuzaga keladigan muammolarni hal qilishlari va savollariga javob olishlari uchun imkoniyat berish;

-ishonch va motivatsiyani rivojlantirish: o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga ishonch hosil qilishlari kerak. Ular o‘quv jarayonini yaxshilash va o‘quv maqsadlariga erishish uchun ushbu texnologiyalardan foydalanishga intilishlari kerak;

– amaliyat: o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyat va tajribani talab qiladi. Pedagoglar turli raqamli vositalarni amalda qo‘llash va sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak, ular qanday ishlashini va o‘qitishda ulardan qanday foydalanish mumkinligini tushunishlari kerak;

- mulohaza: talabalar o‘zlarining amaliy faoliyati natijalarini muntazam ravishda tahlil qilishlari kerak. Ular o‘z tajribalarini tahlil qila olishlari va raqamli muhitda ish faoliyatini yaxshilash yo‘llarini izlashlari kerak.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishi kerak. Ular ushbu texnologiyalardan foydalanishga rag‘batlantirilishi va zarur resurslar yordamga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, o‘z faoliyatini muntazam ravishda ko‘rib chiqishlari va raqamli muhitda o‘z ishlarini yaxshilash yo‘llarini izlashlari kerak. Shunday qilib, biz muayyan pedagogikni shakillanishida zamonaviy texnologik vositalardan foydalanishga shart-sharoitlarni yaratishga ma’sul bo‘lishimiz kerak.

**Xulosa va takliflar.** Biz izlanishlarimiz davomida talabalarning raqamli kompetensiyalarini aniqlashning ilmiy va uslubiy yondashuvlarini, ularni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarining mazmuni va tuzilishini tahlil qildik. Bizning fikrimizcha, raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning maqbul

pedagogik shartlari ehtiyojlarni tahlil qilish va maqsadlarni aniqlash, ta’lim dasturini yaratish, o‘qitishni tashkil etish, innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish, raqamli madaniyatni rivojlanadirish, natijalarni baholash va ta’lim dasturini moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Yangi rivojlanayotgan jamiyatga mos ta’lim dasturini ishlab chiqish bosqichida bilim oluvchilarning raqamli kompetentsiyalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv birliklarini ifodalovchi maxsus kurslar va darslar belgilanib borilishi zarur. Har bir kursning maqsadi, vazifalari, mazmuni va o‘qitish usullari aniq shakllantirilgan bo‘lishi kerak bu esa yangi raqamli kompetensiyalarini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llab-quvvatlanishida muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. Tailakov N.I. Scientific and pedagogical basis for creating a new generation of educational literature in computer science for lifelong education. - T : National Encyclopedia of Uzbekistan, 2005.160 p.
2. Lutfullayev M.X. Pedagogik dasturiy vositalar va ulardan multimediyali elektron darsliklar yaratishda foydalanish.. // Xalq ta’limi. T., 2002. -№ 6. -b. 99-101.
3. Mirsanov U. and others. Effective methods for organizing laboratory sessions in programming language courses// AIP Conf. Proc. 3268, 070020 (2025). <https://doi.org/10.1063/5.0257142>
4. Ruziev R. and others. Basics of Developing the Competence of Future Computer Science Teachers Using Digital Technologies// Proceedings of the IV International Conference on Advances in Science, Engineering, and Digital Education. AIP Conf. Proc. 3268, 070022-1–070022-5(2025); <https://doi.org/10.1063/5.0257131>
5. Junhong Xiao Digital transformation in higher education: critiquing the fiveyear development plans (2016–2020) [Electronic resource]. – Mode of access: <https://doi.org/10.1080/01587919.2019.1680272>. – Date of access: 12.03.2022.
6. Ramanauskaite S., Slotkiene A. Hierarchy-Based Competency Structure and Its Application in E-Evaluation [Electronic resource]. – Mode of access<https://www.mdpi.com/2076-3417/9/17/3478>. – Date of access: 10.01.2021

7. Васич В., Сардарова З., & Кисметова Г. (2024). Цифровая трансформация высшего образования: вызовы времени. *Вестник КазНУ. Серия педагогическая*, 81(4), 54–64. <https://doi.org/10.26577/JES2024v81.i4.5>
8. Spante M. Digital competence and digital literacy in higher education research: Systematic review of concept use / M. Spante, H. S. Sofkova, M. Lundin, A. Algers // Cogent Education. — 2018. — Vol. 5, №1. — P. 1-2
9. Зеер Э. Ф. Готовность преподавателей вуза к онлайн-образованию: цифровая компетентность, опыт исследования / Э. Ф. Зеер, Н. В. Ломовцева, В. С. Третьякова // Педагогическое образование в России. — 2020. — № 3. — С. 26–39.
10. Сагалиева Ж. К. Цифровая педагогика в образовательном пространстве: учеб. пос. / Ж. К. Сагалиева, М. Д. Есекешова, А. А. Жусупова, Э. Ш. Кочкорбаева. — Алматы: Бастау, 2020. — 388 с

## ***Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari***

### **O’QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARSDAN TASHQARI O’QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MODELI**

*Shomurotova Xurshida Baxtiyorovna*

*Navoiy davlat universiteti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarining darsdan tashqari o’quv faoliyatini tashkil etish muammolari keltirilgan. Shuningdek, o’quvchilarning biologiya fanidan darsdan tashqari o’quv faoliyatini tashkil etish modeli va uning samaradorligi keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** darsdan tashqari o’quv faoliyat, model, raqamli texnologiya, ta’lim texnologiyasi, tamoyil, baholash mezoni.

### **МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУРОЧНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО БИОЛОГИИ**

*Шомуротова Хуршида Бахтиёрова*

*Навоийский государственный университет, Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы организации внеурочной учебной деятельности учащихся общеобразовательных школ. Также представлена модель организации внеурочной учебной деятельности учащихся по биологии и приведены данные о её эффективности.

**Ключевые слова:** внеучебная деятельность, модель, цифровые технологии, образовательная технология, принцип, критерии оценки.

### **MODEL OF ORGANIZATION OF STUDENTS' EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN BIOLOGY**

*Shomurotova Khurshida*

*Navoi State University, Uzbekistan*

**Abstract:** This article addresses the challenges of organizing extracurricular learning activities for general secondary education school students. Additionally, it presents a model for organizing students' extracurricular educational activities in biology and discusses its effectiveness.

**Keywords:** extracurricular learning activities, model, digital technology, educational technology, principle, assessment criteria.

**Kirish.** Umumiy o’rta ta’lim maktablarida 40 daqiqa dars mashg’ulotlari olib boriladi. Bunda o’quvchi mavzularning ba’zi bir qismini o’zlashtira olmasligi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o’quvchilarning darsdan tashqari o’quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish lozim [1].

O’quvchilarning darsdan tashqari o’quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish zamoanaviy ta’lim texnologiyalardan, shu jumladan raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Chunki raqamli ta’lim


---

texnologiyalari yordamida biologik jarayon va hodisalarining vizual shaklda taqdim etish imkonini taqdim etadi [2].

Shuningdek, o‘quv materialini ko‘rgazma shaklida taqdim etish, mustaqil tayyorgarlikning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘lib, biologiya fanning o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani shakllantirishga, asosiy bilimlarni egallashga, ularni tizimlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga o‘quv-uslubiy yordamlashishga, o‘zini-o‘zi nazorat qilishi uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga biologiya fanning nazariy asoslarini yanada samarali o‘zlashtirishga, fanga nisbatan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun avvalo, darsdan tashqari o‘quv faoliyatining tashkil etish modelini ishlab chiqish lozim.

**Adabiyotlar tahlili.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiyani o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlariga oid tadqiqotlar M.M.Isabayeva [3], T.A.Bespamyatnix [4], N.B.Firsova [5], A.A.Bogomolova [6] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalari voistalalaridan foydalanish metodikasi, o‘quvchilarning sinfdan va darsdan tashqari o‘quv faoliyatida biologiyani elektron ta’lim resurslar asosida o‘qitish texnologiyalariga oid tadqiqotlar T.I.Krilova [7], Ye.S.Gladkaya [8], Y.A.Komarov [9], V.A.Smirnova [10], L.M.Qaraxonova [11], M.N.Ibodova [12], Sh.B.Xasanova [90] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ushbu olimlarning ishlarida o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda ushbu tadqiqotlarni takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Chunki raqamli texnologiyalar va kompyuterning zamonaviy dasturiy vositalari paydo bo‘lishi tufayli, biologiya fanini o‘qitishning yangicha yondashuvlari paydo bo‘lmoqda.



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etish modeli

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shu bois tadqiqot doirasida o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Taklif etilayotgan model umumiyligi o‘rtalim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Ushbu model tashkili, texnologik, tahlil va nazorat qismlaridan iborat.


Tahlil va natijalar. Umumiyligi o‘rtalim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish modelini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga Navoiy viloyatidagi umumiyligi o‘rtalim maktab o‘quvchilari jalb etilib, ular tajriba (94 nafar) va nazorat (95 nafar) sinflariga ajratildi. Tajriba sinfiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan model yordamida biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyat tashkil etildi. Nazorat sinfiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat guruhiга ajratilgan Umumiyligi o‘rtalim maktabi o‘quvchilarining tajriba boshi va oxiridagi ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval

##### Umumiyligi o‘rtalim maktabi o‘quvchilarining tajriba boshi va oxiridagi ko‘rsatkichlari

O‘zlashtirish darajalari	Tajriba sinfi		Nazorat sinfi	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
A’lo	8	14	9	8
Yaxshi	29	49	27	28
Qoniqarli	50	29	53	52
Qoniqarsiz	7	2	6	7

Ushbu 1-jadvaldagi umumiyligi o‘rtalim maktabi o‘quvchilarining tajriba oxiridagi natijalarini o‘zlashtirish dinamikasi quyida keltirilgan (2- rasmga qarang):



**2-rasm. Umumi o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari**

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan o‘quvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchlilikini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$ , tarqoqlik koeffitsiyentlarini  $D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$ , formulalaridan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba sinfining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatgichi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 10,2 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, umumi o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda tadqiqot doirasida taklif etilgan model samarali ekanligi aniqlandi. Shuning uchun o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishda tadqiqot doirasida taklif etilgan modeldan foydalanishni tavsiya etamiz.

### Adabiyotlar

- Мирсанов У.М. Умумий ўрта таълим мактабларида математикани амалий дастурлар ёрдамида ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси (5–

---

6-синфлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 190 б.

2. Жанзаков А.Б. Умумтаълим мактабларида география фанини ахборот технологиялари воситасида ўқитиш механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2021. – 143 б.

3. Исабаева М. М. Биологияни ўқитишида ўқувчиларда соғлом турмуш тарзи кўникмаларини таркиб топтириш тизими (5–9-синфлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. – Тошкент, 2020. – 49 б.

4. Беспамятных Т.А. Методика учебно исследовательской работы учащихся при углубленном изучении общей биологии // Автореферат дис. ... на.к.п.н. – СПб.: РГПУ. Академ-Принт, 2002. – 20 с.

5. Фирсова Н.Б. Повышение качества обучения биологии на основе организации природоохранной деятельности учащихся // Автореф. дис.... канд. пед. наук. – Астрахань, 2009. – 20 с.

6. Богомолова А.А. Системный подход к изучению мира живой природы в курсе биологии 6-7 классов общеобразовательной школы // Дис. ... канд. пед. Наук. – Москва, 2006. – 284 с.

7. Крылова Т.И. Средства современных информационно-коммуникационных технологий в организации домашней работы по биологии // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2010. – 18 с.

8. Гладкая Е.С. Методика использования современных компьютерных технологий обучения в преподавании общей биологии учащимся 9 классов общеобразовательной школы // Дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 2006. – 195 с.

9. Комаров Ю.А. Методическое обеспечение дистанционного обучения биологии детей с ограниченными возможностями здоровья и сохранным

---

интеллектом // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2014. – 18 с.

10. Смирнова В.А. Методика формирования познавательных учебных действий в процессе обучения биологии в предметной информационно-образовательной среде // Автореф. дисс. ... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Москва, 2019. – 24 с.

11. Қарахонова Л.М. Биологияни ўқитишида электрон таълимий ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (7-синф мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 46 б.

12. Ибодова М.Н. Биологиядан ўқувчиларнинг мустақил ишларини ахборот ресурслари воситасида такомиллаштириш методикаси (Академик лицейлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 49 б.

13. Хасанова Ш.Б. Интегратив ёндашув асосида ўқувчиларда таянч ва фанга оид хусусий компетенцияларини шакллантириш методикаси (9-синф, биология фанини ўқитиши мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 52 б.

## ***Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari***

### **O’QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARSdan TASHQARI O’QUV FAOLIYATINI WEB-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI**

*Teshayeva Mohinur Sayfullo qizi*

*Navoiy davlat universiteti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarining darsdan tashqari o’quv faoliyatini axborot texnologiyalar asosida tashkil etish bo’yicha olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Shuningdek, o’quvchilarning biologiya fanidan darsdan tashqari o’quv faoliyatini web-texnologiyalar asosida tashkil etish tuzilmasi va uning amaliy samaradorligi keltirilgan.

**Tayanch so’zlar:** darsdan tashqari o’quv faoliyat, web-texnologiya, Web-kvest ta’lim, elektron ta’lim resurs, tuzilma, Styudent-Fisher.

---

### **МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУРОЧНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ВЕБ-ТЕХНОЛОГИЙ**

*Тешаева Мохинур*

*Навоийский государственный университет, Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье проанализированы исследования ученых по организации внеурочной учебной деятельности учащихся общеобразовательных школ на основе информационных технологий. Также представлена структура организации внеурочной учебной деятельности учащихся по биологии на основе веб-технологий и ее практическая эффективность.

**Ключевые слова:** внеурочная учебная деятельность, веб-технология, веб-квест обучение, электронный учебный ресурс, структура, критерий Стьюдента-Фишера.

---

### **METHODOLOGY FOR ORGANIZING STUDENTS’ EXTRACURRICULAR LEARNING ACTIVITIES IN BIOLOGY BASED ON WEB TECHNOLOGIES**

*Teshayeva Mohinur*

*Navoi State University, Uzbekistan*

**Abstract:** This article analyzes the research of scholars on organizing extracurricular learning activities of secondary school students based on information technologies. Additionally, the structure of organizing students’ extracurricular learning activities in biology using web technologies and its practical effectiveness are presented.

**Keywords:** Extracurricular learning activity, web technology, web-quest education, electronic learning resource, structure, student-Fisher.

**Kirish.** Umumiy o’rta ta’lim maktablarida biologiya ta’limi samaradorligini oshirish uchun o’qitishning shakl, usul va vositalari bilan birlgilikda darsdan tashqari o’quv faoliyati ham muhim ahamiyatga ega [1, 2, 3]. Chunki darsdan tashqari o’quv faoliyatda darsliklarda berilgan manbalar bilan birga qo’shimcha adabiyotlarni o’rganish imkoniyatiga ega bo’ladi [4, 5, 6, 7]. Shuning uchun o’quvchilarning fanlardan, shu jumladan biologiya fanidan darsdan tashqari o’quv faoliyatini tashkil


---

etishga alohida e’tibor qaratish lozim [8, 9, 10, 11]. Shu bois, tadqiqot doirasida o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishda web-texnologiyalardan foydalanish g‘oyasi ilgari surilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanov [1], A.B.Jonzakov [2], U.K.Taylakov [3], L.S.Isroilova [4], A.S.Volovodenko [5], S. G.Kovaleva [6], V. V.Knyajeva [7] kabi olimlarning ishlarida keltirilgan. Ushbu olimlarning ishlarida turli fanlardan o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishda elektron ta’lim resurslardan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Ammo ularning ishlarida o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatiga e’tibor qaratilmagan. Shu bilan birga M.N.Ibodova [8], L.M.Qaraxonova [9], T.I.Krilova [10], Ye.S.Gladkaya [11] ning ishlarida o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatida elektron ta’lim resurslardan foydalanish metodikasi keltirilgan. Biroq, ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishda web-texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratilmagan. Shu bois ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Olib borilgan izlanishlar asosida, tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Ushbu taklif etilayotgan tuzilma umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini web-texnologiyalar asosida tashkil etishga qaratilgan. Tuzilma to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda o‘quvchilarining biologiya fanidan motivatsiyasini oshirishga, ikkinchi bosqichda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga, uchinchi bosqichda mantiqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga va to‘rtinchi bosqichda ijodiy qobiliyatini oshirishga qaratilgan.



**1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish tuzilmasi**

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish

tuzilmasini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy viloyatidagi umumiy o‘rtta ta’lim mакtab o‘quvchilari jalg etilib, ular tajriba (63 nafar) va nazorat (62 nafar) sinflariga ajratildi. Umumiy o‘rtta ta’lim mакtabi o‘quvchilarining tajriba va nazorat sinflariga ajratishda turli xil baholash usullaridan foydalanildi (og‘zaki, yozma, test, laboratoriya topshiriqlari. Ularning tajriba boshidagi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval Umumiy o‘rtta ta’lim mакtabi o‘quvchilarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Tajriba va nazorat sinflaridagi o‘quvchilarining olgan baholari										
Tajriba sinfi					Nazorat sinfi					
O‘quvchilarining umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O‘quvchilarining umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	
63	6	19	33	5	62	5	21	32	4	


1-jadvalda keltirilgan natijalarining tahlilga ko‘ra, tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarining natijalari deyarli bir xil ekanligini ko‘rish mumki.

Ushbu tajriba sinfiga ajratilgan o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyat tadqiqot doirasida taklif etilayotgan tuzilmadan foydalanib tashkil etildi. Nazorat sinfiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat guruhiga ajratilgan o‘quvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

#### 2-jadval Umumiy o‘rtta ta’lim mакtabi o‘quvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

Tajriba va nazorat sinflaridagi o‘quvchilarining olgan baholari										
Tajriba sinfi					Nazorat sinfi					
O‘quvchilarining umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O‘quvchilarining umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	
63	9	31	21	2	62	5	19	34	4	

2-jadvaldagi, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining tajriba oxiridagi natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini quyida keltirilgan (2- rasmga qarang):



**2-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari**

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan o‘quvchilarning natijalari tahlil etilib, ishonchlilikini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba sinfining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 8,5 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda web-texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuning uchun tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining biologiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda web-texnologiyalardan foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tuzilma yordamida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish asosida global tarmoqdan samarali foydalanishga va biologiya fanini mustaqil o‘rganish imkoniyatini beradi.

## Adabiyotlar

1. Мирсанов У.М. Умумий ўрта таълим мактабларида математикани амалий дастурлар ёрдамида ўқитиши самарадорлигини ошириш методикаси (5–6-синфлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 190 б.
2. Жанзаков А.Б. Умумтаълим мактабларида география фанини ахборот технологиялари воситасида ўқитиши механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2021. – 143 б.
3. Тайлаков У.К. Ўқувчиларнинг дарсдан ташқари ўқув фаолиятини ташкил этиши методикасини такомиллаштириш (10-синф «информатика ва ахборот технологиялари» фанини ўқитиши мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент , 2022. – 149 б.
4. Истроилова Л. С. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларининг компетенцияларини шакллантириш методикасини такомиллаштириш» (8-синф информатика ва ахборот технологиялари фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Чирчиқ, 2022. – 159 б.
5. Воловоденко А. С. Самостоятельная Учебная деятельность старшеклассников профильной школы на основе комплекса мультимедийных дидактических средств//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Омск – 2009. 24 с.
6. Ковалева С. Г. Внеклассная работа по физике как средство обучения учащихся умению применять знания // Автореферат Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2004. – 20 с.
7. Княжева, В. В. Педагогические приемы выбора и моделирования новых форм внеклассных мероприятий / В. В. Княжева. — Текст : непосредственный

---

// Проблемы и перспективы развития образования : материалы VIII Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, февраль 2016 г.). — Краснодар : Новация, 2016. — С. 227-231. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/187/9506/> (дата обращения: 27.03.2025).

8. Ибодова М.Н. Биологиядан ўқувчиларнинг мустақил ишларини ахборот ресурслари воситасида такомиллаштириш методикаси (Академик лицейлар мисолида)//Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 49 б.

9. Каражонова Л.М. Биологияни ўқитишида электрон таълимий ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (7-синф мисолида)//Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 46 б.

10. Крылова Т.И. Средства современных информационно-коммуникационных технологий в организации домашней работы по биологии // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2010. – 18 с.

11. Гладкая Е.С. Методика использования современных компьютерных технологий обучения в преподавании общей биологии учащимся 9 классов общеобразовательной школы // Дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 2006. –195 с.

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM MUHITLARINING AMALIY SAMARADORLIGI

**Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich**

Navoiy davlat universiteti, professor, O'zbekiston

**Tilovov Shuxrat Azamatovich**

O'zbekiston-finlandiya pedagogika instituti, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lmini tashkil etishda ta'lim muhitlaridan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar berib o'tilgan. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lmini tashkil etishda ta'lim muhitlarini amaliy samaradorligi asoslangan.

**Tayanch so'zlar:** raqamli texnologiya, axborot-ta'lim muhiti, ta'lim portalı, veb-sayt, mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv, Sytudent-Fisher.

### ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕД В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Мирсанов Уралбай Мухаммадиевич**

Навоийский государственный университет, профессор, Узбекистан

**Тиловов Шухрат Азаматович**

Узбекско-Финский педагогический институт, Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию образовательных сред в организации самостоятельного обучения будущих учителей начальных классов. Также обоснована практическая эффективность образовательных сред в организации самостоятельного обучения будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, информационно-образовательная среда, образовательный портал, веб-сайт, логический, алгоритмический, креативный, когнитивный, Стьюдент-Фишер.

### PRACTICAL EFFECTIVENESS OF EDUCATIONAL ENVIRONMENTS IN ORGANIZING SELF-DIRECTED LEARNING FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

**Mirisanov Uralboy**

Navoi State University, professor, Uzbekistan

**Tilovov Shuhrat**

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Uzbekistan

**Abstract:** This article presents suggestions and recommendations for using learning environments in organizing independent learning for future primary school teachers. The practical effectiveness of educational environments in organizing independent learning for future primary school teachers has also been substantiated.

**Keywords:** digital technologies, information and educational environment, educational portal, website, logical, algorithmic, creative, cognitive, Student-Fisher.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalarining ta’lim jarayoniga faol joriy etilishi tufayli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish shakl, usul va vositalarini takomillashtirish muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish yo‘llaridan biri, sohaga oid olib borilgan olimlarning tadqiqotlarini tahlil etish asosida global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limga oid veb-saytlardan foydalanishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar G. A.Vorobyov [1], O.V.Vishtak [2], I.V.Geopge [3], L.M.Ivkina [4], N.V.Mixaylova [5], A.D.Ongarbayeva [6], N.A.Kayumova [7], U.B.Baxodirova [8], G.V.Sharapova [9], D.T.Yaxshiboyeva [10], M.A.Tursunov [11], H.R.Shodiyev [12], R.T.Auyezova [13] kabi olimlar tomonidan amalgalashirilgan. Ushbu olimlarning ishlarini tahlilga ko‘ra, bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda va zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda ta’lim muhitlaridan foydalanish lozim, degan xulosaga kelindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Global tarmoqning manzillarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirish va darslarni raqamli ta’lim vositalari asosida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhitlar, bulutga asoslangan platformalar va ta’limga oid veb-saytlar mavjud bo‘lib, undan oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonida samarali foydalilib kelinmoqda. Bularga misol sifatida Prezi, Canva, visme, PlayPosit, renderforest, mentimeter, Socrative, audience.ahaslides, Ispring, Online Test Pad, Hot Potatoes, quizizz, wordwall, Quizlet, ClassTools, ClassTools, get.plickers, Learningapps, ppinventor.mit, kodular.io, slidesgo, work-zilla kabi ta’lim muhitlarini keltirish mumkin. Ushbu ta’lim muhitlarning imkoniyatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

### Ta’lim muhitlari va ularning imkoniyati

T/r	Nomi	Imkoniyati
1.	Prezi, Canva, visme, powtoon	Turli darajadagi taqdimotlarni yaratishga mo‘ljallangan onlayn platformalar. Ushbu platformalar yordamida turli taqdimotlarni ishlab chiqish va bulutda saqlash mumkin.
2.	PlayPosit, renderforest, mentimeter	Interaktiv va vebga mo‘ljallangan videodarslarni, animatsiyalar, slayd-shoular, interaktiv so‘rovnomalar yaratishga mo‘ljallangan muhitlar hisoblanadi.
3.	Socrative, audience.ahaslides	Onlayn viktorinalarni o‘tkazishga mo‘ljallangan ta’lim platformalari hisoblanadi. Ushbu muhitlar yordamida turli darajadagi viktorinalar o‘tkazish imkonini beradi.
4.	Ispring, Online Test Pad, Hot Potatoes, quizizz, wordwall	Onlayn baholashga va bilimlarni sinab ko‘rishga mo‘ljallangan muhitlar hisoblanib, bunda turli darajadagi testlar, so‘rovnomalar, krossvord, mantiqiy o‘yinlarni loyihalash imkoniyati mavjud. Ushbu muhitlar bir necha turdagи mashqlarni birlashtirish uchun murakkab vazifa konstruktorini taqdim etadi.
5.	get.plickers	Maxsus kartalar yordamida turli darajadagi testlarni tayyorlashga mo‘ljallangan veb-sayt.
6.	Quizlet	Mobil va internetga asoslangan o‘quv ilovasi bo‘lib, talabalarga maxsus kartalar va o‘yinlar orqali ma’lumotlarni o‘rganish imkonini beradi
7.	ClassTools	Interaktiv Flash resurslarini yaratish uchun onlayn xizmat muhitni hisoblanadi. Muhitdan foydalanimib turli animatsiya effektlarini loyihalash mumkin.
8.	Learningapps	Interaktiv o‘quv modullardan tashkil topgan axborot ta’lim muhitni bo‘lib, bunda turli fanlardan talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga oid topshiriqlardan onlayn foydalanish mumkin.
9.	ppinventor.mit., kodular.io	Mobil ilovali pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishga mo‘ljallangan ochiq muhit hisoblanadi.
10.	slidesgo	Sun’iy intellektli taqdimotlar tayyorlashga mo‘ljallangan platforma.

11.	work-zilla	Talabalarning frilanserlikka o‘rgatishga mo‘ljallangan muhit bo‘lib, unda kompyuterning amaliy dasturlari yordamida turli loyihibar ishlab chiqishga oid topshiriqlar mujassamlashgan.
-----	------------	--

Taklif etilayotgan ta’lim muhitlarida foydalanish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini samarali tashkil imkonini beradi.


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda ta’lim muhitlarining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jalb etilib, ular tajriba (131 nafar) va nazorat (132 nafar) guruhlariga ajratildi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba va nazorat guruhlariga ajratishda, ularning bilim darajalari bir xillikga alohida e’tibor qaratildi. Jalb etilgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba boshidagi natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Tajriba va nazorat guruhidagi natijalari									
Tajriba sinfi					Nazorat sinfi				
Talabalarning umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Talabalarning umumiy soni	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
131	12	32	79	8	132	13	33	77	9

2-jadvalda keltirilgan natijalarining dinamikasini hosil qilamiz (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajriba boshidagi dinamikasi

Keltirilgan natijalarining tahlilga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhidagi Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining natijalari deyarli bir xil ekanligini ko‘rish mumkin.


Tadqiqot davomida tajriba guruhiga ajratilgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limi taklif etilayotgan ta'lim muhitlaridan foydalanib tashkil etildi. Ya’ni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy fanlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanildi. Shuningdek, mashg‘ulotlarni loyihalashda va turli pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqishda taklif etilayotgan muhitlar tavsiya etildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat guruhiga ajratilgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval

#### Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

Tajriba va nazorat guruhidagi natijalari									
Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
Talabalarning umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Talabalarning umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
131	17	69	41	4	132	12	34	78	8

3-jadvaldagi natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini quyida keltirilgan (2-rasmga qarang):



## 2-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba oxiridagi dinamikasi

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchliligin tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 9,4 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda tadqiqot doirasida taklif etilayotgan ta’lim muhitlaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Ushbu ta’lim muhitlari yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini samarali tashkil etishga va darslarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

## Adabiyotlar

1. Воробьёв Г. А. Веб-квест технологии в обучении социокультурной компетенции (английский язык, лингвистический вуз) // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Пятигорск, 2004. – 220 б.

2. Виштак О. В. Дидактические основы построения информационных комплексов для самостоятельной учебной деятельности студентов, изучающих информатику // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2005. – 355 с.
3. Георге И. В. Формирование профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования на основе организации самостоятельной работы // Монография. – Тюмень: ТИУ, 2016. – 143 с.
4. Ивкина Л.М. Формирование методической готовности будущих учителей информатики в условиях образовательной платформы «Мега-класс» // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Красноярск, 2017. – 145 с.
5. Михайлова Н.В. Электронная обучающая среда moodle как средство организации асинхронной самостоятельной работы студентов вуза // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Оренбург, 2012. – 25 с.
6. Онгарбаева А.Д. Методика подготовки будущих учителей информатики к созданию электронных образовательных ресурсов // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Бишкек, 2019. – 198 с.
7. Каюмова Н.А. Электрон таълим мұхитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022. – 70 с
8. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитиша виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.
9. Шарапова Г.В. Иммунология фанини ўқитиши самарадорлигини оширишда электрон таълим ресурслардан фойдаланиш методикасини

---

такомиллаштириш (педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент – 2022. – 153 б.

10. Яхшибоева Д.Т. Бўлажак биология ўқитувчиларининг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (биотехнология фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. –146 б.

11. Tursunov M.A. “Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish metodikasini takomillashtirish (Axborot texnologiyalari fani misolida)” // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 50 б.

12. Shodiyev H. R. Uzluksiz ta’lim tizimida geografiyani o‘qitishda axborot ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Navoiy – 2024. – 274 б.

13. Auezova R. T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (informatika va raqamli texnologiya fani misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. – Nukus, 2024. – 152 б.

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### VIRTUAL-TA’LIMIY MUZEYLAR RAQAMLI TA’LIM EKOTIZIMINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

*Atamuratov Rasuljon*

*Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsent, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada virtual-ta’limiy muzeylarning ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlari, raqamli ta’lim ekotizimining ta’limiy komponentasi ekanligi, raqamli avlodning ta’lim-tarbiyasi uchun yangi madaniyat va muloqot maydoni bo’la olishi hamda ta’lim oluvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi tadqiq qilingan. Shuningdek, virtual-ta’limiy muzeylarning kelajak texnologiyasi sifatida ta’lim jarayoniga integratsiyasi va uning taqdim etadigan ta’limiy imkoniyatlari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari va tahlillari keltirilgan.

**Tayanch so’zlar:** virtual-ta’limiy muzey, raqamli ta’lim, ekotizim, raqamli ta’lim ekotizimi, o’quvchining raqamli kompetensiyasi, immersiv texnologiyalar, virtual sayohat.

### ВИРТУАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МУЗЕИ КАК КОМПОНЕНТ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЭКОСИСТЕМЫ

*Атамуратов Расулжон*

*Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, доцент,  
Узбекистан*

**Аннотация:** В статье определены дидактические возможности виртуально-образовательных музеев в качественной организации образовательного процесса, показано, что они являются образовательным компонентом цифровой образовательной экосистемы, могут стать новым культурно-коммуникационным пространством для образования цифрового поколения, инструментом развития цифровой компетентности обучающихся. Приведены результаты и анализ научных исследований по интеграции виртуально-образовательных музеев как технологии будущего в образовательный процесс и ее образовательных возможностей.

**Ключевые слова:** виртуальный-образовательный музей, цифровое образование, экосистема, экосистема цифрового образования, цифровая компетентность учащихся, иммерсивные технологии, виртуальный тур.

### VIRTUAL EDUCATIONAL MUSEUMS AS A COMPONENT OF THE DIGITAL EDUCATIONAL ECOSYSTEM

*Atamuratov Rasuljon*

*Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor, Uzbekistan*

**Abstract:** This article defines the didactic possibilities of virtual-educational museums in the quality organization of the educational process and the fact that they are an educational component of the digital educational ecosystem, can be a new culture and communication space for the education of the digital generation serving as a tool for developing the digital competence of students. Also, it showcases the results and analysis of scientific research on the integration of virtual-educational museums as a technology of the future into the educational process and its educational opportunities.

**Keywords:** virtual-educational museum, digital education, ecosystem, digital education ecosystem, student digital competence, immersive technologies, virtual tour.

**Kirish.** Jahon iqtisodiyotining global miqyosidagi o‘zgarishlari insoniyatning jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Rivojlangan mamlakatlar o‘zlarining aqliy salohiyatidan foydalanib, insoniyatning to‘rtinchi sanoat inqilobini ifodalaydigan axborot texnologiyalari tizimining poydevorini yaratmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat insonlar, balki butun mamlakatning barcha bo‘g‘inlariga (iqtisodiyot, siyosat, sog‘liqni saqlash, milliy xavfsizlik va hokazo) dahldordir. Ta’lim sohasi esa, eng asosiy bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Ta’limning o‘zi insonni tarbiyalash va shakllantirishning yaxlit tizimi bo‘lib, bu orqali inson muayyan bilimlar bilan tanishadi va turli ijtimoiy-gumanitar qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bularning barchasi birgalikda mustaqil fikrlesh ko‘nikmalarini va vaziyatni tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, raqamli axborot munosabatlarini anglashga yordam beradi. Chunki, raqamli ta’limga o‘tish jamiyatni raqamlashtirish maqsadlariga erishishning muhim bosqichlaridan biridir. Shu sababli, ta’lim tizimini raqamli ta’lim transformatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari uchun qulay va samarali platforma bo‘lib xizmat qiladigan yagona raqamli ekotizimni yaratish, tegishli innovatsion modellarni ishlab chiqish jarayoni har qachongidan ham dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim muassasalari va ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. An’anaviy ta’lim usullari o‘rniga “raqamli ta’lim ekotizimi” deb ataluvchi ekotizimni tashkil etuvchi raqamli vositalar va platformalar bilan to‘ldirilmoqda. Ana shunday raqamli platformalardan biri – virtual ta’limiy muzeylardir. Bu turdagи platformalar orqali tarixiy-madaniy meroslarimizni tiklash, saqlash va asrashimiz, balki ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida turli usullarda taqdim etish va ta’limiy maqsadlarda amaliyotda joriy etish har bir xalqning o‘z tarixi va madaniyatini chuqurroq anglab yetishiga hamda kelajak yosh avlodlarga yetkazish imkonini beradi.

Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ilmiy tadqiqotlar, amaliy lohiyalar va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasini raqamlashtirish loyihalari strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, 2025-yil

yakuniga qadar www.edu.uz raqamli ekotizimini ishga tushirish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadga erishishning asosiy vazifalaridan biri – axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro ma’lumot almashishni tashkil etish uchun tizimlararo integratsiya hisoblanadi. Bundan tashqari, barcha axborot tizimlarini integratsiyalash va takomillashtirish natijasida yagona “DATAHUB” yaratilishi rejalashtirilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** XXI asr yangi texnologiyalar davri hisoblanib, bu davrda ta’limning barcha bosqichlarida yangi texnologiyalarni qo’llash, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va o‘quv dasturlarini yangi raqamli texnologiyalarga moslashtirib tashkil qilish talab qilinadi. Raqamli texnologiyalar vositasida ta’limning tezkor rivojlanish natijasini ta’lim jarayoniga kirib kelgan “raqamli pedagogika”, “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetentlik” va “raqamli ta’lim ekotizimi” kabi yangi tushunchalardan sezish mumkin. Dastavval, “raqamli ta’lim ekotizimi” va “virtual-ta’limiy muzey” tushunchalariga aniqlik kiritib olsak.

“Ekotizim” – bu o‘ziga xos metafora bo‘lib, u talablarga va natijalarga moslashadigan, o‘sib-rivojlanadigan, takomillashadigan, to‘ldiriladigan va jamoa ehtiyojlariga qarab “o‘z-o‘zini sozlaydigan” ta’lim tizimini ifodalaydi.

Raqamli ta’lim ekotizimi bu – ta’lim jarayonining barcha jihatlarini qamrab oladigan integratsiyalashgan tizim bo‘lib, ta’lim muassasalariga (OTM, akademik litsey, maktab va hokazo) samarali loyihalashtirilgan ta’lim tajribasini yaratish, taqdim etish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari (muassasa, pedagog va ta’lim oluvchi) o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minalash orqali ta’lim sifatini tubdan oshiradi.

Ushbu tizimning maqsadi zamonaviy texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili va innovatsion pedagogik usullarni birlashtirish orqali har bir ta’lim oluvchining potensialini ro‘yobga chiqarish va ularga kelajakda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berishdir.

S.Alina va uning hamkasblarining fikricha, raqamli ta’lim ekotizimi turli texnologik vositalarning integratsiyasi natijasida hamkorlik va ta’limiy resurslardan birgalikda foydalanishga ko‘maklashdi hamda uzlusizligini ta’minlaydi [1]. M.Pinto-Llorente va V.Izquierdo-Álvarez tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli ta’lim

ekotizimi barqaror ta’lim vositalarini taqdim etish orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga va turli xil (umumiylashtirilgan) kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi hamda individual qiyinchiliklarni hal qiladi [2]. Shuningdek, ta’lim oluvchilarning raqamli kompetensiyalari virtual ta’lim muhitlari, raqamli o‘qitish vositalari va innovatsion o‘qitish usullarini o‘z ichiga olgan raqamli ta’lim ekotizimi yordamida rivojlanadi [3].

B.Oleynikov va S.Podlesniy ta’kidlashlaricha, ta’lim ekotizimi axborot texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish orqali yangi metodikalar asosida o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunda, pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi qat’iy belgilangan munosabatlardan ta’lim jarayonida o‘zaro ta’sirning moslashuvchan shakllariga o‘zgaradi. Moslashuvchanlik o‘quv jarayonini tashkil etish joyi va vaqtini tanlashda namoyon bo‘ladi [4].

S.Maxnoves, O.Popova ta’lim ekotizimini “ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan o‘quvchilarning yaxlit dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan ko‘p bosqichli o‘zini o‘zi tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi yaxlit ochiq tizim” sifatida tavsiflaydilar [5].

Virtual-ta’limiy muzeylar bo‘yicha tahlillarni keltiramiz.

Virtual-ta’limiy muzey nima? Nima uchun kerak? kabi savollar tug‘iladi. Jahon tajribalaridan kelib shuni aytish mumkinki, muzeylar o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida beباho ko‘makchi, ularni komil inson sifatida shakllantirish, shuningdek, nafaqat o‘z hayoti bilan, balki ko‘plab insonlar tajribasi bilan yashashga hamda yosh avlodni bunyodkorlikka o‘rgatadi.

“Virtual-ta’limiy muzey – muzeydagi san’at obyektlari, tarixiy asarlar, virtual to‘plamlar va eksponatlarini namoyish etish hamda shu muhitda ta’lim jarayonini tashkil etishga mo‘ljallangan veb sayt turidir” [6].

N.Lisikova tadqiqotlarida virtual muzeylarning har bir o‘quvchiga yangi madaniyat, yangi muloqot, tajribalar va yetuk shaxs ta’lim-tarbiyasidagi roli, shuningdek, umumiylashtirilgan masalalarni hal qiluvchi va o‘quv jarayonida foydalanish samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi borasida fikrlar keltirilgan [7].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, virtual ta'lim muzeylar raqamli ta'lim ekotizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib, o'quvchilarni jalb qilish va ta'lim tajribasini yaxshilashning innovatsion usullarini taqdim etadi. Shuningdek, bu ko'rinishdagi raqamli ta'limiy platformalar madaniy meros va ta'lim mazmuniga kirish imkoniyatini yaratish bilan birga, ta'limni yanada qulayroq va interaktiv qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda virtual-ta'limiy muzeylarning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Bular: nazariy tahlil metodi (tadqiqotga doir ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish), tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik kuzatishlar hamda tahliliy jadvallarni tuzish usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodlar yordamida virtual-ta'limiy muzeylarning raqamli ta'lim ekotizimiga integratsiyalashuv darajasi va uning ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion imkoniyatlari ham har tomonlama tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Olib borilgan tadqiqot davomida virtual-ta'limiy muzeylarning raqamli ta'lim ekotizimining tarkibiy qismi ko'rinishida, ta'lim jarayonini texnologik elementlar bilan to'ldiruvchi va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qiluvchi muhim komponent sifatidagi ta'siri tahlil qilindi. Quyida asosiy tahlillar va ularning natijalari keltiriladi:

1. **Interaktiv ta'lim va ko'pfunksional resurslar.** Virtual-ta'limiy muzeylar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini haqiqiy va virtual muhitda qo'llash imkonini yaratadi. Bu orqali o'quvchilar tarix, san'at, madaniyat yoki ilm-fan sohalari bo'yicha interaktiv tarzda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi [8]. Shuningdek, virtual ta'limiy muzeylar tarkibida turli turdagи ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi: immersiv videolar, qiziqarli faktlar, ilmiy maqolalar, interaktiv xaritalar, 3D modellar, virtual sayohatlar va hokazolar [9]. Bu resurslar raqamli ta'lim ekotizimining bir qismi sifatida, o'quvchilarga turli usullar orqali turli mavzular, muhim tarixiy voqealar yoki san'at asarlari hamda ta'limiy materiallarni o'zlashtirish imkonini beradi.

2. *Zamonaviy texnologiyalarning qo’llanishi.* Kelajak texnologiyalari sifatida qaralayotgan virtual borliq (VR) va to’ldirilgan borliq (AR) kabi ilg‘or texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish virtual-ta’limiy muzeylarni yanada jonli va qiziqarli qiladi. O‘quvchilar, masalan, tarixiy joylarga yoki qadimiy arxitektura obyektlariga virtual ravishda tashrif buyurish orqali bu joylarning o‘ziga xos xususiyatlari va tarixini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, virtual-ta’limiy muzeylar o‘quvchilarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini berish orqali ularga turli hududlardan turib tashriflarni amalga oshirishni taqdim etadi. Bu esa, raqamli ta’lim ekotizimlarining global darajadagi rivojlanishiga katta hissa qo‘sjadi.

3. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish.* Virtual-ta’limiy muzeylar raqamli ta’lim ekotizimida yangi metodologiyalarni qo’llashga yordam beradigan pedagogik vositadir. Ayniqsa, ta’lim oluvchilarda ijodiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, gamifikatsiya, Web Quest yoki Collaborative Learning (hamkorlikdagi ta’lim) texnologiyalari orqali o‘quvchilarning tadqiqot va izlanuvchanlik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi [10]. Mazkur texnologiyalar muzey pedagogikasi va loyihaviy ta’limni birlashtirish orqali o‘quvchilarning diqqatini, qiziqishini oshirish va ularni ta’lim jarayonida yanada faol bo‘lishi hamda yakka va jamoaviy ishlashiga ko‘maklashadi.

4. *Madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy ta’lim.* Virtual-ta’limiy muzeylar o‘quvchilarga turli madaniyatlarni o‘rganish, dunyoqarashlarni rivojlantirish va bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni tushunishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar, balki insoniyatning umumiy madaniy merosi va ijtimoiy qadriyatları bilan ham yaqindan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, virtual-ta’limiy muzeylar, pedagoglar jamoasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytiradi. Ota-onalarning ko‘magi shundaki, ular o‘z farzandlariga virtual-ta’limiy muzeylar bilan tanishtirish orqali ularda ta’lim jarayoniga bo‘lgan motivlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni darsdan tashqari mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

*5. Davlat dasturlari va ta’lim tizimi.* Raqamli transformatsiya davrida har bir mamlakat o‘zining davlat dasturlari va ta’lim tizimi bo‘yicha ishlab chiqayotgan strategiyalari tarkibiga virtual-ta’limiy muzeylarni ta’lim resurslari sifatida qo‘sishi va qo‘llab-quvvatlash orqali, ularning evolyutsiyasiga katta hissa qo‘sadi [11]. Kelajakda yaratiladigan virtual-ta’limiy muzeylarni boshqa turli axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan ekotizim sifatida ishga tushirish, ta’limni boshqarishni avtomatlashтирish va tahlil qilib borish jarayonida foydalanish muhim omil sifatida qaraladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, virtual-ta’limiy muzeylar raqamli ta’lim ekotizimining tarkibiy qismi sifatida o‘quvchilarga interaktiv, qiziqarli va samarali ta’lim olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday ko‘rinishdagi ta’limiy platformalar o‘quvchilarning ilmiy va madaniy bilimlarini oshirish bilan birga ta’lim jarayonini tarixiy-madaniy elementlar bilan boyitadi va modernizatsiya qiladi. Buning natijasida ta’limning eng produktiv yondashuvlarini integratsiya qilgan yangi ekotizimni yaralishida muhim komponenta sifatida xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Bolshakova, A. S., & Mokhnatkina, K. V. (2024). Electronic information educational environment as an ecosystem in the pedagogical process of a modern university. *Development of Education*, 7(3), 19–26. <https://doi.org/10.31483/r-112671>
2. Pinto-Llorente, A. M., & Izquierdo-Álvarez, V. (2024). Digital Learning ecosystem to enhance formative Assessment in second language acquisition in Higher education. *Sustainability*, 16(11), 4687. <https://doi.org/10.3390/su16114687>
3. Bojórquez-Roque, M. S., Garcia-Cabot, A., Garcia-Lopez, E., & Oliva-Córdova, L. M. (2024). Digital competence learning ecosystem in higher education: A mapping and systematic review of the literature. *IEEE Access*, 12, 87596–87614. <https://doi.org/10.1109/access.2024.3416906>

- 
4. Олейников, Б. В., & Подлесный, С. А. (2013). О концепции «Экосистема обучения» и направлениях развития информатизации образования. *Знание. Понимание. Умение*, (4), 84-91.
  5. Махновец С. Н., Попова О. А. Новая экосистема образования как системообразующий вектор качества жизни [Электронный ресурс] // Вестник ТвГУ. Серия «Педагогика и психология». 2017. Вып. 4. С. 141–149.
  6. Atamuratov, R. The importance of the virtual museums in the educational process // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. – Vol. 8. №2. – P. 89-93.
  7. Лысикова Н. П. Виртуальный музей в системе школьного образования // Образование в современном мире: – Саратов: Сарат. 2016. Вып. 11. – С. 29.
  8. K. Z. Turdievna, K. M. Abdijabborovna and A. R. Kadirjanovich, “Theoretical Basis for Creating a Virtual-Educational Museum,” 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 1-4, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919441
  9. Atamuratov, R. K. (2021). Historical fundamentals of creating a virtual-educational museum. *The Way of Science*, 6, 88p.
  10. Kadirjanovich A. R., Isayevna A. N., Gulomjonovna P. G. and Botir qizi P. S., “Improving the Methodology of Teaching Specialized Subjects in The Preparation of Future Computer Engineering on The Basis of Innovative Technologies,” 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 125-130, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286726.
  11. Atamuratov, R., & Xushvaqtov, A. (2025). Digital Transformation in Education: the Beginning of a New Era. *Bulletin of Science and Practice*, 11(1), 294-300. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/110/35>

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIK FAKE NEWS VA DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA

***Baydjanov Bekzod Xaitboyevich***

*Farg’ona davlat universiteti dotsent, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda fake news va dezinformatsiyaning global miqyosda keng tarqalishi jamiyat axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Yolg’on axborotning tezkor tarqalishi natijasida shaxslar va tashkilotlar noto‘g’ri qarorlar qabul qilish ehtimoli ortmoqda. Ushbu muammoga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – informatsion-analitik kompetentlikning fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashishdagi rolini tahlil qilish va uni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot doirasida aralash metodologiya (*mixed-methods research*) qo’llanildi. So‘rovnama usuli yordamida talaba va professor-o‘qituvchilar ishtirokida informatsion-analitik kompetentligini baholash amalga oshirildi. Shuningdek, mediasavodxonlik va fakt-cheiking bo‘yicha treninglarning samaradorligini o‘rganish uchun tajriba-sinov ishlariga doir tadqiqot olib borildi. Kontent-tahlil natijasida esa fake news va dezinformatsiyaning eng ko‘p uchraydigan shakllari va mavzulari aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish maqsadida oliv ta’limning barcha bakalavriat yo‘nalishlarida mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o‘qitishni joriy etish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha interaktiv mashg‘ulotlarni kengaytirish va fakt-cheiking texnologiyalaridan foydalanishni kuchaytirish tavsiya etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** fake news, dezinformatsiya, informatsion-analitik kompetentlik, mediasavodxonlik, fakt-cheiking, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi.

### ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР БОРЬБЫ С ФЕЙКОВЫМИ НОВОСТЯМИ И ДЕЗИНФОРМАЦИЕЙ

***Байджанов Бекзод Хаитбоевич***

*Ферганский государственный университет, доцент, Узбекистан*

**Аннотация:** В настоящее время глобальное распространение фейковых новостей и дезинформации представляет серьезную угрозу информационной безопасности общества. Быстрое распространение ложной информации увеличивает вероятность принятия неправильных решений как на индивидуальном, так и на организационном уровнях. Одним из эффективных инструментов борьбы с данной проблемой является развитие информационно-аналитической компетентности. Основная цель данного исследования – анализ роли информационно-аналитической компетентности в противодействии фейковым новостям и дезинформации, а также разработка рекомендаций по ее развитию.

В рамках исследования была применена смешанная методология (*mixed-methods research*). Метод анкетирования использовался для оценки уровня информационно-аналитической компетентности среди студентов и преподавателей. Кроме того, были проведены экспериментальные исследования, направленные на изучение эффективности тренингов по медиаграмотности и факт-чекингу. В ходе контент-анализа были выявлены наиболее распространенные формы и темы фейковых новостей и дезинформации.

На основе полученных результатов рекомендуется внедрить в образовательные программы всех бакалаврских направлений курс по медиаграмотности и информационной культуре, расширить использование интерактивных занятий для развития критического мышления и усилить применение технологий факт-чекинга.

**Ключевые слова:** фейковые новости, дезинформация, информационно-аналитическая компетентность, медиаграмотность, факт-чекинг, искусственный интеллект, информационная безопасность.

## INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE AS AN IMPORTANT FACTOR IN COMBATING FAKE NEWS AND DISINFORMATION

*Baydzhanov Bekzod*

*Fergana University Davlat Associate Professor, Uzbekistan*

**Abstract:** Today, the widespread global dissemination of fake news and disinformation poses a serious threat to societal information security. The rapid spread of false information increases the likelihood of individuals and organizations making incorrect decisions. One of the most effective means of combating this issue is the development of information-analytical competence. The main objective of this study is to analyze the role of information-analytical competence in countering fake news and disinformation and to develop recommendations for its enhancement.

A mixed-methods research approach was employed in this study. A survey method was used to assess the level of information-analytical competence among students and university faculty members. Additionally, an experimental study was conducted to examine the effectiveness of media literacy and fact-checking training sessions. Through content analysis, the most common forms and themes of fake news and disinformation were identified.

Based on the research findings, it is recommended to incorporate media literacy and information culture courses into all undergraduate curricula, expand interactive activities aimed at developing critical thinking, and strengthen the use of fact-checking technologies.

**Keywords:** fake news, disinformation, information-analytical competence, media literacy, fact-checking, artificial intelligence, information security.

**Kirish.** So‘nggi yillarda raqamli axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi global miqyosda axborot iste’moli va tarqalish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi natijasida insonlar tezkor va katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda. Biroq, bu jarayonning salbiy jihatlaridan biri – fake news (yolg‘on axborot) va dezinformatsiya muammosining kengayishidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yolg‘on axborot odatda haqiqatdan ko‘ra tezroq tarqaladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi va jamiyatning axborot xavfsizligini zaiflashtiradi [4].

Fake news va dezinformatsiyaning tarqalish mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon asosan media-manipulyatsiya strategiyalari, noto‘g‘ri kontekstda qo‘llangan ma’lumotlar va sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan

---

axborotlar orqali amalga oshiriladi [5]. Ayniqsa, siyosiy kompaniyalar, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy harakatlar davrida bu jarayon yanada faollashadi.

Ushbu sharoitda informatsion-analitik kompetentlik shaxsning yolg‘on axborotdan himoyalanishida va dezinformatsiyaga qarshi kurashda strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Informatsion-analitik kompetentlik axborotni izlash, baholash, tahlil qilish va interpretatsiya qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan kompleks ko‘nikma bo‘lib, u tanqidiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq [1]. Xususan, yoshlar va talabalarda bu kompetentlikni rivojlantirish orqali axborot manipulyatsiyalarining oldini olish va haqiqatni yolg‘ondan ajratish qibiliyatini shakllantirish mumkin.

Hozirgacha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim jarayonida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish uchun media-savodxonlik dasturlaridan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin [3]. Shuningdek, fakt-cheking texnologiyalaridan foydalanish, xolis va ishonchli axborot manbalarini targ‘ib qilish ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Biroq, ko‘pgina mamlakatlarda bu boradagi ta’lim metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan bo‘lib, amaliy mexanizmlar va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi – informatsion-analitik kompetentlikning fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, bu kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini oolib berish hamda ta’lim jarayonida uni rivojlantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berishdir. Shuningdek, maqolada dezinformatsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tajribalari tahlil qilinib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordami bilan axborot manipulyatsiyalarini aniqlashning zamonaviy usullari o‘rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u informatsion-analitik kompetentlik va dezinformatsiyaga qarshi kurashish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik va nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada pedagogik va texnologik vositalar yordamida ushbu kompetentlikni rivojlantirish strategiyalari taklif etiladi, bu

esa o‘qituvchilar va talabalar uchun amaliy qo‘llanma sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** So‘nggi yillarda fake news va dezinformatsiya masalalari global miqyosda jiddiy ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan. Tadqiqotchilar fake newsni dezinformatsiyaning bir turi sifatida, ya’ni maqsadli ravishda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan axborotni tarqatish orqali jamiyatda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladigan hodisa sifatida ta’riflaydilar [5].

Fake news va dezinformatsiyaning tarqalish mexanizmlari zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan yanada murakkablashmoqda. Vosoughi, Roy va Aral tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, yolg‘on axborot haqiqatga nisbatan 70 foiz tezroq tarqaladi va uning auditoriyasi aniq yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin [4]. Bu esa dezinformatsiyaning sun’iy intellekt yordamida maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilishini tasdiqlaydi.

E.C.Tandoc va boshqalar fake newsni besh asosiy turga ajratadi [6]:

- 1) satira va parodiya – real voqealarga o‘xshash, lekin haqiqatga asoslanmagan ma’lumotlar;
- 2) noto‘g‘ri kontekstdagi axborot – real voqealar buzib ko‘rsatilgan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bilan taqdim etilgan;
- 3) manipulyatsion axborot – rasmlar, videolar va faktlar tahrirlangan holda tarqatilgan;
- 4) fabricated news (to‘qib chiqarilgan axborot) – umuman haqiqatga mos kelmaydigan, lekin ishonchli ko‘rinishga ega bo‘lgan ma’lumotlar;
- 5) propaganda va dezinformatsiya – siyosiy yoki iqtisodiy maqsadlarda ataylab tarqatiladigan yolg‘on axborot.

Shu sababli, dezinformatsiyaga qarshi samarali kurashish uchun insonlarda axborot tahlili va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [7].

Informatsion-analitik kompetentlik – bu shaxsning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishslash va interpretatsiya qilish qobiliyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya

hisoblanadi [1]. Ushbu kompetentlik jamiyat a’zolarining axborot manipulyatsiyasiga qarshi immunitetini shakllantirish, xolis axborotdan foydalanish va raqamli tafakkurni rivojlantirish uchun muhim vositadir.

Ko‘pgina tadqiqotchilar bu kompetentlikni quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratishadi [3]:

1. Axborotni qidirish va baholash qobiliyati – shaxsning ishonchli va xolis manbalarni tanlash qobiliyati.
2. Axborotni tahlil qilish va interpretatsiya qilish qobiliyati – ma’lumotlarni turli manbalar orqali solishtirish va ularni to‘g‘ri sharhlash.
3. Tanqidiy tafakkur va media-savodxonlik – ijtimoiy va siyosiy kontekstda axborotning ta’sirini baholash.
4. Fakt-cheiking va axborotni verifikatsiya qilish qobiliyati – ma’lumotlarning ishonchliligini mustaqil ravishda tekshirish.
5. Raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari – algoritmlarni tushunish, big data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, aynan shu kompetentlik shaxsga dezinformatsiya va fake news oqimidan himoyalanishga yordam beradi [2].

Media-savodxonlik va tanqidiy tafakkur – informatsion-analitik kompetentlikning ajralmas qismlari hisoblanadi. R.Hobbs ta’kidlashicha, media-savodxonlik orqali insonlar axborotni idrok qilish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin [11]. Ayniqsa, yoshlar orasida bu kompetentlikni shakllantirish ijtimoiy manipulyatsiyalarga qarshi immunitetni oshirishga xizmat qiladi.

International Society for Technology in Education tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlarda media-savodxonlikning quyidagi bosqichlari ajratib ko‘rsatilgan: axborotni izlash va tekshirish (xolis va mustaqil manbalarni tanlash); axborotning kontekstini tushunish (axborotning qaysi maqsadda tarqatilganligini baholash); axborotning ta’sirini tahlil qilish (yolg‘on axborotning jamiyatga ta’sirini tushunish);

---

axborot manipulyatsiyalarini aniqlash (media orqali tarqatilayotgan manipulyatsiyalarning mexanizmlarini tahlil qilish).

Shunday qilib, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va media-savodxonlikni oshirish dezinformatsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

So‘ngi yillarda ko‘plab davlatlar fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun ilmiy-tadqiqotlar olib bormoqda. Masalan: AQSh va Yevropa Ittifoqida maxsus fakt-cheiking platformalari (FactCheck.org, Snopes, EUvsDisinfo) yaratildi; Finlandiya ta’lim tizimi fake newsga qarshi kurashishda mediasavodxonlikni maktab dasturlariga integratsiya qilish tajribasini amalga oshirdi [9].

Singapur va Janubiy Koreyada axborot tahlili va media-savodxonlik bo‘yicha maxsus kurslar joriy qilindi [10].

Xulosa qilib aytganda, informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashishda ta’lim, texnologiya va davlat siyosati o‘rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashda informatsion-analitik kompetentlikning o‘rnini o‘rganish va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot aralash metod (mixed-methods research) asosida olib borildi, bunda sifat va miqdoriy usullar (qualitative and quantitative methods) kombinatsiyasi qo‘llanildi [12].

Tadqiqot quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borildi: anketali so‘rov (Survey research) – talabalar va o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini baholash; tajriba (Experimental study) – media-savodxonlik va fakt-cheiking bo‘yicha treninglar samaradorligini o‘rganish; kontent-tahlil (Content analysis) – turli ommaviy axborot vositalarida fake news va dezinformatsiyaning keng tarqalgan formatlarini o‘rganish.

Tadqiqot 2022-yildan boshlab keyingi uch yil davomida mamlakatimizning turli viloyatidagi talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida olib borildi.

---

Ishtirokchilar yosh, kasbiy tajriba va axborot iste’moli darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lib, tadqiqot natijalari turli auditoriyalar uchun umumlashtirilishiga imkon berdi.

So‘rovnoma Google Forms platformasi orqali tashkil etildi va u quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi: axborotni baholash qobiliyati (misol: “Siz yangiliklar ishonchlilagini qanday tekshirasiz?”); fakt-cheiking usullaridan foydalanish (misol: “Siz ilgari hech qachon fact-checking platformalaridan foydalanganmisiz?”); axborotni tahlil qilish va interpretatsiya qilish qobiliyati (misol: “Siz dezinformatsiya elementlarini qanday aniqlaysiz?”). Mazkur so‘rovnoma natijalari Likert shkalasi (1-5) asosida baholandi va statistik tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari talabalarning informszion-analitik kompetentligini oshirishga qaratilgan maxsus mediasavodxonlik va fakt-cheiking treninglarini o‘z ichiga oldi.

Trening davomida fakt-cheiking platformalaridan foydalanish (FactCheck.org, Snopes, Google Reverse Image Search), fake newsni aniqlash usullari va media-manipulyatsiyalarni tahlil qilish bo‘yicha bilimlar berildi. Natijalar pre-test va post-test orqali baholandi.

Tadqiqot davomida turli ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan fake news namunalarini tahlil qilish uchun kontent-tahlil usuli qo‘llanildi. Jumladan: axborot manbalari: yangilik saytlari, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Twitter); fake news turlari: noto‘g‘ri kontekst, manipulyatsiya, to‘qib chiqarilgan yangiliklar; kategoriylar: siyosiy, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy va ijtimoiy mavzular.

Matnli ma’lumotlarni tahlil qilish uchun NVivo dasturi qo‘llanildi. Shuningdek, olingan ma’lumotlarning tahlili quyidagicha amalga oshirilgan, jumladan: anketali so‘rov natijalari – SPSS 27 dasturida statistik tahlil qilindi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar va dispersiya tahlili orqali ishtirokchilarning bilim darajalari o‘rganildi; eksperiment natijalari – pre-test va post-test natijalari t-test yordamida solishtirildi; kontent-tahlil natijalari – fake news va dezinformatsiya materiallari asosida tematik kodlash va kategoriya tahlili olib borildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida ishtirok etgan respondent-talabalar va professor-o‘qituvchilar orasida informatsion-analitik kompetentligini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnama natijalari SPSS 27 dasturida qayta ishlanib, o‘rtacha ballar va dispersiya tahlili yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida axborotning ishonchlilagini baholash masalasi bo‘yicha natijalar quyidagi qayd etildi: so‘rovnomada ishtirok etganlarning 72 foizi yolg‘on axborotni haqiqatdan ajratish qiyin ekanligini ta’kidladi; talabalarning 58 foizi yangiliklarning ishonchlilagini tekshirish uchun faqatgina bitta axborot manbaiga tayanishini bildirdi; o‘qituvchilarning 85 foizi esa informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus treninglar zarurligini keltirib o‘tishdi.

Fakt-cheiking va mediasavodxonlik bo‘yicha talabalarning 63 foizi ilgari hech qachon fakt-cheiking platformalaridan (masalan, FactCheck.org, Snopes, Google Reverse Image Search) foydalanmaganligini, o‘qituvchilarning 78 foizi esa mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari kerakligini ta’kidlagan. So‘rov natijalariga ko‘ra, mediatahlil qobiliyatları yuqori bo‘lgan talabalar fake news va dezinformatsiyani tezroq aniqlashga muvaffaq bo‘lishgan ( $p < 0.05$ ).

Tadqiqot jarayonida tajriba guruhi bilan mediasavodxonlik va fakt-cheiking bo‘yicha treninglar o‘tkazildi. Treningdan oldin va keyin pre-test va post-test baholash tizimi orqali ishtirokchilarning informatsion-analitik kompetentligidagi o‘zgarishlar kuzatildi.

Treningdan avval va keyingi natijalar solishtirilganda tajriba guruhining dastlabki natijalari o‘rtacha 4.2 ball (10 ballik tizimda) bo‘lgan bo‘lsa, treningdan keyin esa 7.9 balga oshdi ( $p < 0.01$ ). Mazkur ko‘rsatgich nazorat guruhida deyarli o‘zgarishsiz qoldi (4.1 ball → 4.4 ball,  $p > 0.05$ ). Tajriba guruh ishtirokchilarining 87 foizi media-savodxonlik bo‘yicha yangi bilimlar olganliklarini ta’kidlashdi.


Fake news va dezinformatsiyani aniqlash qobiliyatidagi o‘zgarishlar quyidagilarni namoyon etdi. Jumladan, treningdan so‘ng tajriba guruhi ishtirokchilari fake news va dezinformatsiyani oldingi holatga qaraganda 65 foiz tezroq aniqlay oldi.

Bu esa fakt-cheiking va mediasavodxonlik ko'nikmalari informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda sezilarli natija berishini isbotlaydi ( $p < 0.001$ ).


Tadqiqotning kontent-tahlil qismida turli ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan 250 ta fake news materiali tahlil qilindi.

Tahlil qilingan materiallar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'lganligi qayd etildi: noto'g'ri kontekstdagi axborotlar – 35 foiz; manipulyatsion yangiliklar – 27 foiz; to'qib chiqarilgan yangiliklar – 22 foiz; satira va parodiya – 16 foiz (1-rasmga qarang).

Internet tarmog'idan olib tahlil qilingan materiallar orasida eng ko'p uchraydigan fake newslar asosan quyidagi mavzulariga yo'naltirilganligi kuzatildi: siyosiy dezinformatsiya – 42 foiz; sog'liqni saqlash (COVID-19, vaksinalar, tibbiy maslahatlar) – 33 foiz; ijtimoiy va madaniy manipulyatsiyalar – 15 foiz; moliyaviy va iqtisodiy yolg'on axborotlar – 10 foiz (2-rasmga qarang).



**1-rasm. Fake news va dezinformatsiya turlari**



**2-rasm. Fake news va dezinformatsiya ko'p uchraydigan mavzular**

Kontent-tahlil natijalariga ko'ra, dezinformatsiya asosan ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Facebook, X)da keng tarqalishi aniqlangan, bu esa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan yolg'on axborotdan tezroq auditoriyaga yetib borishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni bayon etish mumkin: bugungi kun talabalarining katta qismida informatsion-analitik kompetentlik yetarlicha rivojlanmagan, ayniqsa, fakt-cheiking va mediasavodxonlik bo'yicha bilimlar

yetishmaydi; fake news va dezinformatsiya ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalib, manipulyatsiya usullari orqali jamiyatga katta ta’sir o’tkazmoqda; empirik tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, mediasavodxonlik va fakt-cheiking bo‘yicha treninglar talabalarning informatsion-analitik kompetentligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi ( $p < 0.001$ ); sun’iy intellekt, big data va avtomatlashtirilgan fakt-cheiking vositalari fake news tarqalishini kamaytirishga yordam beradi, ammo bu texnologiyalar hali keng joriy etilmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, informatsion-analitik kompetentlik fake news va dezinformatsiyaga qarshi samarali kurashishning muhim omillaridan biridir. Olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilib, ushbu kompetentlikning dolzarbliji va uni rivojlantirish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqot natijalari tasdiqladiki, fake news va dezinformatsiya ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalib, jamiyatda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelmoqda. Kontent-tahlil natijalariga ko‘ra, eng ko‘p tarqaladigan dezinformatsiya siyosiy, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy sohalarga taalluqli bo‘lib, bu natijalar S.Vosoughi, D.Roy va S.Aral [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, E.Tandoc, Z.Lim va R.Ling [6] tomonidan taqdim etilgan fake news klassifikatsiyasi (satira, manipulyatsion axborot, to‘qib chiqarilgan yangiliklar) ushbu tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Olingan ma’lumotlar shuni ko’rsatdiki, jamiyat a’zolari ko‘pincha noto‘g‘ri kontekstdagi axborotni haqiqat sifatida qabul qilishadi, bu esa dezinformatsiya tarqalishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida o’tkazilgan eksperiment shuni ko’rsatdiki, mediasavodxonlik va fakt-cheiking bo‘yicha treninglar ishtiroychilarning fake newsni aniqlash qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi ( $p < 0.001$ ). Bu natijalar xalqaro tajribalar bilan hamohang bo‘lib, Finlandiya va Singapur ta’lim tizimlarida mediasavodxonlikni maktab va universitet dasturlariga integratsiya qilish orqali dezinformatsiyaga qarshi samarali kurash olib borilayotganligi bilan bog‘liq.

Xususan, D.Buckingham [1] mediasavodxonlikning axborotni tahlil qilish va tanqidiy tafakkur bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. Bizning tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, media-savodxonligi yuqori bo‘lgan talabalar fake newsni ancha tezroq aniqlashga qodir. Shu bois, ta’lim tizimida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri media-savodxonlik dasturlarini kengaytirish va fakt-cheiking ko‘nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

So‘nggi yillarda big data, sun’iy intellekt va natural language processing (NLP) asosida ishlovchi algoritmlar dezinformatsiyaga qarshi samarali vosita sifatida foydalanilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar avtomatlashtirilgan fakt-cheiking platformalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar.

Masalan, L.Graves [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellekt yordamida ishlovchi fakt-cheiking platformalarining samaradorligi o‘rganilgan bo‘lib, natjalarga ko‘ra, bunday vositalar fake news va dezinformatsiyaning tarqalish tezligini kamaytirishga yordam beradi. Bizning tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, fakt-cheiking vositalaridan muntazam foydalanish axborot manipulyatsiyasiga qarshi immunitetni oshiradi.

Shu bois, axborot iste’molchilarining avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim. Xususan, talabalarga Google Reverse Image Search, Snopes, FactCheck.org va Media Bias/Fact Check kabi vositalardan foydalanishni o‘rgatish dezinformatsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot informatsion-analitik kompetentlikning fake news va dezinformatsiyaga qarshi kurashishdagi muhim omillardan biri sifatida tutgan o‘rnini ilmiy asosda tadqiq etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yolg‘on axborot va dezinformatsiyaning tez tarqalishi global axborot makonining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, axborot oqimining tezkorligi va sun’iy intellekt orqali ishlab chiqilgan media-manipulyatsiya strategiyalari

---

dezinformatsiyaning keng ommaga tez va samarali yetib borishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot doirasida talabalar va pedagoglarning informatsion-analitik kompetentligini baholash, media-savodxonlik bo‘yicha treninglarning samaradorligini o‘rganish va fake news tahlilini amalga oshirish orqali quyidagi xulosalar chiqarildi:

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati, jumladan, 58 foizi faqat bitta axborot manbaiga tayanib xabarlarni ishonchli deb hisoblaydi, bu esa noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu bois, axborot manbalarini tahlil qilish va fakt-cheiking usullaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati mavjud.

Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, treninglardan keyin fake newsni aniqlash qobiliyati 65 foizga oshgan. Bu shuni anglatadiki, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o‘quv dasturlari va tanqidiy tafakkurga asoslangan treninglar orqali media-savodxonlikni rivojlantirish dezinformatsiyaga qarshi kurashda samarali strategiya bo‘lishi mumkin.

Kontent-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, fake newslar asosan siyosiy manipulyatsiyalar (42%), sog‘liqni saqlash (33%) va iqtisodiy yolg‘on axborotlar (10%) doirasida ko‘proq uchraydi. Bunday yolg‘on axborotlar ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalib, aholi orasida noto‘g‘ri tushunchalar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, axborot iste’molchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, fakt-cheiking platformalaridan foydalanish mediasavodxonlik darajasini oshirishga yordam beradi, ammo talabalar bu vositalardan keng foydalanishga yetarlicha tayyor emas. Shu sabab, sun’iy intellekt asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlar ishlab chiqish zarur.

### **Adabiyotlar**

1. Buckingham D. The Media Education Manifesto. Polity Press, 2019.  
P. 140.

2. Graves L. Understanding the Promise and Limits of Automated Fact-Checking. *Journalism Studies*, 19(1), 2018. P. 1-14.
3. Koltay T. The media and the literacies: Media literacy, information literacy, digital literacy. *Media, Culture & Society*, 33(2), 2011. P. 211-221.
4. Vosoughi S., Roy D., Aral S. The spread of true and false news online. *Science*, 359(6380), 2018. P. 1146-1151.
5. Wardle C., Derakhshan H. Information disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making. Council of Europe report, 2017. P.109.
6. Tandoc E.C., Lim Z.W., Ling R. Defining “Fake News”: A typology of scholarly definitions. *Digital Journalism*, 6(2), 2018. P. 137-153.
7. McDougall R.J. Computer knows best? The need for value-flexibility in medical AI. *Journal of Medical Ethics*, 45(3), 2019. P. 156-160.
8. Livingstone S., Helsper E.J. Balancing opportunities and risks in teenagers’ use of the internet: The role of online skills and internet self-efficacy. *New Media & Society*, 12(2), 2010. P. 309-329.
9. Hjorth F., Adler-Nissen R. Ideological asymmetry in the reach of pro-Russian digital disinformation to United States audiences. *Journal of Communication*, 69(2), 2019. P. 168-192.
10. Mali D., Lim H. How Do Students Perceive Face-To-Face/Blended Learning As a Result of the Covid-19 Pandemic? *The International Journal of Management Education*, 2021. Article ID: 100552. P. 12.
11. Hobbs R., Smith L. Digital Authorship: Issues and Opportunities, 2018. P.11.
12. Creswell J.W., Plano Clark V.L. Designing and Conducting Mixed Methods Research (3rd ed.). SAGE Publications, 2018. P. 520.

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### GLOBALLASHGAN TA’LIM SHAROITIDA “TARBIYA” FANI O’QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MODELI

Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich

A.Avloni nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, dotsent, O’zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Tarbiya” fani o’qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish modeli keltirilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan modelni samaradorligini aniqlash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

**Tayanch so‘zlar:** model, tarbiya, raqamli texnologiya, masofaviy o‘qtish, bulutli xizmat, refleksiv, ijodiy, motivatsion.

### МОДЕЛЬ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВОСПИТАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Джуманазаров Сирохиддин Салайдинович

Национальный институт педагогического мастерства им. А. Авлони, доцент,  
Узбекистан

**Аннотация:** В статье представлена модель непрерывного профессионального развития учителей предмета «Воспитание». Также была проведена педагогическая экспериментальная работа по определению эффективности разработанной модели, и доказан уровень ее эффективности с использованием критерия Стьюдента-Фишера.

**Ключевые слова:** модель, образование, цифровые технологии, дистанционное обучение, облачный сервис, рефлексивный, творческий, мотивационный.

### A MODEL OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF EDUCATION TEACHERS IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION OF EDUCATION

Jumanazarov Sirojiddin

A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills, Associate Professor, Uzbekistan

**Abstract:** This article presents a model of continuous professional development for teachers of the subject "Education". Also, pedagogical experimental work was carried out to determine the effectiveness of the developed model, and its level of effectiveness was proven using the Student-Fisher criterion.

**Keywords:** model, education, digital technology, distance learning, cloud service, reflexive, creative, motivational.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o’qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni zamonaviy yondasuvlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bularni amalga oshirishda mamlakatimiz pedagogik mahorat milliy instituti va viloyat pedagogik mahorat markazlarida ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashularining shakl va texnologiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi [1, 3, 8].

Buni amalga oshirishda pedagogik mahorat milliy instituti va pedagogik mahorat markazlarida konsultativ-uslubiy yordam xizmatlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish, malakasini oshirish, kasbiy bilimlarini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarni o‘zaro integratsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun, dastlab sohaga oid olimlarning tadqiqotlarini tahlil etishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar A.S.Djurayev [1], M.T.Jumaniyozova [2], D.M.Xakimova [3], A.A.Ibragimov [4], D.M.Mamatqulov [5], Sh.Q.Mardonov [6], A.E.Obidov [7], D.O‘.Qarshiyeva [8] kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

Shu bilan birga, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida ko‘p bosqichli ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning malakasini oshirish masalalari bo‘yicha S.K.Berejnaya [9], S.G.Yemuzova [10], L.V.Ivanova [11], G.V.Kalkova [12], Z.Z.Serganova [13], N.X.Sirempilova [14] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Keltirilgan olimlarning ishlarida umumiyligi o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonida o‘qituvchining loyiha kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyasi, uzlusiz kasbiy rivojlanish jarayonida maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish texnologiyalariga qaratilgan bo‘lib, biroq ularning tadqiqotlarida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzlusiz kasbiy rivojlantirishga e’tibor qaratilmagan. Shu bois ilgari surilayotga tadqiqot, ya’ni “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzlusiz kasbiy rivojlanish modelini ishlab chiqish muhim masalalardan biri sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Rivojlanishning yangi sharoitida pedagogik mahorat markazlari vazifasi rivojlanayotgan axborot jamiyatining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, har bir maktab o‘qituvchisini, shu jumladan “Tarbiya” fani o‘qituvchisining innovatsion rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Chunki, bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarga ta’lim berish bilan, ularning tarbiyalash dolzarb


---

masalalardan biri bo‘lmoqda. Bu kabi muammolarni yechishda, dastlab “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish modelini ishlab chiqish va ularning joriy etishni taqozo etadi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqildi (3.1-rasmga qarang).

Taklif etilayotgan model tashkiliy, texnologik, tahlil va diagnostika qismlaridan iborat. Tashkiliy qismda “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsad va vazifalari belgilangan.

Texnologik qismda “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish shakllari, raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari va “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish funksiyalari, komponentalari hamda ta’lim texnologiyalari keltirilgan.

Modelni tashkil etish shakllarida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish offlayn va onlayn shaklda amalga oshirish nazarda tutilgan. Bunda dastlab “Tarbiya” fani o‘qituvchilari onlayn shaklda malaka oshiradi. Ya’ni, “Tarbiya” fani o‘qituvchilari raqamli texnologiyalari, shu jumladan ta’lim muhitlari, masofaviy o‘qitish tizimlari va bulutli xizmatlar yordamida uzluksiz kasbiy rivojlantirilib boriladi. Shuningdek, ta’lim muhitlari yordamida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining darslarni loyihalash kompetentligini rivojlantirish nazarda tutilgan. Chunki, ta’lim muhitlari yordamida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish asosida “Tarbiya” darslarini samarali tashkil etish imkoniyatiga erishiladi.



**3.1-rasm. “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzlusiz kasbiy rivojlantirishni strukturaviy-funksional modeli**

Shu bilan birga taklif etilayotgan strukturaviy-funksional modelda “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanganlik darajasini baholashning quyidagi mezonlari taklif etilmoqda: o‘qituvchining fan pozitsiyalarining dinamikasi; fanga asoslangan va pedagogik-psixologik modullar doirasidagi malakalarining rivojlanish darajasi; refleksiv malakalarining rivojlanish darajasi; ijodiy faoliyat tajribasi; motivatsion va qiymatga asoslangan munosabat kasbiy rivojlanish.

Ushbu taklif etilayotgan baholash mezonining har biri yuqori, o‘rtaligida o‘rtachasi olinadi. Buning natijasida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanganlik darajasi aniqlanadi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan, ya’ni “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni strukturaviy-funksional modelini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri pedagogik mahorat markazi, Namangan pedagogik mahorat markazi va Samarqand pedagogik mahorat markazlarida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini jalb etildi. Jalb etilgan “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Bunda tajriba guruhi uchun 228 nafar, nazorat guruhiga esa 227 nafar “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini jalb etildi. Tajriba guruhiga jalb etilgan “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tadqiqot toirasida taklif etilgan strukturaviy-funksional modelidan foydalanib uzluksiz kasbiy rivojlantirildi. Nazorat guruhiga esa ushbu imkoniyat berilmadi. Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili qilindi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rtaligida qiymatlar  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i$ ,

tarqoqlik koeffitsiyentlarini  $D_n = \sum_{i=1}^3 \frac{n_i(x_i - \bar{X})^2}{n-1}$ , formulalardan foydalanildi.

Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining ko‘rsatkichi nazorat guruhinikidan yuqori ekanligi, ya’ni 12,76 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, tadqiqot doirasida taklif etilayotgan strukturaviy-funksional modeldan “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzlucksiz kasbiy rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda “Tarbiya” fani o‘qituvchilari mustaqil izlanish orqali kasbiy rivojlanishga erishiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Джураев А.С. Малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг касбий малакасини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – 52 б.
2. Жуманиёзова М.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятига тайёрлашнинг педагогика асослари // Педагогика фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 2007.–176 б.
3. Xakimova D. M. Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 74 б.
4. Ибрагимов А.А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 56 б.
5. Маматқулов Д.М. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2018. – 48 б.
6. Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари // Педагогика фанлари доктори диссертацияси. –Т., 2006. –302 б.
7. Обидов А.Э. Педагог кадрларни малакасини ошириш жараёнларини вебинар технологияси асосида такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т., 2020. – Б .48

8. Каршиева Д.Ў. “КВЕСТ” технологияси асосида мактаб ўқитувчиларининг дарсларни лойиҳалаш компетентлигини ривожлантириш (Узлуксиз касбий ривожлантириш тизими мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Самарқанд, 2022. – 148 б.

9. Бережная С.К. Вариативный подход к повышению квалификации педагогических работников профессиональной школы // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2000. – 159 с.

10. Емузова С. Г. Становление и развитие системы повышения квалификации педагогических кадров кабардино-балкарской республики // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.– Владикавказ, 2006. – 24 с.

11. Иванова Л.В. Педагогические условия развития проектной компетентности учителя в системе повышения квалификации // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Орел, 2015. – 251 с.

12. Калькова Г.В. Совершенствование процесса повышения квалификации педагогических кадров среднего профессионального образования // Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2015. – С.24.

13. Серганова З.З. Педагогическое содействие совершенствованию профессионального мастерства учителей общеобразовательных организаций в системе повышения квалификации Специальность // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Грозный, 2020. – 27 с.

14. Цыремпилова Н.Х.Повышение квалификации педагогов в условиях многоуровневого обучения // Диссертация кандидат педагогических наук. 2004. –220 с.

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH UCHUN TAYANILADIGAN TAMOYILLAR

*Isroilova Ruhshona Sunnatovna*

*Navoiy davlat universiteti, dotsent, O‘zbekiston*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalilaniladigan tamoyillarga oid olimlarning ishlari tahlil etilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uchun tayaniladigan tamoyillar taklif etilgan.

*Tayanch so‘zlar:* kasbiy kompetentlik, ijodiy qobiliyat, raqamli texnologiya, tamoyil, axborot texnologiya.

### ПРИНЦИПЫ, НА КОТОРЫЕ ОПИРАЮТСЯ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Исраилова Рухшана Суннатовна*

*Навоийский государственный университет, доцент, Узбекистан*

*Аннотация:* В данной статье анализируются труды ученых, касающиеся принципов использования информационных технологий для повышения эффективности преподавания дисциплин. Также предлагаются принципы, на которые можно опираться при использовании цифровых образовательных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов.

*Ключевые слова:* профессиональная компетентность, творческие способности, цифровые технологии, принцип, информационные технологии.

### PRINCIPLES FOR UTILIZING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

*Israelova Rukhshona*

*Navoi State University, Associate Professor, Uzbekistan*

*Abstract:* This article analyzes scholars’ works on the principles of using information technologies to enhance the effectiveness of teaching various subjects. Additionally, it proposes principles for utilizing digital educational technologies to develop the professional competence of future primary school teachers.

*Keywords:* professional competence, creative ability, digital technology, principle, information technology.

**Kirish.** Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashda qo‘yiladigan asosiy vazifa maztab o‘quvchilarining har tomonlama shaxs bo‘lib shakllantirishdan iborat hisoblanadi. Bu esa bugungi yangi ta’lim paradigmasi sharoitida umumiyo o‘rta ta’lim makatablariga birinchidan, o‘z fanini mukammal biladigan, ikkinchidan, ko‘p madaniyatli muhitda yosh avlodni

---

rivojlantirish uchun barcha zarur pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishga qodir bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashni taqozo etadi.

Chunki, boshlang‘ich mакtab o‘qituvchisiga o‘quv jarayonida alohida vazifa yuklanadi, ya’ni o‘sib borayotgan shaxsning “poydevori” boshlang‘ich mакtab yoshida quriladi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri sanaladi.

Ilgari surilayotgan tadqiqot ham ushbu masalaga qaratilgan bo‘lib, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalanish nazarda tutilgan. Ushbu ilgari surilayotgan tadqiqotni amalga oshirish uchun dastlab, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalaniladigan tamoyillarini aniqlashtirish, agar lozim bo‘lsa takomillashtirishni taqozo etadi. Buning uchun esa dastlab sohaga oid olimlarning tadqiqotlarini o‘rganishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim texnologiyalaridan raqamli o‘quv vositalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar V.A.Krasilnikova [1], U.M.Mirsanov [2,3], M.H.Lutfillayev [4], A.O.Norbekov [5], U.B.Baxodirova [6], J.Elmurodov [7], kabi olimlar tamonidan tadqiqot ishlarini olib borgan. Ularning tadqiqotlarida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda tayaniladigan tamoyillarni taklif etgan.

Ularning bildirishicha, ta’lim tamoyillarining asosiy g‘oyalari har qanday boshlang‘ich nazariya, qonun, ta’lim konsepsiysi negiziga bog‘liq hisoblanadi. Tamoyillar to‘plami muayyan uslubiy yoki mafkuraviy asosga ega konseptual tizimni tashkil etadi. Turli pedagogik tizimlar (texnologiyalar) ta’limga oid qarashlar va amaliyotga tatbiq etadigan tamoyillari tizimidan farq qilishi mumkin. Shuning uchun bir tomonidan tamoyillar ta’lim nazariyasining ba’zi metodologik asoslarini ta’riflaydi, boshqa tomonidan ular amaliy faoliyatni tashkil etish uchun me’yoriy talablar kabi vazifalarni bajaradi [8.].

Bu borada T.Utebayevning fikriga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda o‘qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ta’limning amaliy hayot bilan bog‘lanishi, onglilik va faollik, ko‘rsatmalilik, tushunarlilik, puxtalik tamoyillariga tayaniladi [9]. Ushbu fikrlarni M.H.Lutfillayev [4], U.M.Mirsanov [2], A.O.Norbekov [5], U.B.Boxadirova [6]larning ishlarida ham ko‘rish mumkin.

Ammo fanlarning mazmuniga, talabalarning psixologik xususiyatlariiga va ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq holda tayaniladigan tamoyillar mazmuni o‘zgaradi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyili matematikani o‘qitish jarayonida grafiklarni, sohalarni va geometrik shakllarni namoyish etishda qo‘l kelsa, tillarni o‘qitishda grammatika jadvallarini ko‘rsatish, doskaga yozish, chizmalarni chizish kabilardan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin [9].

Shuning uchun bugungi globallashuv sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashda tayaniladigan tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish, agar lozim bo‘lsa takomillashtirishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi umumiy tamoyillarga tayanish lozim degan xulosalarga kelindi: tarbiyaviy faoliyatni faollashtirish tamoyili; ta’lim mazmuni va texnologiyalarining professional muhit bilan integratsiyasi tamoyili; o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish tamoyili; hamkorlik va o‘zaro ta’sir orqali o‘rganish tamoyili; moslashuvchanlik tamoyili; amaliyatga yo‘naltirilganlik tamoyili; maqsadlilik tamoyili; muvaffaqiyatli ta’lim tamoyili; ta’lim natijalarini baholashning obyektivligi.

**Tahlil va natija.** Taklif etilayotgan tamoyillar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni umumiy tamoyillar sifatida e’tirof etish mumkin. Bularni amalga oshirishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishning quyidagi tamoyillarga tayanishni taqozo etadi:

4) *Ilmiylik tamoyili.* Ushbu tamoyil mashg‘ulotni tashkil etishda ilmiy manbalarga tayanishni talab etadi. Bu borada U.M.Mirsanov [2], U.B.Boxadirova [6],

V.A.Krasilnikova [1]larning fikriga ko‘ra, fanga oid so‘nggi ilmiy izlanishlar va yutuqlarga asoslangan holda o‘quv materialining yetarlicha ishonchligini hamda samarali taqdim etilishini ta’minlashi lozimligini ta’kidlaydi. A.O.Norbekovning fikriga ko‘ra, ilmiylik tamoyili fanga oid auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtarda talabalarni ma’lum bir mavzuning ilmiy faktlar, qonuniyatlar, asosiy nazariyalar, tushunchalar bilan tanishtirishga, uning so‘nggi yutuqlari va rivojlanish istiqbollarini amalga oshirishni nazarda tutadi [5].

Bizning fikrimizcha, ilmiylik tamoyili bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashda kasbiy fanlarni ishonchli ilmiy faktlar, tushunchalarga asoslanishi hamda bilishning ilmiy usullaridan foydalanishini anglatadi. Chunki obyektiv voqelik to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur beradigan ilmiy bilimdir. Raqamli ta’limda ilmiylik tamoyili bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga taqdim etilayotgan, tasdiqlangan ilmiy faktlar va bilimlarni, shu jumladan internet resurslaridan olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan o‘quv ma’lumotlarining ishonchliligi va to‘g‘riliqida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining rivojlanishiga va xususan uning aqliy faoliyatining tabiatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy bilimlar tizimini ishlab chiqish hamda kasbiy fanlar doirasidagi tizimli munosabatlar bilan tanishtirish kerak, bu esa yangi ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

2) *Mashg‘ulotni qulaylik tamoyili.* Taklif etilayotgan tamoyil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishda qulay o‘quv vositalardan, ya’ni pedagogik, psixologik va psixofiziologik talabalar asosida ishlab chiqilgan raqamli o‘quv vositalardan foydalanishni anglatadi. Elektron ta’lim sharoitida ushbu tamoyilni amalga oshirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, dasturiy ta’midot) va resurslar (ta’lim mazmuni) mavjudligini anglatadi. Global tarmoq orqali ma’lumot deyarli bir zumda uzatilishi mumkin. Elektron resurslar va axborot texnologiyalari o‘quvchilarga istalgan shaklda (matn, multimedia, animatsiya va boshqalar) taqdim etish imkonini beradi. O‘qitish

mazmuni, ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlari va ularning rivojlanish darajasiga mos ravishda tuzilishi kerak, bu ta’lim professor-o‘qituvchi tomonidan ortiqcha harakatlarni talab qilmasligi, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mavjud bilimlari va hayotiy tajribasiga asoslangan bo‘lishini taqozo etadi.

2) *Onglilik va faol o‘rganish tamoyili.* Ushbu tamoyil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘z (individual) ta’lim yo‘lini va atrofdagi ma’lumotlarning xilma-xilligini boshqarishga qodir bo‘lgan faol subyektiv pozitsiyasini mazmunli tanlash imkoniyatini berishdan iborat. Raqamli ta’lim jarayonida bu tamoyil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishini tashkil etish va ularni o‘quv jarayoniga jalb qilish hamda o‘quv mazmuni, ta’limni qo‘llab-quvvatlash vositalari va ish sur’atini tanlash imkoniyatini ta’minlashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3) *Bilimlarni egallashning mustahkamligi tamoyili.* Mazkur tamoyil optimal o‘quv yuki va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasi bilan kompetentligini mustahkam egallash zarurligini nazarda tutadi. Bunda o‘quv materialini kompyuterda vizuallashtirish va tizimlashtirish, interfaol rejimda ongi ravishda o‘qitish faoliyati, teskari aloqa asosida nazorat va tuzatish harakatlarini tashkil etish orqali erishiladi. Bu borada U.M.Mirisanov [2]larning bildirishicha, bilimlarni egallashning mustahkamligi tamoyili ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishi uchun yetarlicha ma’lumotlar bilan ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining motivatsiyasini oshirish hamda mustaqil ravishda o‘zini-o‘zi baholash imkoniyatini yaratadi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalari mustahkamlash yoki o‘zini-o‘zi nazorat qilish uchun turli o‘quv muammolarini hal qilishda o‘z o‘quv yukini nazorat qilishi va o‘tilgan materialga qaytish imkonini beradi.

4) *Mahshg‘ulotlarni vizuallashtirish.* Ushbu tamoyilning asosiy vazifalaridan biri faniga oid o‘quv materiallarni ko‘rgazmali ravishda namoyish etishni ta’minlashdan iborat. Bularga multimedia manbalari (animatsiya, audio, video)

kiritish mumkin. Bu borada, K.D.Ushinskiyning fikriga ko‘ra, vizual o‘qitish talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda hamda kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda muhim o‘quv vosita bo‘lib xizmat qiladi [11]. Bu tamoyil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashda o‘qitiladigan kasbiy fanlardan mashg‘ulotlarni multimedia va Internet texnologiyalari asosida amalga oshiriladi hamda turli xil vizual o‘qitish vositalari va ma’lumotlarni vizuallashtirish usullari (masalan, animatsiya, video, infografika, aqliy va interaktiv xaritalar) orqali o‘rganish samaradorligini oshiradi. Ushbu o‘quv vositalar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bir nechta sezgilar yordamida idrok etishi mumkin bo‘lgan turli shakllarda taqdim etilishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayoniga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

5) *Ta’limning ommaviyligi tamoyili.* Ushbu tamoyil raqamli ta’lim muhitida bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli ta’lim oluvchilarining o‘qitish imkonini beradi. Taklif etilayotgan tamoyilning asosiy g‘oyasi masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish (videokonferensiyalar, vebinarlar, onlayn kurslar va h.k.) asosida amalga oshiriladi, shuning uchun masofaviy ta’lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining keng ko‘lamda mustaqi ta’lim olish imkonini taqdim etadi.

6) *Ta’limni insonparvarlashtirish tamoyili.* Mazkur tamoyil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi, ulardan biri qulay muhit (joylashuv) va o‘qitish vaqtini hisoblanadi. Bunday holda, mashg‘ulotlarni amalga oshirishning asosiy sharti global tarmoqqa ulangan kompyuter (noutbuk, planshet yoki smartfon) mavjudligidir. Buning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining istalgan joyda va vaqtida ta’lim olish imkonini beradi.

7) *Murakkablikni oshirish tamoyili.* Ushbu tamoyil virtual muhitda ta’lim olishni anglatadi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining virtual muhitlar asosida o‘quv topshiriqlarini bajarishni taqdim etish va qabul qilish jarayonlari amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiylardan foydalanishni quyidagi maxsus tamoyillariga amal qilish lozim:

1) *Ta’limni individuallashtirish tamoyili.* Individuallashtirish tamoyili raqamli ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlantirishga qaratilganligi, ular uchun shaxsiylashtirish va individual ta’lim trayektoriyasini nazarda tutadi.

2) *Ta’limning uzluksizligi tamoyili.* Ushbu tamoyil fanini o‘qitishda tizimli va izchillikni ta’minlashni nazarda tutadi. Ya’ni fanga oid o‘qitiladigan mavzular va undan foydalaniladigan o‘quv vositalar tizimli hamda izchillik ravishda bo‘lishni talab etadi [10].

Raqamli ta’lim muhitida uzluksizlik tamoyili har qanday shaxsga butun umri davomida o‘z ta’lim (o‘zini-o‘zi tarbiyalash) darajasini oshirish imkonini beradi. O‘z navbatida, ta’lim tizimi, xususan, ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar ham ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunga turli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari, qo‘srimcha ta’lim dasturlari orqali erishiladi, ularni amalga oshirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’limni boshqarish tizimlarini qo’llash orqali erishish mumkin. Shuningdek, global tarmoqda mavjud bo‘lgan va ma’lum bir fan bo‘yicha bilimlarni olish yoki yaxshilashga qaratilgan ko‘p miqdordagi elektron ta’lim resurslari va axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, veb-saytlari mavjud. Bular yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlardan o‘tish imkoniyatiga ega.

3) *Mashg‘ulotning modulligi.* Raqamli ta’lim kontekstida modullik tamoyili o‘quv kursini alohida modullar (bo‘limlar) shaklida qurishni o‘z ichiga oladi, ularning har biri aniq didaktik maqsadlarga erishish uchun mo‘ljallangan kichikroq o‘quv birliklariga (mavzularga) bo‘linadi. Materialni modullarga bo‘lish bosqichma-bosqich o‘rganishga qaratilgan, shunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har

bir bo‘limni tugatgandan so‘ng qanday natija olishi kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi.

4) *Interfaol ta’lim olish tamoyili*. Interfaol ta’lim olish tamoyili ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarning bir-biri bilan kompyuter va Internet texnologiyalari orqali o‘zaro ta’sirining qonuniyatlarini aks ettiradi hamda motivatsiyani oshirish uchun sharoit yaratadi, mustaqil ishlash va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot texnologiyalaridan foydalangan holda nazorat qilish funksiyalarini kengaytiradi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan tamoyillarga tayanish taklif etiladi. Ushbu taklif etilayotgan tamoyillar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil izlanish orqali mashg‘ulotlarni raqamli ta’lim texnologiyalar asosida loyihalashga oid ijodiy qobiliyatini oshirishga va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiradi.

### **Adabiyotlar**

1. Красильникова В.А. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании // Учебное пособие. –Оренбург, 2012. – 291 с.
2. Мирсанов У.М.Умумий ўрта таълим мактабларида математикани амалий дастурлар ёрдамида ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси (5–6-синфлар мисолида)// Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 190 б.
3. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
4. Лутфиллаев М.Х. Олий таълим ўқув жараёнини такомиллаштиришда ахборот технологияларини интеграциялаш назарияси ва амалиёти (Информатика ва табиий фанлар мисолида) // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2007. – 246 б.

- 
5. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.
6. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.
7. Элмуродов Ж.А. Умумий ўрта таълим муассасалари учун очиқ ахборот-таълим мухитини яратиш ва жорий этиш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация. – Тошкент, 2020. – 143 б.
8. Махотин Д.А. Принципы технологического образования // Педагогические науки. Вестник РМАТ, – № 1, 2016. – С. 82-85.
9. Утебаев Т. Педагогика // Маъruzalap matni. – Нукус, 2008. – 64б.
10. Норбеков А.О. “Компьютер таъминоти” фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда таяниладиган тамойиллар // Инновацион ёндашувлар асосида миллий таълим тизимини такомиллаштириш мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. – Навоий, 2021. – 227-229 б.
11. [http://krip.kbsu.ru/pd/did\\_lec\\_4.html](http://krip.kbsu.ru/pd/did_lec_4.html) (Олингандан вақти: 16.07.2019).

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING GLOBAL TARMOQDAN AXLOQIY TARBIYALASH MUAMMOLARI

*Tleubayeva Zeinab Sagibayevna*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasи,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filia, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning tayyorlashs muammolari va yoshlarni tarbiyalashga oid olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muammolari, yechimlariga doir taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli texnologiya, global tarmoq, onlayn, tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyat, pedagogik qo’llab-quvvatlash.

### ПРОБЛЕМЫ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ГЛОБАЛЬНОЙ СЕТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

*Тлеубаева Зейнаб Сагибаевна*

*Нукусского филиала Самаркандинского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье представлен анализ проблем подготовки студентов и работы ученых по образованию молодежи в условиях цифровизации. Также были высказаны предложения и рекомендации относительно проблем и путей решения нравственного воспитания учащихся с использованием глобальной сети в условиях цифровизации.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, глобальная сеть, онлайн, образование, духовно-нравственные ценности, педагогическое сопровождение.

### PROBLEMS OF MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN THE GLOBAL NETWORK IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION

*Tleubaeva Zeynab*

*Nukus branch of the Samarkand state university of veterinary medicine, livestock and biotechnologies, Uzbekistan*

**Abstract:** The article presents an analysis of the problems of training students and the work of scientists on the education of young people in the context of digitalization. Also, proposals and recommendations were made regarding the problems and solutions of moral education of students using the global network in the context of digitalization.

**Keywords:** digital technologies, global network, online, education, spiritual and moral values, pedagogical support.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining aksariyatida telefon, smartfon va planshetlar mavjud bo‘lib, ulardan o‘quvchilar turli maqsadlarda, ya’ni videorloliklarni ko‘rish, onlayn o‘yinlarni o‘ynash, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish va telegram tarmoqlari orqali tengdoshlari bilan ma’lumotlar almashish va turli axloqsiz videolarni ko‘rish orqali o‘z vaqtini samarasiz o‘tkazilib kelmoqda. Buning natijasida

o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini susayishiga, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yuzaki bajarishga, global tarmoqdan tayyor javoblarni olishga hamda tarbiyaga ta’sir qiluvchi immuniteti shakllanmoqda [1]. Shu bois, raqamli sharoitda o‘quvchilarning global tarmoqdan axloqiy foydalanishni tarbiyalash dolzARB muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun dastlab, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi va amaliyoti, o‘quvchilarning tarbiyalash muammolari hamda o‘quvchilarning global tarmoqdan foydalanish madaniyatiga oid olib borilgan olimlarning tadqiqotlarini o‘rganishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi amaliyotiga oid tadqiqotlar H.I.Xanbabayev [2], B.Dendeva [3], B.A.Kondratenko [4], Benjamin Clément [5], L.F.Adriana [6], Andrija Bernik [7], Adriano Del Pino Lino [8], J.A.Elmurodov [9], O.V.Nartova [10] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘quvchi-talabalarning fanga oid motivatsiyasini, ijodiy qobiliyatini oshirish, mantiqiy, algoritimik, kognitiv fikrlashini rivojlantirish hamda kompetensiyalarini shakllantirish va kompetentligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Ularning ishlarida o‘quvchi-talabalarga raqamli texnologiyalarning tarbiyaga ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganmagan.

Shuningdek, yoshlarni tarbiyalash muammolari, tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy-o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari, talabalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash mexanizmlariga oid tadqiqotlar И. А.Tagunova [11], N. L.Selivanova [11], M. A.Isayeva [11], N.E.Azimova [12], F.B.Valixo‘jayeva [13], Z.K.Kurbaniyazova [14], О.Газман [17] kabi olimlar tomonida tadqiq etilgan. Mazkur olmlarning ishlarida yosh avlodni tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti, tarbiyalashga tayaniladigan tamoyillar va tarbiya metodlari ishlab chiqilgan. Ushbu olimlarni ishlarida yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lsa-da, biroq raqamli texnologiyalar sharoitida tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga yoshlarni tarbiyalashda global tarmoqning ta’siriga doir izlanishlar S.B.Sudina [15], S.A.Marketova [16], N.V.Gerova [18], N.O.Shpak [19]larning ishlarida keltirilgan.

Ushbu tadqiqotchilarining ishlarida yoshlarni tarbiyasida global tarmoqning ta’sirlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarining global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash ilmiy-amaliy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda kuchli, nazoratsiz axborot oqimi ma’naviy-axloqiy yo‘l-yo‘riq izlayotgan yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar dunyoga ochiq, ammo rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘g‘ri tanlashga tayyor emaslar [17]. G‘arb madaniyati taklif qilayotgan har bir manbada madaniy an‘analar va mamlakatimiz mentalitetini hisobga olgan holda ijobjiy tajribani qabul qilishni va uni milliy tarbiya muhitiga aylantirishni o‘rganish muhimdir. Endi biz har qachongidan ham ko‘proq boshqa madaniyatlar bilan munosabatda bo‘lishni, bag‘rikenglik va konstruktiv muloqot olib borishni o‘rganishimiz kerak.

Zamonaviy jamiyatda global tarmoqdagi ma’lumotlarning yoshlarni ma’naviy va axloqiy qadriyatlariga ta’sirini o‘rganish zarurati mavjud. Muammo shundaki, yoshlar o‘zлari olgan va tarqatayotgan ma’lumotlarning sifati, insonlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga ta’siri haqida o‘ylamaydilar.

Fikr va e’tiqod hamda ommaviy axborot vositalari erkinligi zamonaviy jamiyat va demokratik davlat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda zarur bo‘lgan muayyan cheklovlar qo‘yilishi mumkin.

Keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, bugungi kunda umumiyl o‘rtta ta’lim maktabi o‘quvchilarining global tarmoqdan foydalanish madaniyatini va axloqiy tarbiyalash zarurati mavjud.

Bu borada S.B.Sudinaning fikriga ko‘ra, umumiyl o‘rtta ta’lim maktabi o‘quvchilarining axloqiy tarbiyalash muammolarini hal qilish jamiyatning axborot

rivojlanishi sharoitida ayniqsa muhimdir, chunki bola yoshligidanoq zamonaviy texnologiyalar, jumladan, Internet texnologiyalari bilan tanishadi. Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, zamonaviy o‘quvchilarining asosiy qiziqishi tarmoq texnologiyalari bilan bog‘liq [15]. Shuning uchun zamonaviy voqelik muhitida o‘quvchining manfaatlarini hisobga olgan holda global tarmoq texnologiyalaridan foydalanishda ijobiy omillarni kuchaytirishga yordam beradigan tizimni ishlab chiqishga undashi kerak.

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarga mustaqil axloqiy tanlov qilishda yordam berish kerak. Yosh avlodga ushbu tanlovda yordam beradigan vositalar tizimi pedagogik yordamdir. Ushbu masalalar bo‘yicha O.S.Gazman izlanishlar olib brogan. O.S.Gazman ta’lim va tarbiya bilan birgalikda uchinchi komponent sifatida “pedagogik qo‘llab-quvvatlash” nazariyasini taklif etgan. Unga ko‘ra, pedagogik qo‘llab-quvvatlashning predmeti o‘quvchilarning shaxsiy manfaatlarini, maqsadlarini, imkoniyatlarini va uning insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishga to‘sinqlik qilishni bartaraf etish usullarini birgalikda aniqlash jarayonidir. Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashicha, pedagogik yordam ko‘proq subyektlarning mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, individual yondashuv tamoyillari va o‘quvchining faol pozitsiyasi, ijodiy hamkorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi, shu bilan ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyalarini amalga oshirishni ta’minlaydi hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘zini-o‘zi anglash uchun sharoit yaratadi [17].

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, umumiyl o‘rtta ta’lim maktabi o‘quvchilarini Internet-texnologiyalari bilan pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalangan holda yaxlit ta’limga ko‘maklashish zarur. Chunki ular, hayotning axloqiy rivojlanishi jarayonini faollashtirishga imkon beradi va maktablarda axloqiy tarbiya jarayonini jamiyatdagi tarmoq o‘zaro ta’sirining hozirgi rivojlanish darajasiga moslashtirishga hissa qo‘shadi. Shu munosabat bilan maktab o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasini pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida tarmoq texnologiyalaridan foydalanan imkoniyatlarini topish muammosi paydo bo‘ladi. S.A.Marketovaning fikricha, agar pedagogik yordam tarmoq (Internet)

texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilsa, uni tarmoq ta’minoti deb atash mumkin. Uning bildirishicha, tarmoq texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyani pedagogik qo‘llab-quvvatlash, axloqiy tarbiya jarayonini tarmoq qo‘llab-quvvatlashdir [16].

**Tahlil va natija.** Shunday qilib, keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarining global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muhim masalalarda biri sanaladi. Shu bois, tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan muammoni aniqlash maqsadida dastlab umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining global tarmoqqa bo‘lgan munosabati va undan foydalanishga oid kuzatishlar va anketa so‘rovlari o‘tkazildi. Bunda maktab o‘quvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- bir kunda global tarmoqdan qancha vaqt foydalanasisiz?;
- global tarmoqdan nima maqsadda foydalanasisiz?;
- qaysi tarmoqlardan ko‘proq foydalanasisiz?;
- onlayn o‘yinlar o‘ynaganmisiz?;
- global tarmoqda e’lon qilingan ma’lumotlarga huquqiy javobgarlik mavjudligini bilasizmi?;
- global tarmoqdan ishonchli ma’lumot olishni xohlaysizmi?;
- global tarmoqdagi axborotni tanqidiy idrok etaolasizmi?;

Ushbu so‘rovnomalardan quyidagi xulosaga kelindi. So‘rovnama o‘tkazgan o‘quvchilarining 90 % i har kuni global tarmoqdan foydalaniladi. Aksariyat o‘quvchilar turli ko‘ngilochar videolardan foydalanish ma’lum bo‘ldi. So‘rovnomada qatnashgan o‘quvchilarining 83 % i har kuni onlayn o‘yinlar o‘ynashi aniqlandi. O‘quvchilarining 46 % i global tarmoqda e’lon qilgan ma’lumotlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi yangi qonun haqida biladi, 54 f% i esa bilmaydi. 75% axborot tarqatish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor, 25% esa javob berishga qiynaladi. So‘ralganlarning 100% ishonchli ma’lumot olishni xohlaydi. 63 % i axborotni tanqidiy idrok eta olishiga ishonadi, 13 % iidrok eta olmaydi, 24 % i javob berishga

qiynaladi. 82 % i axborotni tahlil qilib, unga holis baho bera olishiga ishonsa, 10 % bilmaydi, 8 % i javob berishga qiynaladi.

Shu bilan birga umumiylar o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga global tarmoqqa joylashtirilgan ma’lumotlarning yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir darajasini aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazildi. Unda umumiylar o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- global tarmoqdagi ma’lumotlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadimi?;
- global tarmoqning salbiy ta’siridan o‘zlarizingizni himoya qilaolasizmi?;
- mamlakatimizda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish (sevgi, yordam berish va birdamlik) orqali yoshlarni madaniyat darajasini oshirishga munosabatingiz?.

Ushbu keltirilgan so‘rovlardan tahliliga ko‘ra, o‘quvchilarning 32 % iga global tarmoqdagi ma’lumotlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmaydi, 54 % iga ta’sir etadi, 20 foizi esa javob berishga qiynalaman degan fikrlarni bildirdi. O‘quvchilarning 77 % i global tarmoqning salbiy ta’siridan o‘zini himoya qila olishiga ishonchi komil, 7 % i himoya qilaolmasligi, 14 % i aniq fikr bildira olmayman degan fikrlarni bildirdi. O‘quvchilarning 81 % i ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali mamlakatimizda milliy madaniyat darajasini oshirish zarur, deb hisoblaydi, 6 % i bu zarur emas, 13 % i aniq fikr bildirolmasligini ta’kidladi.

Shu bilan birga o‘quvchilarning qo‘l telefonlari va kompyuterlardan foydalangan manbalarini tarixi tekshirildi (kompyuter va telefonni xotirasida global tarmoqdan foydalangan manbalar). Tahlil qilingan telefon va kompyuterlarning 82 % i da o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi manbalar borligi aniqlandi.

Olib borilgan qisqa tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, bugungi kunda o‘quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muhim masalalardan biri ekanligi ma’lum bo‘ldi. Muammolarni yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- global tarmoqdagi ma'lumotlarni filtirlash (keraksiz ma'lumotlarga to'siq qo'yish);
- tarbiya darslarida global tarmoqning ta'sirini tushuntirishga alohida e'tibor qaratish;
- o'quvchilarga ta'limga oid ta'lim muhitlardan foydalanish usullarini o'rgatish;
- uy sharoitida o'quvchilarni global tarmoqdan foydalanish holatini tahlil etib borish;
- o'quvchilarning onlayn muhitlar yordamida jamoa bo'lib dasturlashga oid motivatsiyasini oshirish;

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko'ra, shunisi e'tiborga loyiqliki, o'quvchilar o'zlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlanТИRISH va shakllantirishni xohlashadi, ammo ular o'zlar ustida ishlashni (fanlarni o'zlashtirish) afzal ko'rishadi. Chunki ular uchun kollektivizm emas, balki individuallik ustuvor hisoblanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda G'arb turmush tarzi - shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan iste'mol uslubi ildiz otgan. Shuning uchun o'quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, biz shunday xulosaga keldikki, umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari global tarmoqdan ishonchli ma'lumot olishni xohlashadi va o'zlar yozgan izohlar hamda ma'lumot tarqatish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor. Biroq o'quvchilarning barchasi ham global tarmoqning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'siri kuchini bilmaydi. Shuning uchun raqamlashtirish sharoitida o'quvchilarning vatanparvari bo'lib yetishishiga ko'maklashish, ularni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'plash va asrab-avaylashga, boshqa madaniyat vakillari bilan bag'rikeng muloqotni amalga oshirishga yo'naltirish zarurligi ayon bo'lmoqda.

## Adabiyotlar

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Xanbabayev H.I. Pedagogika oliv ta’lim muassasalari talabalari raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – qo‘qon, 2023. – 243 b.
3. Дендева Б. Информационные и коммуникационные технологии в образовании // Монография. – Москва, 2013. – 320 с.,
4. Кондратенко Б.А. Персонализация профессионального обучения с использованием информационно-коммуникационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Калининград, 2015. – 205 с.,
5. Benjamin Clément. Adaptive Personalization of Pedagogical Sequences using Machine Learning. Artificial Intelligence [cs.AI]. – Université de Bordeaux, 2018. – 139 p.,
6. Adriana L.F. A dinâmica de relacionamento entre as Tecnologias da Informação e o Desempenho Organizacional no contexto da indústria da hotelaria // Tese especialmente elaborada para obtenção do grau de Doutor em Ciências e Tecnologias da Informação. – Dezembro, 2017. – 273 p.
7. Andrija Bernik. Uvođenje elemenata računalne igre u online poučavanje sadržaja informatičkih nastavnih predmeta // DOKTORSKI RAD. – Varaždin, 2017. – 416 p.
8. Adriano Del Pino Lino. Labder - laboratório virtual de ensinoaprendizagem de banco de dados relacionais: uma abordagem de avaliação automática de diagramas er e SQL. Maio de 2021. – 350 p.
9. Элмуродов Ж.А. Умумий ўрта таълим муассасалари учун очик ахборот-таълим мухитини яратиш ва жорий этиш методикасини

такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2021. – 152 б.

10. Нартова О.В. Педагогические условия формирования мотивации учебной деятельности учащихся в открытом образовательном пространстве // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Барнаул, 2011. – 259 с.

11. Тагунова И. А., Селиванова Н. Л., Исаева М. А. Теоретико-методологические ориентиры моделей воспитания в англоязычных странах // Вестник православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. Серия IV: «Педагогика. Пси-хология». Выпуск 3 (38). 2015. – С. 20–36

12. Азимова Н.Э. Бўлажак қасб таълими ўқитувчини тарбиялаш технологияси. // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.– Тошкент, 2012. – 146 б.

13. Валихўжаева Ф.Б. Талабаларни мактабгача таълим муассасаларида болаларга эстетик тарбия беришга тайёрлаш // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Самарқанд, 2005. –139 б.

14. Курбаниязова З.К. Тарбиявий ишлар жараёнида ўқувчиларда миллий-ўзликни англашни шакллантиришнинг педагогик асослари (Қорақалпоқ мактабларининг VII-IX синфлар мисолида ) // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т., 2002. –148 б.

15. Судьина С. Б. Разработка модели сетевой поддержки нравственного воспитания в начальной школе / С. Б. Судьина. — Текст : непосредственный // Педагогика: традиции и инновации : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, декабрь 2013 г.). — Т. 0. — Челябинск : Два комсомольца, 2013. — С. 123-126. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/98/4559/> (дата обращения: 19.03.2025).

16. Маркелова С.А. Сетевая дистанционная поддержка педагогической практики студентов // Диссертация кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 153 с.

17. Газман О. С. От авторитарного образования к педагогике свободы // Новые ценности образования: тезаурус для учителей и школьных психологов. — М., 1995. — 240 с.
18. Герова Н. В., Рогатинская А. В. (2021) Духовно-нравственное воспитание детей в условиях цифровой трансформации образования // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. — № 3. — С. 73-79. DOI: 10.17238/issn1998-5320.2021.15.3.8.
19. Шпак Н.О. Формирование гуманистических ценностей у молодых специалистов сферы управления// Общество и этнополитика: материалы Седьмой Междунар. науч.-практ. Интернет-конф., 1 мая - 1 июня 2014. РАНХиГС, Сиб. ин-т упр., под науч. ред. Л. В. Савинова. – Новосибирск: Изд-во СибАГС, 2015. – С.224-229.

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

### RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “KOMPYUTER LINGVISTIKASI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

*Jorabekov Timur Kewnimjaevich*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Kompyuter lingvistikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish usullaridan biri to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bunda qoraqalpoq tili fonetikasini interaktiv tipdagi veb-ilova yordamida o‘qitish va o‘zlashtirish samaradorligini tahlil qilish haqida gap boradi.

**Tayanch so‘zlar:** kompyuter lingvistikasi, raqamli texnologiya, interaktiv dastur, fonetika, veb-ilova, tajriba-sinov.

### МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ПРЕДМЕТУ «КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Жорабеков Тимур Кеунимджаевич*

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, Узбекистан

**Аннотация:** В статье излагаются идеи одного из методов организации практических занятий по предмету «Компьютерная лингвистика» с использованием цифровых технологий. В данной статье рассматривается анализ эффективности обучения и освоения фонетики каракалпакского языка с использованием интерактивного Web-приложения.

**Ключевые слова:** компьютерная лингвистика, цифровые технологии, интерактивное программное обеспечение, фонетика, Web-приложение, эксперимент.

### METHODOLOGY OF ORGANIZING PRACTICAL CLASSES ON THE SUBJECT “COMPUTATIONAL LINGUISTICS” USING DIGITAL TECHNOLOGIES

*Jorabekov Timur*

Karakalpak State University named after Berdakh, Uzbekistan

**Abstract:** This article presents opinions on one of the methods of organizing practical classes in the subject of “Computer Linguistics” using digital technologies. It deals with the analysis of the effectiveness of teaching and mastering the phonetics of the Karakalpak language using an interactive web application.

**Keywords:** computer linguistics, digital technology, interactive program, phonetics, Web application, experiment.

**Kirish.** Ma’lumki, oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llash talabalarning muayyan mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy hamda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qitish jarayonida har bir talabaga individual yondashuv muammosini

---

hal qilishda ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa “Kompyuter lingvistikasi” fanini o‘qitishda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Ayni vaqtida kompyuter lingvistikasining zamonaviy yutuqlaridan ta’lim, fan va ishlab chiqarishning turli sohalarida samarali foydalanilmoqda. Bu yo‘nalishda rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Shvetsiya, Avstraliya, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda kompyuter lingvistikasining rivojlanish tendensiyasini belgilab beruvchi asosiy vosita sifatida tabiiy tillarni nazariy-amaliy jihatdan tadqiq etishda foydalaniladigan usullar, modellar va dasturiy texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda tabiiy tillarni avtomatik tushunish (NLU), qayta ishslash (NLP), generatsiya qilish (NLG) va shunga o‘xshash global muammolarni hal etishga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda ham o‘zbek hamda qoraqalpoq kompyuter lingvistikasini rivojlantirish, til muammolarini dasturiy vositalar yordamida hal etish, erishilgan natijalarni ta’lim tizimiga tatbiq etish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqdaki, bular sirasiga o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi gap tuzilmalarini formallashtirish, turkiy tillar uchun lug‘atlar yaratish, nutqli signallarning shakllanish jarayonlarini modellashtirish, nutq sintezatorlarini yaratish, til obyektlarining mantiqiy-lingvistik va matematik modellarini yaratish masalalarini kiritish mumkin.

Bugungi kunda talabalarning dars mashg‘ulotlari sonini qisqartirish va yangi materialning intensivligini oshirish zarurati, mustaqil ravishda ishlay olmaydigan talabalarni butun dars davomida kuzatib borish zarurati, shuningdek, ilg‘or talabalarni doimiy ravishda rag‘batlantirib borish zarurati tufayli raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish mazkur muammolarni hal etishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois “Kompyuter lingvistikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv ilovalar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** [1]-[5] adabiyotlarda tilshunoslikning ayrim sohalarida axborot va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xususan, o‘zbek tilining fonologik tizimidagi supersegmental vositalar va ularni avtomatlashtirishning algoritmik asoslari, o‘zbek tili prosodik elementlarini sonli modellashtirish, algoritmlash va dasturlash, o‘zbek tilidagi so‘zlarni avtomatik bo‘g‘inlarga ajratishga oid interaktiv dasturiy vositalar yaratish va ulardan foydalanish metodlari to‘g‘risida batafsil ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

[6] adabiyotda lingvistik masalalarni avtomatlashtirilgan rejimda hal etishga oid interaktiv dasturlarni yaratishda Microsoft Basic muhitidan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy ma’lumotlar bayon etilgan.

Qoraqlapoq tili fonetikasini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish, turli interaktiv dasturlar yaratish uchun zarur bo‘lgan lingvistik modellarni qurishda [7] adabiyotdan foydalanildi.

[8]-[11] adabiyotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘liq qator muammolar va ularning ilmiy yechimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi amalda qay darajada samara berishini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalardan foydalanib “Kompyuter lingvistikasi” fanini o‘qitish samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida tanlab olingan guruhlarni 2 ta qismga: “tajriba guruhi” va “nazorat guruhi”ga ajratish.
2. Ajratib olingan “tajriba guruhi”da mashg‘ulotni raqamli texnologiyalardan foydalanib tashkil etish, “nazorat guruhi”da esa darsni an’naviy usulda tashkil etish.
3. O‘zlashtirish natijalarini matematik-statistika usullari asosida hisoblash va xulosa qilish.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davomida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

1. “Kompyuter lingvistikasi” fani asosida tayyorlangan o‘quv materiallari mazmunining o‘quv dasturi talablariga mosligi.
2. Mavzularga ajratilgan amaliy mashg‘ulotlarining ilmiy-uslubiy jihatdan o‘rinli ekanligi.
3. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning talabalar tomonidan qanday darajada o‘zlashtirilishi.
4. Amaliy topshiriqlarini bajarishda metodik qo‘llanmadan foydalanishning afzalligi.
5. Talabalarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan interaktiv tipdagi veb-ilovani o‘quv jarayoniga joriy qilish.
6. Tadqiqot materiallari asosida tayyorlangan o‘quv-metodik ta’minotga tajriba guruhidagi talabalarning moslashuvchanligini, qiziqishini va o‘zlashtirish darajasini kuzatib borish.

Tadqiqot ishi bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari esa quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**1. Tashxis va bashorat qilish bosqichi.** Bunda tanlab olingan oliy ta’lim muassasasining o‘quv rejasidagi tegishli fanga oid davlat ta’lim standartiga mos o‘quv reja soatlari va o‘quv dasturiga mos darslarning shakllari, o‘quv soatlarining mashg‘ulot shakli bo‘yicha taqsimoti, mavjud darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarining mazmuni o‘rganib chiqiladi. Shuningdek, dars jarayonida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar va o‘qitish metodikasidan foydalanish darajasi, talabalarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish holatlari o‘rganiladi.

**2. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi.** Bunda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish maqsadida pedagogik tajriba-sinov maydoni sifatida muayyan oliy ta’lim muassasasi tanlab olinadi. O‘qitilayotgan turli yo‘nalishlardagi respondent-talabalar saralab olinib, “Kompyuter lingvistikasi” fani bo‘yicha guruhlarning dars tahlili, darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nik-

malari tahlil etiladi. Respondent-talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini aniqlash jarayoni test sinovi shaklida amalga oshiriladi.

“Kompyuter lingvistikasi” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati o‘rganiladi va fan o‘qituvchilari bilan suhbat o‘tkazilib, ularning fikrlari o‘rganiladi. Raqamli ta’limni joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan anketa-so‘rovlar, suhbatlar usulidan esa talabalarning dars jarayonida raqamli texnologiyasidan unumli foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning malakalari darajasini aniqlash uchun foydalaniladi.


**3. Amaliy, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi bosqich.** Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish davrida “Kompyuter lingvistikasi” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘quv materiallar mazmuni va dars ishlanmasining tuzilmasi ishlab chiqiladi hamda fan o‘qituvchilariga tavsiya sifatida taqdim etiladi (1-rasm).

“Kompyuter lingvistikasi” fanini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik vositalari va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqiladi va amalda dars jarayoniga qo‘llab boriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida fan bo‘yicha talabalarning bilimini nazorat qilishga oid ta’lim resursi ishlab chiqilib, talabalarning o‘zlashtirish samaradorligi kuzatib boriladi.

**4. Umumlashtiruvchi-yakuniy bosqich.** Ushbu bosqichda raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan veb-ilovadan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib boriladi va tahlil qilinadi. Unda tajriba-sinov sifatida qabul qilingan guruhlarda o‘qitilayotgan talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi maxsus test dasturi yordamida sinovdan o‘tkaziladi va olingan natijalar tahlil etiladi. Shunday qilib, tajriba-sinov ishlari tashkil etilgunga qadar va tashkil etilgandan keyingi holatlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida “Kompyuter lingvistikasi” fanidan talabalarning bilim darjasini va bu jarayonda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining o‘zgarish dinamikasi jadval asosida tahlil qilinadi.

Umuman olganda, “Kompyuter lingvistikasi” fanidan har qanday mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi 3 ta maqsad asos qilib olinadi:

1. Talabalarga kompyuter lingvistikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish.
2. Matnlarni avtomatik tahrirlash (Automatic Text Editing, ATE), tabiiy tillarni avtomatik qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP), avtomatik tarjima (Machine Translation, MT) va sun’iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) asosida til tahlili bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish.
3. Zamonaviy dasturiy vositalar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha talabalarining malakasini oshirish.



**1-rasm. “Kompyuter lingvistikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotni interaktiv dastur yordamida tashkil etish tuzilmasi**

Yuqoridagi 1-rasmda ko‘rib turganimizdek, “Kompyuter lingvistikasi” fanidan raqamli texnologiyalar asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish 5 ta bosqichda amalga oshiriladi hamda talabalarning o‘zlashtirish samaradorligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, HEMIS tizimiga joylashtiriladi.

Quyida qoraqalpoq tilidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga avtomatik tarzda ajratishga oid veb-ilovaning bosh sahifasi namuna sifatida keltirilgan (2-rasm).

Ushbu veb-ilova bilan interaktiv usulda ishslash mumkin, ya’ni talaba istalgan qoraqalpoqcha so‘zni klaviaturadan kiritib, keyingi matn maydonida natijani olishga erishiladi.

Bunday interaktiv tizimlardan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida samarali foydalanimish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, raqamli texnologiyalar bilan ishslash malakasini oshirish va ularning mustaqil fikrlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



**2-rasm. “Syllables.uz” veb-ilovasining bosh sahifasi**

**Tahlil va natijalar.** Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompyuter lingvistikasi sohasida amaliy mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar asosida, xususan, interaktiv o‘qitish usullari nafaqat talabalar tomonidan fanga oid

bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, balki ularning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qish va o‘rganishda shaxsiy yondashuvdan foydalanish muammolarini hal qiladi.

**Xulosa va takliflar.** “Kompyuter lingvistikasi” fanidan amaliy mashg‘ulot mavzularini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish darslarni interaktiv usulda olib borish uchun asos vazifasini bajaradi. Interaktiv usulda olib borilgan darslar talabalarning nafaqat fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, balki kelajakda ularning kompyuter lingvistikasi sohasida yangi tadqiqotlar olib borishi uchun zamin yaratadi.

### **Adabiyotlar**

1. Арипов М., Норов А.М. Ўзбек тили фонологиясидаги суперсегментал воситалар ва уларни автоматлаштиришнинг алгоритмик асослари // «ТАТУ хабарлари» илмий-техника ва ахборот-таҳлилий журнали. – Тошкент, №3 (51), 2019. Б. 104-113.
2. Зубов А.В. Информационные технологии в лингвистике. – М.: «Академия», 2004. – 208 с.
3. Норов А. Ўзбек тилшунослигининг айрим соҳаларида информацион технологиядан самарали фойдаланишнинг долзарб муаммолари // «Таълим, фан ва инновация». Маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал. – Т.: 2015. – №3. – Б. 63-66.
4. Норов А.М., Муродов Ш.А. Ўзбек тили просодик элементларини сонли моделлаштириш ва дастурлаш / «Ахборот-коммуникация технологиялари ва дастурий таъминот яратишда инновацион ғоялар». Республика илмий-техник анжумани маърузалари тўплами. – Самарқанд, 2019. Б. 118-121.

5. Norov A. The numeral modeling of separating Uzbek words into syllables / «TurkLang-2018». VI International Conference on Computer Processing of Turkic Languages. – Tashkent, October 18-20, 2018. P. 43-48.

6. Осетрова И.С., Осипов Н.А. Microsoft Visual Basic for Application. – СПб: НИУ ИТМО, 2013. – 120 с.

7. Дәүлетов А. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Фонетика. – Нәкис, 2005. – 148 б.
  8. Jurayev T.N. Use of Digital Learning Technologies in Education on the Example of Smart Education. Journal La Edusci, V.1, No. 3, P. 33-37.
  9. Brolpito, A. (2018). Digital Skills and Competence, and Digital and Online Learning.
  10. Milton M., Vozzo L. Digital literacy and digital pedagogies for teaching literacy: Pre-service teachers' experience on teaching rounds //Journal of Literacy and Technology. – 2013. – Т. 14. – №.1. – Р. 72-97.
- Bobodjonov X.M. Interactive technologies in language teaching // Young Scientist. – 2020. – № 21 (311). – Р. 755-756.